

X.X. KAMILOVA, N.A. ISAXOJAYEVA,
K.R. FUZAILOVA

KOSTYUM KREATIV GRAFIKASI

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

X.X.KAMILOVA, N.A.ISAXOJAYEVA, K.R.FUZAILOVA

KOSTYUM KREATIV GRAFIKASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2017

UO'K: 687.01:687.112 (075.8)

KBK 37.24-2

K-73

K-73 X.X.Kamilova, N.A.Isaxojayeva, K.R.Fuzailova. Kostyum kreativ grafikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2017, 240 bet.

ISBN 978-9943-11-650-4

Ushbu darslik 5150900-Dizayn (kostyum) va 5320900-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari) yo'nalishlari bo'yicha tahsil oluvchi talabalar, hamda dizaynerlik sohasiga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda bo'lajak dizaynerlarning o'z g'oyalarini kreativ, noan'anaviy usulda qog'ozda tasvirlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish va kasbiy mahoratlarini oshirishga qaratilgan. Darslikda odam gavdasi esklarini kreativ chizish va rang tasvirini ishlashdagi barcha nazariy, hamda amaliy tasviyalar, kompozitsiya yaratish bilan shug'ullanish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan eng zarur qonun-qoidalar to'g'risida so'z yuritiladi. Darslikdan maxsus kasb-hunar kollejlarining o'quvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Этот учебник предназначен для студентов бакалавриата по направлению 5150900 - «Дизайн (костюма) и 5320900 - Конструирование и технология изделий легкой промышленности (швейные изделия), а также для всех заинтересованных в области дизайна. Учебные материалы направлены на развитие креативных идей графического изображения и улучшения их мастерства. В учебнике рассмотрены теоретические и практические рекомендации креативного рисунка и наиболее важные закономерности композиции. Кроме этого, этим учебником, могут пользоваться и учащиеся средне-специальных колледжей.

This book is intended for all students of Tashkent Institute of Textile and Light Industry in the direction of 5150900 – "Costume Design" and 5320900 – Developing light industry goods and technology (Sewing goods), as well as for those interested in design, including for the future designers to improve their creative ideas, the ability to depict on paper with unconventional techniques and improve their skills. The book describes the drawing of sketches of a human figure and its color image in all the theoretical and practical recommendations that should be followed the most important rules when creating a composition. In addition, students of secondary special colleges, as well as all who are interested in fine arts, can use it.

UO'K: 687.01:687.112 (075.8)


KBK 37.24-2

Taqrizchilar:

D.Qodirova – t.f.n., dotsent;

B.Umarov – «Istiqlol dizayn» Markazi direktori.

ISBN 978-9943-11-650-4



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2017.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. O'zbekistonning ko'p asrlik tarixi va 25 yillik rivojlanish davri, o'z davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlashga qaratilhgan taraqqiyoti bu haqiqatni yaqqol tasdiqlab berdi. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi [1].

Ozbek xalqi azaldan hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Ular tomonidan yaratilgan betakror san'at namunalarini hozirgi kunda ham dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda.

Davlatimizning muhim vazifalaridan biri, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlab rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat, chunki tadbirkor nafaqat o'zining oilasini, balki xalqni ham davlatni ham boqadi [2]. Shu maqsadda yetuk malakali dizaynerlarni tayyorlashda xorij tajribasiga tayanib o'quv adabiyotlarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun dizayn ta'lim yo'nalishdagi talabalarga kelajakdagi kasbiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun kostyum kreativ grafikasi fani muhim ahamiyatga egadir. Bu darslik talabalarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Ushbu kitob ikkala yonalishda: eskiz chizish mahoratini oshirib, chizishni o'rganmoqchi hamda illyustratsiyalardan foydalanib, qoralama eskizlar yaratadigan dizaynerlar uchun mo'ljalangan. Kitob o'z ichiga, kreativ g'oyalarning qog'ozga tushurish usullari va asosan, o'z ijodiy ishlarinigizdan qoniqish, hamda moda industriyasida yuqori cho'qqilarga erishish maqsadini amalga oshirishda, muallif g'oyalarning yanada takomillashtirishning eng qulay usullarini mujassamlashtiradi.

Dizaynda ish jarayoni nimasi bilan o'ziga jalb etadi? Ijodiy manbada izlanish yoki undan ilhomlanish deb nima nazarda tutiladi? Qaysi biri avvalroq shakllanadi? Vazifasiga ko'ra eskizlar va

illyustratsiyalar qanday chiziladi? Eskiz namunalarini loyihalashtirish jarayondagi barcha paydo bo‘ladigan savollarga ushbu darslikdan javob topiladi. Biroq, dizaynerning sohaga oid malakasi va rassomlik qobiliyati unda qiyofani mukammal tasvirlash ehtiyoji asosiy hisoblanadi, ommabopliliga qaramasdan g‘oyaning oddiyligi boshqacha tus olishi mumkin. Kitobda grafikaning bazaviy kursi, eskiz yaratish uchun zarur bo‘lgan texnika va materiallar haqida asosiy ma’lumotlar shuningdek, dizaynning asosiy g‘oyasi, model rasmlari namunalari keltirilgan, o‘z uslubini yaratish bo‘yicha izlanishlar, tikuv ustaxonali uchun mo‘ljallangan yanada mukammalroq va aniqroq texnik rasmlarni yaratish imkoniyatlari haqida bayon etilgan. Materiallar va texnikadan tashqari, kitobda ijodiy jarayon haqida so‘z yuritilgan, matolarga alohida e’tibor berilgan, bozorni, ishlab chiqarish tendensiyalari va bosqichlarini o‘rganishda foydalaniladigan ranglar haqida tasavvurlar, modellashtirish, maneken bilan ishlash va bir nechta kerakli maslahatlar yoritilgan.



1-rasm. Ruchka va kompyuter dasturi yordamida yaratilgan qoralama eskiz namunalari.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltilgan makro iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, va yuqori iqtisodiy o‘sish suratlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotni raqobat-bardoshligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini faol rag‘batlantirish investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari va hududlariga horijiy sarmoyalarni jalg etish, harakatlar strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir [3]. Buni amalga oshirishda dizayner tomonidan yaratilayotgan mahsulot bugungi moda urflariga xos bo‘lishi iste’molchilar ning talablaridan biridir. Moda – bu shaxsiy siymoni madaniylash-tirish, o‘z tashqi ko‘rinishini ifodalash san’atidir. Uning asosiy maqsadi – tashqi ko‘rinishning eng jozibali va e’tiborli qirralarini ajratib berishdir. Moda kiyim garderobiga alohida e’tibor berishga, shaxsni turli ko‘rinishda ifodalashga, uning xususiyatlarini ko‘rsatishga imkon beradi. Ushbu darslikda berilgan nazariy materiallar kostyum grafikasini yaratish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi, hamda libos eskizlarini chizish va rasmiylashtirishni ilk bor o‘rganayotgan dizaynerlarni yetuk mutaxassis darajasiga erishish uchun mo‘ljallangan.



2-rasm. Pero ruchkasi va pastel mellarida qog‘ozda ishlangan.



3-rasm. Ommabop qo'l va raqamli dastgoh bilan tasvirlangan.



4-rasm. Markerli ruchka va yumshoq grafit bilan ishlangan.



5-rasm. Monotipiya va rollerli ruchka texnikasida ishlangan eskiz.

Ma'lumki, chizma tasvir – har qanday badiiy amaliyotning asosiy tayanchi, modelyerning ijodiy ishining rivojlanishiga yagona ishonchli poydevordir, umuman tasviriylar san'at har bir ijodkor shaxs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir. Rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim o'rinni egallaydi. Modelyer tomonidan rasmni samarali qo'llash, ilhomlanishdan to katalog, jurnal va reklamalar uchun yakunlangan noodatiy uslubning ekspressiyasigacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Kostyum grafikasi, rassom ijodini namoyish etishdan tashqari, o'zida mujassam etgan texnik xususiyatlarini, ya'ni amaliy ma'lumotlarni va tasvirlangan obrazni, kiyim ishlab chiqarish jarayoniga moslashtirishdir.

Ijod – rassom faoliyatining ajralmas qismi bo'lsa ham, texnik rasmni chiza olish mahoratiga yo'naltirilgan o'qitish jarayoni natijasida ega bo'lish mumkin.

Bu darslikda taqdim etilgan materiallar, dizaynerda rasm chizish texnikasini va nazariy materiallarni egallashga, odam qomati va kiyim modellarini to'g'ri chizishga, yangi modellarni yaratishga,

badiiy materiallarni qo'llash, bo'yash, matolar va ularning tasviri bilan tanishishga zamin yaratadi.

Dizayn mukammallashtirish jarayonida eskizni ijodiy ish sifatida to'ldirilishi uchun qo'shimcha rang va faktura, hamda shakl uyg'unligida yaratiladi. Yana shuni ko'rish mumkinki, ishchi eskizlar yaratish uchun texnik rasm va maxsus eskizlar ishlab chiqishda konstruktiv va proporsional nisbiyligiga ega. Bundan tashqari kitobda libosni to'ldiruvchi aksessuarlar haqida, chizish usullari va mulohazalar keltirilgan bo'lib, g'oyalaringizni aniq tasvirlashga yordam beradi. So'ngi bob xalqaro guruhdagi dizaynerlari va rassomlari tomonidan yaratilgan mavsumiy moda eskizlari va illyustratsiyalarini turli tumanligini ko'rsatadi. Bu tasvirlar yanada ijodiy ilhom berib, namoyish etilgan barcha uslublar, ijodiy uslublar, ijodiy maqsadga erishishda tayanch bo'ladi.

I BOB. JIHOZLAR VA MATERIALLAR

Dizaynerga murojat qilinganda, uning ijodiy faoliyatini boshlashdan avval, unga ijod qilishi uchun material va jihozlar zarurligi hamda foydalanilish turlicha bo'lishini kuzatish mumkun. Tavsiyalarga ko'ra ish bir necha oddiy qog'oz va oddiy qalamlardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Ish tasvirni qog'ozga to'g'ri va chiroyli tarzda joylashtirishdan boshlanadi, so'ng har bir narsani o'zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar nisbatlar aniqlanadi. Bunda qalam yengil, qog'ozga ortiq darajada bosmasdan ishlatilishi kerak.

Rasmning samarali natijasiga qo'llini ishlatish texnikasi, rasm chizish tezligi, qalamni bosish darajasi ta'sir ko'rsatadi. Bu bo'limda kostyuming kreativ grafikalarini yaratish uchun dizaynerga zarur bo'lgan materiallar ro'yxati keltirilgan.

Dizaynerlar tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy materiallar modelni aniqroq tavsiflashga, mato teksturasini ifodalashga va rasmini yanada tushunarli, hamda ko'rgazmali bo'lishiga imkon yaratadi. Zamonaviy libos namunalarini chizishda turli vositalar qo'llaniladi. Bunda dizayn sohasidagi professional mutaxassislar tomonidan odatda qo'llaniladigan materiallar ham berilgan. Ishda plastik vositalar qanchalik ko'p ishlatilsa, loyiha eskizlari ham shuncha boyitilgan bo'ladi.

1.1. Dizaynerning ish joyi

Etyudnikdan har yerda foydalanish mumkin, ammo dizayner uchun uning talablariga mos tashkillashtirilgan aniq maxsus ish joyi bo'lishi zarur. Ranglar bilan ish olib borish jarayonida, ish joyi tabiiy yorug'lik manbai bilan ta'minlangan bo'lishi, bunda yorug'lik derazadan yoki harakatli kunduzgi lampalar (urning to'liq spektr) orqali yetkazilishi va tanlangan joy e'tiborni bir yerga jamlashga imkoniyat yaratishi kerak. Ish jarayonida dizayner uchun stol va kresloni mustahkamligi, hamda qulayligi ta'minlanishi muhimdir.

Ko‘pgina dizaynerlar qiya yuzada chizishni xush ko‘radilar. Bunday vaziyatda tirkakli chizmachilik doskadan foydalanish mumkin. A2 yog‘och doska ham foydalanish uchun eng yaxshi ish quroli bo‘lib, faqat katta hajmdagi joyni egallaydi. Eng kichik o‘lcham A3 formatdir.




6-rasm. Dizaynerning ish joyi.

1.2. Asosiy materiallar va jihozlar (Bazaviy komplektlash)

O‘z ijodiy ishidan mammun bo‘lgan dizayner bir vaqtda faqatgina bir nechta, oddiy ruchka va qalam bilan cheklanmasdan, balki turli xil tarkibdagi rangli qalamlar, rangli ruchkalar, turli xildagi qog‘ozlar va qo‘srimcha yelim vositalari dizayner yonida bo‘lishi lozim.

Qalam va ruchkani to‘g‘ri ushlash. Dizaynerlar ishlata digan turli xil materiallarni ko‘rib chiqishdan oldin, qalam yoki ruchkani to‘g‘ri va noto‘g‘ri ushlash usullari orasidagi farqlarni aniqlab olish zarur. Bunda ming yillik tajribaga tayangan holda, chizgilar orqali ma‘lum bir qiyofani yuksak darajada ko‘rsatib berilishi, dizaynerning o‘z texnikasini shakllantirishi va umuman olganda ularni o‘zlash-tirishiga asos hisoblanadi.



Asosiy jihozlar: Hozirgi kunda oddiy qora qalamning juda ko‘p turlari mavjud. O‘rtacha yumshoq qalamlardan tortib, juda ham qattiq qalam turlari shular jumlasidandir. Tariximizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ibtidoiy davrlarda odamlar g‘orlarga, tog‘u toshlarga turli xil tasvirlarni turli tasvir vositalar yordamida ishlab qoldirishgan. Ammo rivojlanish jarayonida tasvir vositalari ham takomillashib bordi. Oddiy qora qalamlar ham shular jumlasidandir. XVI asrda Angliyada grafit konidan topilgan tayoqchalar rasm chizishda qo‘llanilganda, ularning qog‘oz yuzasida juda ham nafis va chiroylı chiziqlar tushira olish xususiyatiga ega ekanligi aniqlangan. Shu kunlarda foydalanilayotgan oddiy qora qalamlar XVII asming oxirida fransuz olimi N.Kante tomonidan kashf etilgan bo‘lib, ularni yog‘och moslamasiga yopishtirib ishlatish taklif etilgan. Bunday qalamlardan ko‘proq xomaki rasm ishslash yoki kompozitsiya eskizlari tayyorlashda foydalaniladi.

- Qalamlar qattiqligi va yumshoqligi bilan farqlanib, “H” qattiq qalamlar va “B” yumshoq qalamlar deb ataladi. Chiziqnинг barqarorligi va ifodaliligi quyidagi ikkita omilga bog‘liq: chizish vaqtida qog‘ozga bosish va qalamning qattiqlik darajasi. Rasm chizish jarayonida a’lo natijaga erishish uchun qalamning yon qismidagi harflarga e’tibor berish kerak, chunki ular qalamning qattiqlik darajasini bildiradi. Qalam turlarining qattiqligi va

yumshoqligi yuqori darajada bo‘lishi kuzatiladi, bunda qattiqligi turlicha bo‘lgan qalamlar “H” toifaga va yumshoqligi turlicha bulgan qalamlar “B” toifaga kiruvchi qalam turlarini sirasiga kiradi. Binobarin, ‘H’ dan ‘B’ gacha bo‘lgan qalamlar sust chiziqlarni chizishda, qoralama eskizlarni dastlabki bosqichida qo‘llaniladi. “B” dan “6 V” gacha bo‘lgan qalamlar, chizilgan rasmga hajm berishda, bosimni o‘zgartirib bir vaqtning o‘zida yumshoq chiziqlarni va aniq to‘q shtrixlar birikmasini yaratishda ishlatiladi.

- Rasmni ifodalashda yumshoq va noaniq samaraga erishish uchun qo‘llaniladigan rangli qalamlar (mellar)ning ranglar ko‘lamli keng, yaxshi tusga ega va suvda eruvchan bo‘lishi lozim. Melli qalamlar ko‘mirga o‘xhash hususiyatga ega, ularni ingichka chiziqlar chizish, keng qamrovli tuslar berish, hamda pastel qalamlar bilan qo‘sib ishlatish mumkin.

- Gel siyohli sharikli va roller-ruchkalar keng ko‘lamli hammabop bo‘lib, foydalanish uchun qulaydir. Bunda ruchkalarni chizma asboblari singari ushslash va ishlashga qulay bo‘lganlarini tanlash zarur. Mo‘yqalam dizaynerga turli qalnlikdagi, tez, mohir va ifodali mujmal chiziqlarni yaratishga imkon beradi.


- Tush (pero ruchka) – yuqori bo‘yovchi xususiyatga ega suyuq substansiya bo‘lib, agar quyuq tush bilan ishlansa, unda suv bilan aralashdiriladi, natijada to‘lqinli, shaffof, ingichka chiziqli, aniq va kontrast eskizlarni yaratishga imkon beradi. Qayd qiluvchi sprey, eskizni yakunlagandan so‘ng, qalam, ko‘mir va pastelni qayd qilishda qo‘llaniladi.

- Stepler, yelim, niqoblovchi va ikki tomonlama tasmalar materiallarni umumlashtirshda, qatlamlarni qayd qilish va birlashdirishda, chizma atroflarini niqoblashda qo‘llash zarur.

- Stikkerlar albomga material bo‘lagini va boshqa elementlarni qo‘sishda ishlatiladi.


Tasviriy san‘at turi sifatida chizmatasvir ishlaganda muhim bir jihatga e’tibor qaratish zarur. Tekislikdagi buyumlar uch o‘lchamli tasvir asosiga ega bo‘lib, haqqoniy tasvir yuzasida namoyon bo‘ladi. Bu uning hayotdagi real aksi. Rassomning vazifasi hayolotni emas, balki borliqqa taqlid qilib asar yaratishdir. Chizma tasvir – bu turli vositalar yordamida tasvirlanayotgan borliq bilan dialektik yaxlitlikni tashkil etadi.

6H 5H 4H 3H 2H H F HB B 2B 3B 4B 5B 6B 7B 8B




7- rasm. Grafit qalam turlari.


Qattiq qalam




O'rtacha qattiqlikdagi qalam




Yumshoq qalam




Yog'li rangli qalamlar




Sharikli ruchka




0.05 mm



flomaster ruchka



0.5 mm




o'rta qalinlikdagi gelli ruchka




0.8 mm




ingichka qalinlikgagi gelli ruchka



Pero ruchka




Siyohli ruchka



Rangli roller ruchkalar



Turli rangdagi flomasterlar
(Tarkibi spirit bo'lgan)



8-rasm. Turli xildagi tasviriy vositalar.

1.3. Mutaxassislik uchun zaruriy jamlanmalar: Eksperimental va sohaga oid

O‘z layoqatingizdan kelib chiqan holda qat’iy ishonchga ega bo‘lish uchun keng qamrovli mutaxassis sifatida o‘z usulingiz yo‘nalishini aniqlash tajribalar orqali erishiladi. Bunda tarkibi “Quruq” va “Nam” bo‘lgan materiallar tasniflanadi. Bundan tashqari birqancha turdagи qog‘ozlar tarkibini va taylorlash usullarini o‘rganish muhim.

Tarkibi quruq materiallar:

- Grafitli qalamlarning qattiq turida juda ingichka, nimjon chiziqlarlarni, hamda barmoq bilan yurgizish mumkin bo‘lgan to‘q va yumshoq chiziqlargacha chizishda foydalaniladi. Grafit – qalamlar o‘zagini tashkil etadigan qo‘rg‘oshin-kulrang modda nazarda tutiladi, u ixtiyoriy modelni chizishda ommabop asbobdir. Bu oson o‘chiriladigan, batartib aniq chiziq qoldiradigan, ishlatalishda o‘zagini paydo qilish bilan kifoyalanadigan material.

- Chinagraph mumli qalamlar har qanday yuzada dadil chiziqlarni chizishda ishlataladi.

- Conte qalamlari - pastel mellari bo‘lib, uning yordamida juda yumshoq, hamda to‘q va aniq bo‘lmasan chiziqlar yaratish mumkin.

- Ko‘mirli qalamlarning asosi pista ko‘mirning qalam ko‘rinishidagi shakli bo‘lib, uning turlicha navlari mavjud. Ko‘mir yordamida turli xil o‘ta yumshoq va ingichka chiziqlardan to‘q va qalin chiziqlargacha chizish mumkin.

- Chalk (tarkibi quruq) pasteli qattiq yoki yumshoq shaklda bo‘lishi mumkin. Moybo‘yoq (pigment), loy (glina) va arab yelimi (gummiarabik), shuningdek, bo‘yoqlar bilan birga ularning qiymati tiniq moybo‘yoq tarkibiga ta’sir qiladi. Uch asosiy ranglar birikmasidan hosil bo‘lgan ranglar birikmasida tarkibi moy bo‘yoq miqdori ko‘p bo‘lib, oq rang qo‘sishchasi oshirilganda bo‘yoq qiymati pasayadi. Qiymati yuqori bo‘yoqlardan mashg‘ulotlarda tajriba o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lmadi.

- Moyli pastellar asalari yoki mineral mumi va qurimaydigan vazelin bilan bog‘langan moybo‘yoqdan tarkib topgan. Ular dadil, tuzilishli chiziqlarni hosil qilishga, tez bajariladigan qoralama eskizlarni chizishga ishlataladi. Bunday moyli pastellarning yana bir xususiyati ularning katta hajmdagi maydonlarda ishlatalishi va bir xil

tiniq rang hosil bo'lishi uchun yorug'roq ranglardan foydalanib aralashtirilishidir.



9-rasm. Rangli qalamlar.



10-rasm. Pastel qalamchalari.

Tarkibi "nam" materiallar:

• **Markerli ruchkalar** (tarkibi spirtli) ranglarning fantastik ko'lamiga ega. Har bir pero ikki xil o'lchamli uchga ega bo'lib, ularni universalligini ta'minlaydi, tiniq ranglar olishning tez va samarali usuli hisoblanadi.

• **Akvarel** – rang tasvirning eng nozik tasvirlash vositalaridan biri. Qadimdan akvarel o'zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib, «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar» ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va biriktiruvchi modda

sifatida olcha elimi, glitserin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo‘lgani uchun bo‘yoqqa suv qo‘sib suyultirib ishlataliladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o‘rnini oq qog‘ozning o‘zi o‘taydi. Qog‘oz oppoq, etarli darajada qalin va yuzasi g‘adir-budir bo‘lishi zarur. U agar juda silliq bo‘lsa, sathida ranglar etarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo‘yash jarayonida umumiyyadan xususiyga yoki aksincha, xususiydan umumiyyaga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Akvarel asosan arab yelimi (gummiarabik), glitserin va rangli moybo‘yoqdan iborat bo‘lib, tushdan farqli yumshoq ranglar gammasini beradi. Akvarel bo‘yoqlari suv va mo‘yqalam yordamida turli qalinlikdagi chizgilar qog‘ozga tushiriladi. Tonal ranglar hosil qilishda akvarel bo‘yoqlari takroran foydalanish natijasida hosil bo‘ladi.



11-rasm. Akvarel texnikasida ishlangan model eskizi.


• **Akril bo‘yoqlari** – bu eng zamonaviy badiiy vositadir. Akril bo‘yog‘ining asosiy tavsifi – ularning o‘zgaruvchanlik imkoniyatining

borligidir. Ular jilosiz yoki shaffof bo'lishlari mumkin, bu esa eskizning nozik bezagini hosil qilish imkonini yaratadi.

• **Guash** – asosi suvdan iborat, shaffof bo'Imagan suyuqlik bo'lib, tekis rang yotqizish uchun qo'llaniladi. Tarkibi turlicha bo'lishiga qaramasdan guash va akril bo'yoqlari o'xhash tavsifga ega. Guash bo'yog'i akvarel bo'yog'ining tamoman aksi bo'lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug'likni yutganligi sababli uning tagidagi qog'oz ko'rinish, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari – bo'yoq kukuni va uni bog'lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog'och yelimi bilan mo'tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo'ladi. Guash bo'yog'ining yana bir muhim jihatni uning oq bo'yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo'yoqni ishlatish uchun mo'yqalamalar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo'Imasligi, bir oz dag'aldoq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog'oz yoki karton ham silliq bo'Imagani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha elimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo'lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo'yog'ini yaxshi surtish mumkin bo'ladi. Guash ko'pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda va qisman rangtasvirlarni bajarishda foydalaniladigan, suv qo'shib ishlatiladigan, tez quriy-digan bo'yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo'yoq surtilgan paytida to'q, qurigandan keyin esa ochlashib ko'rinishidir. Shu jihatini hisobga olib turilmasa ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchallarda tayyorlanib olinib, so'ng unga bir oz boshqa qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to'q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

• **Mustahkamlovchi sprey** – qalam, pastel mellari, ko'mirli qalam va mumli qalamlarni qog'ozga mustahkamlash va illyustratsiyasini to'ldirish uchun ishlatiladi.

• **Yelimli Sprey** – tekislikga hajm va faktura berishda qo'llaniladi. Undan foydalanish jarayonida ishlashtirilishi joyda tavsiya etiladi.



Tarkibi quruq materiallar

Graflti qalam	
Chinagraph mumli qalam	
Conte qalamlar	
Ko'mirli qalam	
Qattiq Chalk quruq pastel galami	
Yog'li pastel qalami	

Tarkibi nam materiallar

Siyohli ruchka	
Marker doska uchun	
Ingichka uchli marker	
Akril bo'yog'i	
Shag'am ustidan siyoh yurgazish (shag'amli siyoh)	
Guash	

12-rasm. Tarkibi quruq va nam materiallar.

Qo'llaniladigan qog'oz: Qog'oz modelerlarda ko'proq qo'llaniladigan material bo'lib, unda rasm chiziladi, loyihani taqdimoti davrida eskizni odatda mato namunalari to'ldiradi. Qog'ozning turlicha navlari mavjud, uni tanlashda, nima bilan chizishni aniqlashimizga bog'liq. Rasm chizish uchun original ko'rinishdagi va formatdagi qog'ozni tanlash ijodiy siymolarga yangi o'zgacha qo'shimcha bo'lishi mumkin.

Mayda donali va satinli qog'ozlarda kulrangning barcha gammasini qo'llash, aniq eskizlar yaratish, grafitli va rangli qalamlarda ishslash yaxshi natijaga erishiladi. Rangli qalamlar bilan oq silliq qog'ozda eskizlarni chizish, sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bunday qog'ozlarda flomaster bilan ishslash yaxshi samara beradi. Flomaster

bilan ishslashda ko'proq Layot - qog'ozi mos keladi. Uni yuqori singish xususiyatga ega bo'lishi siyohni o'ziga yaxshi shimb oladi [4].


	O'rtachaHB	Yumshoq qalam	Ko'mirli qalam	Siyohli pero ruchkasi	Roller ruchka 0.8mm	Bo'yog chetkasi	Sharikli ruchka
Yirik donali qog'oz							
Karton qog'oz							
O'ziga yaxshi shimuvchi qog'oz							
Akvarel uchun qog'oz							
Voskovka (nusxa ko'chirish uchun ishlatiladigan mum qog'oz)							

13-rasm. Qo'llaniladigan qog'oz turlari

- Yirik donali qog'ozlar modeler tomonidan chizilgan rasmlarga to'g'ri kelmaydi, chunki qog'ozni bo'yaganda mayda oq dog'lar hosil bo'ladi. Bu esa, rasmning aniqlik sifatini kamaytiradi. Ko'proq o'rtadonali qog'oz – Kanson tavsiya etiladi. U o'rtacha qalinlikda va turli ranglarda bo'ladi. Akvarel bilan ishslash uchun maxsus qog'oz talab etiladi. Bunda yuqori singish xususiyatlari o'rtadonali qog'ozlar ma'qul keladi (zig'ir va paxta tola, sellyulozadan ishlab chiqilgan).

- Rasm chizish uchun bloknot turli xil formatda va sifatda bo'ladi. Varaqlarining o'chhami va qo'llanilishda osonligi bilan

farqlanadi. Odatda, ulardan loyihalarni yaratishda foydalanilmasada, boshlang'ich g'oyalarni belgilab qo'yishda, qoralama eskizlarni chizishda, ilhomlangan eskizlar suratini yoki materiallarni bo'lagini yopishtirishda qo'llanilisi mumkin.



Qo'llaniladigan qo'shimcha jihozlar: Dizaynerning ijodiy ishiga avvalgi bo'limda ko'rsatib o'tilgan materiallardan tashqari zamonaviy jihozlar ham zarurdir.

- Laytbokslar rasm chizish uchun qog'ozda bevosita ishlashni xush ko'radiganlar uchun foydalidir. Agarda nusha ko'chirish kerak bo'lsa, rasmning qog'oz bo'lagi joylashtirilib, chegarasi ustidan yurgiziladi.

Kompyuter, printer va skaner ijodiy faoliyat jarayonida foydali bo‘lib, dizaynga zamonaviy yondashish imkoniyatini yaratadi. Shaxsiy kompyuter Photoshop, Illustrator, Corel v 2D zamonaviy dasturlar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Bugungi kunda tasvirlarning sifatini yaxshilashning ko‘p usullari mavjud: tekstura va rangni qo‘sish, skaner qilingan rasmning mashtabini o‘zgartiri, bir necha rasmlarni birlashtirish yoki suratlar, tasvirlar, va matnlar qo‘yib kollajlar yaratish. Biroq, ijodkor esda tutushi lozim bo‘lgan fikrlardan biri bu: “... ushbu ushublar yaratuvchanlikni mukammallashtirishtirmaydi hamda ular faqatgina g‘oyalarni amalgaloshirish vositasi bo‘lib qo‘llanilishi lozim...”(Patrik Morgan) [4].

I bobga oid nazorat savollari:

1. Dizaynerning ish faoliyati to‘g‘ri tashkillashtirishi uchun xonani jihozlashda qanday vositalar bo‘lishi kerak?
2. Qalamning qattiqlik darajasi nimaga bog‘liq va u qanday sharoitlarda qo‘llaniladi?
3. Rasm chizish uchun qo‘llaniladigan qog‘oz turlarini aytib bering?
4. Dizayn sohasida qo‘llaniladigan qanday zamonaviy dasturlarni bilasiz?

II BOB. ODAM ANATOMIK TUZILISHI VA HARAKAT HOLATI

Moda eskizlarini ishlab chiqishagi ilk qadam bu libosni yaratishda qomat tuzulishdir. Natijada, anatomik odam qomatini model qomat eskizlari yaratishda asosiy tayanch bo'ladi. Yahshi natijaga erishishda bazaviy odam qomatining silueti asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bu bobda ayol va erkak qomat tuzilishi va proporsiyalarini yoshga nisbatan tug'ri bat afsil holatda; turli hildagi turish holatlarini chizish, ya'ni statik va dinamik hamda tana a'zolarining, qo'l, oyoq, soch va yuz qismini alohida o'rganib chiqiladi.

Mukammal malakaga ega bo'lib, fiziologik model qomatini shakkantirilganda o'z ishlash uslubingiz rivoshlantirish muhim hisoblanadi, bundan tashqari bobda odamni ilhomlantiruvchi turli hildagi kompozitsiyalar va uslublar keltirilgan.

Moda sohasida mutaxassis bo'lib yetishib chiqayotgan ta'alablardan odam qomatini tasvirlash katta kuch, hamda qonun-qoidalr va timsollar orqali ifodalangan go'zallik qonunlarini izlash va qayd qilishni talab etadi. Qonun - qoidalarni o'rganish – bu odam qomatini to'g'ri chizish uchun zarur bo'lgan baza bo'lib, eskizda ijodiy yondashuv bo'lishiga qaramasdan, kiyim tuzilishi odam qomatiga moslangan bo'lishini hisobga olish zarur. Odam qomati tahlil natijasida, akademik chizma tasvir asosida o'rganilib, moda usuliga moslashtirilgan holda uslublashni o'rganish, ya'ni tananing turli qismlari orasidagi nisbatlarni to'g'ri saqlagan holda, odam qomatining ayrim proporsiyasini o'zgartirish nazarda tutiladi.

Tasviriy san'atni plastik anatomiyasiz tasavvur etish qiyin. Malakali rassomlar chizmatasvir, rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik san'atida inson qomatini haqqoniy bajarishda, uni jonli shakkantirishda plastik anatomiya oida ma'lumotlarni mukammal bilishlari lozim. Plastik anatomiya fani odam tanasining umumiyligi anatomik tayanch – harakat tizimidagi suyak va muskullarning tuzilishi, shakl, ularning birikishi, bo'g'im turlari va ulardagagi harakatlarning ma'lumotlaridan tashqari, odamning dinamik va statik holati, tashqi

fazo, bo'shliqda tana og'irligi muvozanat saqlash, hamda tana turli qismlarining nisbatlarini o'rgatadi. Gavdaning holati o'zgorganida suyak va muskullar holatining odam qiyofasiga qanday ta'sir etishini bo'lajak dizayner rassomlar plastik anatomiya orqali o'rghanadilar [5].

Ma'lumki, inson qomatini chizish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda albatta akademik rasm ishlash amallari qo'llaniladi. U esa oddiydan murakkabga o'tib borish orqali yuzaga chiqariladi. Odam tasviri talabalar, uni endi chizishni o'rganya-yotganlar uchun ancha murakkab ishdir. Bu sohaning nazariy qismini o'qib, o'rganish mashqlar uchun chiziladigan vazifalar sifatini oshirishning omilidir. Chunki nafaqat yillar, balki asrlar davomida akademik rasm chizish sirlari ochilib, tadqiq etib, takomillashtirilib kelinmoqda. Shundan ma'lumki, o'ziga xos, inkor etib bo'lmaydigan tamoyillar, qonun-qoidalar vujudga kelgan. Ularga amal qilinishi ayniqa, o'rganuvchilarga yordam beradigan zo'r omildir.

Odam qomatini to'liq tasvirlash, uning bosh qismini chizish amallari to'liq o'zlashtirilib olingach boshlangani ma'qul. Shunda dastlabki mashqlardanoq etarli samaraga erishish mumkin bo'ladi. Asosiy e'tibor tanani tadqiq etish va tasvirlash ishiga qaratiladi. Ma'lumki, inson qaddi-qomatining o'z o'lchamlari, mutanosiblik tamoyillari mavjud. Masalan, yosh bola boshining o'lchami tanaga nisbatan jihatdan ancha mutanosiblikda bo'ladi va tanaga, uning balandlik o'lchamiga olti, yetti, ba'zan etti yarim karra joylashadi. Albatta bu me'zonlar nisbatan bo'lib turli odamlarda har xillik kasb etadi.

Odam qomatini chizishda uning tuzilishini (konstruksiyasini) bilish katta ahamiyatga ega. Buning uchun chizuvchi tananining qanday harakat holatida, qay vaziyatda turganligini qoralama chizgilar qilish orqali tahlil qilish, ko'plab shunday mashqlar bajarishi, so'ng asosiy ishni boshlashi kerak. Chizganda ham qiyofani, uning barcha bo'laklarini alohida-alohida emas, balki yaxlit aks ettirishga urinish, hamda buncha erishish lozim bo'ladi. Ammo har bir bo'lak uning tasvirda tutgan roli ham unutilmasligi kerak. Turgan odam qiyofasini chizishning asosiy amallari nimalardan iborat, degan savolni oldimizga qo'yib, unga javob beraylik:


Ilgarigi vazifalardagidek bunisida ham dastlabki maqsad obyektni qog'oz sathiga chiroyli qilib joylashtirishdan iboratdir. So'nga tana turish vaziyati, holati topiladi, keyin qomatning qismlari,

o‘lchamlari o‘zaro mutanosibligi topiladi. Ular odamning keksa yoshligiga, semiz yoki ozg‘inligiga, bo‘yining past yoki balandligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda albatta odamning qaysi bir oyog‘iga, yoki ikkala oyog‘iga tayanib turganligi e’tiborga olinishi muhimdir. Chunki shunga qarab tananing holati o‘zgarib turadi. Yelka, bosh, bel, tos, qo‘l va oyoqlar turishi har xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ma’lumki, odam umurtqa pog‘onasining tuzilishi ham uning ko‘rinishiga ta’sir etadi. Ba’zi tanalarning turishi tik bo‘lsa, ba’zilari bukchayibroq ko‘rinishi shundan.


Tananing har bir a’zosi gorizontal va vertikal chiziqlarga nisbatan qanday vaziyatda ekanligi muntazam ravishda tekshirib turiladi. Butun tananing tayanch nuqtasi mavjud bo‘lib, u og‘irlik qaysi oyoqqa tushayotganiga, yoki ular oralig‘iga tushayotganini aniqlashda qo‘l keladi. U to‘g‘ri, joyida topilmagan bo‘lsa, odam qiyofasi og‘ib, yiqilayotganga o‘xshab chiqib qolishi mumkin. Shu sababdan tekshirish uchun ba’zan osma shovundan foydalanish mumkin. U barcha perpendikulyarlarni topishda zo‘r vositadir.



Odam qiyofasini chizishni o‘rganishda uni skelet bilan solishtirib tekshirish, tananing asosiy mushaklari tizimini Gudon «ekorshe»idan ko‘rib o‘rganish maqsadga muvofiq. Ana shunda chizuvchi tananing qaysi bo‘lagiga urg‘u berishi va batafsil ishlashi kerakligini tushunishi oson bo‘ladi. Chunki suyaklar tizimini belgilovchi skelet va mushaklar tana qismlarining shakli-shamoyilini yaqqol qilib aks ettirishda yordam beradi. Umuman yuqoridagilarni sifatli bajarilishi uchun har bir talaba plastik anatomiyanadan yaxshi xabardor bo‘lishi zarur. Shuni ham ta’kidlash o‘rinlikni, ishni bajarishda soya-yorug‘ munosabatlarini to‘g‘ri topib tasvirlash ham ahamiyat kasb etadi. Chizish mobaynida katta soyalar va yorug‘, yarimsoyalarni birvarakay belgilab tuslab borilishi tasvirning hajmli ko‘rinishini ta’minlaydi. Umum tanani aks ettirishda uning mayda qismlarini ham yo‘l-yo‘lakay aniqlashtirib boriladi, ammo bunda yaxlitlikka putur etkazilmasligi kerak. Tasvirlash jarayoni izchillikda bosqichma-bosqich olib borilsa, oxirida barcha tomonidan ish tekshirib umumlashtirilsa vazifa yaxshi chiqishi ta’milanadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, vazifani tugal holga keltirish tajribaga, ya’ni ko‘p, erinmay, sabot bilan ish olib borilishiga bog‘liqdir. Nazariy bilimlarni o‘tmish usta rassomlari merosini kitoblardan o‘qib o‘rganish yordamida oshirib borilishi kerak.

Mahorat oshgandan so'ng, elektron eskiz doskasida qoralama eskizlarni ishlab chiqishlganda natijada mukammal qomat shaklini olish mumkin. Qo'shimcha qilib, qomat shaklining hajmini nusxalash qurilmasida yoki kompyuterda o'zgartirish mumkin.






14-rasm. Ayol qomati akademik chizma tasviri.







15-rasm. Erkak qomatining akademik chizma tasviri.





16-rasm. Inson qomatini sxematik ko'rinishda tasvirlash.






17-rasm. Ayol qomati (torsi) harakat holati.


2.1. Model qomati proporsiyasi

Odamni tasvirlash rassomning (dizaynerning) eng asosiy vazifalaridan biri. Gavdaning barcha tana qismlarini o'zida ko'tarib turadigan asosiy qattiq tayanchi skeletidir. Odam skeleti, asosan uch bo'lakka bo'linadi: bosh suyagi, gavda suyaklari va qo'l-oyoq suyaklari. Gavda suyaklari umurtqadan, ko'krak qafasidan iborat. Ko'krak qafasi suyak-tog'aylardan iborat harakatchan tuzilma bo'lib, ko'krak bo'shlig'ida ichki tana a'zolari joylashgan bo'ladi. Ko'krak qafasi gavda umurtqalari, 12 juft qovurg'a va to'sh suyagining birikmalaridan tuzilib, konussimon shaklga egadir. Gavda umurtqa pog'onasini hosil qiluvchi suyaklar – umurtqalarning o'simtalaridir. Umurtqa pog'onasi skeletining asosiy o'qi bo'lib, uning ustki qismini pastki qismi bilan birlashtirib turadi, u egiluvchan toq suyak tuzilmasidan iborat. Umurtqa pog'onasi 7ta bo'yin, 12 ta ko'krak, 5ta bel, 5ta dumg'aza va 4-5ta dum umurtqalaridan iborat bo'ladi va bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza hamda dum bo'limlariga bo'linadi.

Umurtqa pog'onasining uzunligi butun tana uzunligining 40 foizini tashkil etadi [5].



18-rasm. Ayol qomati proporsiyasi bosqichlari.




19-rasm. Anatomiq proporsional model ayol qomati.

Har bir modeler rassomlar qomat proposiyasini chizishda o‘z uslubiga tayanadi. Odam qomatini model qomatiga yaqinlashtirishda loyihalashga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Bo‘rttirish usulini qo‘llashdagi asosiy natija qiyofani shakllantirish, mukammal ayol qomati yetti yarimdan sakkiz yarim modulga teng.

Odam gavdasining mutanosibligini tasvirlash uchun tasviriy san’at bilan shug‘ullanuvchi barcha insonlar tasviriy san’atning nazariyalardan chuqur bilim hamda malakaga ega bo‘lmog‘i lozim. Inson gavdasi, shuningdek, bolalar gavdasi ham jinsiga ko‘ra tuzilishi bo‘yicha bir mucha farq qiladi. Rassom va haykaltaroshlar odam tanasining turli qismlari va tashqi qiyofasiga alohida e’tibor bergenlar. Qadimgi Misrliklar inson tanasining ayrim qismlari (bosh, panja, barmoq, tovon, burun)ni o‘lcham birligi hisobidatananing boshqa qismlariga taqqoslaganlar. O‘z vaqtida Misr rassomlari “Kanon” o‘lchami bo‘yicha inson gavdasini qo‘l panjasining uzunligi bilan o‘lchashni tavsiya etgan. Bu o‘lcham bo‘yicha odam tanasining bo‘yi yigirma bo‘lakka bo‘linadi. O‘tgan asrda yashab o‘tgan rus rassomi A. Sapojnikov esa odam gavdasini oyoq panjasining bo‘yi bilan o‘lchashni tavsiya qilgan. Uning o‘lchami bo‘yicha gavda bo‘yi o‘ttiz o‘lcham birligiga teng bo‘lgan. Bu o‘lcham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, undan amalda foydalanilmadi. Chunki bunday mayda bo‘lak o‘lcham birligi bilan rasm chizish juda ham ko‘p vaqt ni talab etadi. Shuning uchun amalda foydali o‘lcham birligi o‘rtalarda yashagan buyuk rassom va haykaltarosh Mikelanjelo tomonidan ilgari surildi. U gavdani inson boshi uzunligining o‘lcham birligi etib tavsiya qildi. Agarda shu o‘lcham birligi bilan o‘lchaydigan bo‘lsak, u sakkiz bo‘lakka bo‘linadi. Masalan, bosh, yelkadan ko‘krakkacha, ko‘krak markazidan kindikkacha va hokazo.

Odamning proporsional qomatini konstruksiyalashda boshning o‘chlamlari asosiy rol o‘ynaydi va bazaviy modul bo‘lib hizmat qiladi. Tana harakatlari muskullarga bog‘liqligi, bunda qomat shaklini harakatlarda o‘zgarishi holatlarini bilish - bu odam qomatini oldindan ko‘ra bilishini yordam beradi. Odam qomatini guruhlarga ajratib tasvirlash ijodkor uchun bir qancha afzallikga ega bo‘lib, uning bilim va malakasini oshirishga yordam beradi. Amaliy tajriba hamma vaqt o‘rganishga imkon bergen. Bu eskizlar real tik qomatni ko‘rsatib, model qomati eskizi o‘lchamini to‘g‘ri olishda bosh

qismini modul hisobga olinadi. Ayol va erkak qomati shaklini ajratib turuvchi bir nechta xususiyat borligini e'tiborga olish lozim: ayol qomatining ixcham, elka qiyaroqligi, ingichka bel va bo'ksa kengligi bilan erkak qomatidan farqlanadi. Ayol ko'krak qafasi yumaloq shaklda va bel chizig'igacha joylashgan, bo'yin qismidan nozik va tarangligi, mushakdor bo'lmaydi. Erkaklar modeli haqida to'g'ri chiziqlar ayollar modelida egri-bugri chiziqlar nazarda tutiladi. Tana konturi mushak vazni bilan aniqlanadi. Bo'yindan pastga qarab u toraygan va kengaygan chiziqlar bilan chizilgan. Huddi shu vaziyat tirsakning sekin asta bo'rtishi bilan sodir bo'ladi. Qo'l va yelka ichkari tomonga toraygan egri chiziqlar bilan tasvirlanadi. Bo'ksa tizzada tugaydigan keng parabola ko'rinishida shakllanadi, bunda chiziq bir oz egiladi. Boldir chizig'i tashqariga qarab egiladi. To'piqda chiziq ifodali to'lqinni hosil qilib, avval ichiga, so'ng tashqariga egiladi. Ko'pichna ijodkorlar ideal bo'lмаган, erkak qomatini chizishdan cheklanadilar, lekin tajriba ortirishda juda qo'l keladi.



20-rasm. Anatomik proporsional model erkak qomati

2.2. Turli yoshga oid qomat ko‘rinishlari

Bu qismda turli yoshdagi qomatlar tasvirlashda ularning har bir qomat tuzilishi e’tibordan chetda qolmasligi, eskiz yaratishda proporsiyasini buzilmasligiga yordam beradi. Bolalar qomati yoshga nisbatan o‘zgaruvchanligi, namunaviy eskiz yaratishda qiyinchilikka duch keladi.

Ota-onalar ma’lumotga ega bo‘lganidek, bola qomati o‘lchamlari brend va markasiga qarab ham o‘zgarishi mumkin. Agarda dizayner tamonidan bolalar kiyimi ishlab chiqarishga buyurtma olinsa, buyurtma beruvchi korhona o‘lchov birliklari taqdim etiladi. Bunda quyidagicha ko‘rsatmalar keltirilgan.

- Yosh bolaning bosh qismi qomatning to‘rtadan bir qismiga teng. Bir yoshda bola qomati tana qomatining uchdan ikki qismiga teng bo‘ladi. Bola bir yoshga to‘lgandan so‘ng bosh qismi o‘lchami uchdan ikki qism atrofida bo‘ladi. U so‘ngra o‘sishda davom etadi, o‘sish belgilari asosan tan va bo‘ksa qismida ko‘rinadi. Yosh bolaning bo‘yni kalta, (Rassom nuqtai nazaridan) ko‘rilmashakilda bo‘lib beldan tepe qismi esa dumaloq va keng bo‘ladi. Ularning kichkina to‘la tanalari qiya egilgan shaklda bo‘ladi.


- Emaklab yurishga harakat qilayotgan bolalarning tanasi to‘rt yarim bosh uzunligida bo‘ladi. Yelkalar kengligi bosh o‘lchami kengligidan oshmaydi, hamda tana silindr shaklida ba‘zida dumaloqroq qorinchasi bo‘ladi. O‘sib kelayotgan bolalarnig qomatini tik tutishga o‘rgatish lozim.


- Yosh bolalarning bo‘y uzunligi bosh o‘lchamida bo‘ladi. Bolarar o‘suvchan bo‘lganliklari uchun, ularning bunday holatini ko‘proq aktiv holatda tasvirlash afzalroqdir.

- Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar qomati tana uzunligi olti –olti yarim bosh olchamiga teng bo‘ladi, biroq bu yoshdagi bolalar va qizlar vazni turlicha bo‘ladi. Ayni yoshdagi bolalar qomati to‘g‘ri va tors tsilindr shaklida bo‘ladi, biroq to‘qqiz-o‘n yoshli qiz bolalar qomati o‘sishiga qarab farqlanadi. O‘gil bolalarda esa tors uzunligi uzun bo‘ksa kengligi yelka kengligiga nisbatan ihcham.



21-rasm. Turli yoshdagi bolalar qomati.





22-rasm. Bolalar qomatini shakllar orqali harakat holatida tasvirlash.



23-rasm. Turli yoshdagi bolalar va kattalar qomati proporsiyasi.

2.3. Odam qomati proporsiyasi va uning tasnifi




24-rasm. Ayollar qomatining turli yoshdagi proporsiya tasnifi.

Inson gavda proporsiyasi o‘lchamining yana boshqa usullari ham mavjudki, ularni bilib qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Masalan, qo‘l gorizontal chozilganda ikki qo‘l boshlarining oraliq masofasi odam bo‘yiga teng keladi. Odam bo‘yining tik o‘rtasidan o‘tgan chiziq jins muskuli boshlanish joyidan o‘tadi.

Ma’lumotga ega bo‘lganimizdek, katta odam qomatining umumiyligi etti yarim va sakkizta bosh o‘lchamidan iborat. To‘g‘ri proporsiyali qomatni chizish uchun to‘g‘ri vertikal chiziq o‘tkaziladi va unda ko‘rsatilgan o‘lchov birligi sakkiz marta belgilanadi. Bu vertikaldan qomatni qurish mumkin bo‘lgan gorizontal to‘g‘ri chiziqlar joylashtiriladi. Qomat chizib bo‘lingach, yordamchi chiziqlar lastik bilan o‘chiriladi.

Libos dizayneri yaratgan kiyimni modelga moslashtirish jarayonida odam tanasi proporsiyasini, yalang'och qomat va uning tuzilishi ni bilgan holda, unga e'tibor qaratishi muhimdir. Odam qomati – bu avvalo tananing anatomik tuzilishi natijasidir. Tana tuzilishining murakkabligi, jonliligi va undagi egiluvchanlik holatlari ilk bor natura bilan ishlaganda kishini cho'chitishi tabiiy, natura mukammal darajada ishlanishi uchun ko'p yillik amaliyotni talab etadi. Haykaltarosh Alberto Jekomerti fikricha, oriq va novcha qomatlarni ajoyib ko'rinish ega, bu qomatni novchaligi libos modelga zamonaviy tus beradi.





25-rasm. Erkaklar qomatining turli yoshdag'i proporsiya tasnifi.

Tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, qomat me'yor darajasida bo'lmaganda zaruriy detallarni ko'rsatib berish qiyinchilik yaratadi. Yaratilgan eskiz modellari namunasi standart qomat proporsiyasiga mos bo'lгanda, ish jarayoni yengil kechadi. Ishning tarkibi va chizish uslubinin tajribaviy va tanqidiy baholanishi sizga o'ziga hoslikni va o'zaro farqlanishlarni anglashga yordam beradi. Agar takrorlanmas usulda ish jarayoni olib borilganda, to'g'ri texnik eskizlar qo'llanilishi muammoni bartaraf etadi.

2.4. Eskiz shablonini yaratish

O‘ylamasdan, mexanik ravishda chiziq va tuslarni aks ettirib va nigohidan uzoq yoki yaqinda joylashgan jismlarning na konstruksion shakli va uning fazodagi o‘rnini his qilmagan holda chizilgan tasvirlarni tez-tez uchratish mumkin. Bunda barcha ko‘z ilg‘agan narsalar bir maromda, bir hil e’tibor bilan tasvirlanadi, boshqacha qilib aytganda asosiy narsaga urg‘u berilmaydi.

Buning sababi tasvirlovchining yaxlit ko‘ra olish, bir detalni boshqa katta shaklga bog‘lay olmaslik, asosiy ichki qurilmaga bo‘ysundirolmaslik qobiliyatini yo‘qligidir. Ko‘pincha tasvirlovchining ko‘rganni eslab qolish xotirasining rivojlanmaganligi, shu bilan birga, tasvir yuzasini tashkil qila olmaslik, mutaxassislar tili bilan aytganda komponovka qila olmaslik tasviriy san’atda aqlga sig‘maydigan holat. Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish yo‘li bu nabroskadir (qalam chizgilardir).

Nabroska nima va u nimasi bilan oddiy chizma tasvirdan farq qiladi?

Nabroska deb qisqa, boshqacha qilib aytganda, tezkor 3-5 daqiqa davomida bajariladigan tasvirlarga aytildi. Lekin bu uning asosiy xususiyati emas. Uni qisqa va uzoq davom etadigan jarayonni solishtirish orqali tushunish mumkin. Xarakter jihatdan uzoq davom etadigan tasvir analitik tasvirlarga kiradi, bu jarayon bajarilishida shakl va uning fazodagi joylashuvi, qurilmasi, plastik birligi va b. o‘rganiladi. Uzoq davom etadigan tasvirlar yaxlitlikdan–xususiylikka qadar, aniqrog‘i, katta shakldan mayda detalgacha, alohida bo‘laklar va detallarni yaxlitga bo‘ysunishi sxemasi bo‘yicha bajariladi. Bunda boshi, o‘rtasi va oxiri kuzatiladi.

Nabroskada esa hammasi boshqacha. Hammasini baravar qilish, bir lahzada qurish, chizish, tasvirni biror bir yechimga bajariladigan vositalar tanloviiga olib kelish kerak. Nabroskani shiori: “Minimum vosita- maksimum ifoda”.

Nabroskaning maqsadi – xarakter va harakat. Asosiysi ham shunda. Detallar bartaraf qilinadi. Bor e’tibor tasvirlanuvchiga qaratiladi. Uzoq davom etadigan analitik tasvirlarda kuzatiladigan davomiylilik yo‘q. Tasvirni mazmunini tashkil etadigan barcha

elementlar, ortiqcha tayyorgarliksiz darhol bajariladi. Shuning uchun nabroskani ko‘p hollarda sintetik tasvirlash ham deb atashadi.

Nabroskalar ko‘rganni eslab qolish xotirasini haddan ziyod rivojlantiradi, ayniqsa, harakatdagi modellarni (hayvonot bog‘ida, ko‘chada, stadionda va h.) ko‘rish xotirasisiz yuqorida ta’kidlanganidek, tasvir ishlash nihoyatda qiyin, mumkin ham emas.

Agar davomiy chizmatasvirda har-xil kam-ko‘stlarni to‘g‘rilash mumkin bo‘lsa, nabroskada ular mumkin emas. Muvaffaqiyatsiz hollarda esa, o‘sha modelni birinchi nabroskasidagi xatolarini to‘g‘rilab yangi nabroskalarini ishlash mumkin.

Shunday ekan, barcha aytilganlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin, nabroska ishlash natijasida ko‘rishdagi barcha muammo-larni erta yo kech bartaraf etish, yoki minimumga tushirish mumkin.

Nabroskalar ikki xil turda bo‘ladi: birinchisi - aslida nabroskalar xarakterli xususiyatlari bilan va ikkinchisi - nabroskalardan keskin farq qiluvchi homaki rasmlar. Ularni bo‘lajak kompozitsion asarlarga xoh u grafik ish bo‘ladimi yoki matodagi tasvir, illyustratsiya, plakat, teatr dekoratsiyasigami va shunga o‘xhash narsalarga bo‘lajak material sifatida yaratishadi. Xomaki suratlarga nabroskalarga qaraganda ko‘proq va batafsilroq model holatini imkon qadar o‘rganib ishlab chiqiladi.

Xomaki suratlar kompozitsion asarga tayyorgarlik ko‘rishning ahamiyatli qismidir. Ularni hamma yerda har qachon, rassomni taqdiri qayerga boshlasa ham ishlash kerak, hatto ular o‘ylangan g‘oya uchun material bo‘lmasa ham.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, har qanday ijodiy kompozitsiya tasavvurdan, hayoldan va xotiradan ishlash mahoratini talab etadi. Bu talab barcha sohada faoliyat yurituvchi rassomlarga va shu jumladan, texnolog rassomlarga ham tegishli.

Ma’lumki, to‘qimachilik mahsulotining yaratilishiga kurs, diplom va ishlab chiqarish loyihibalarining ishlanmalari sabab bo‘ladi. So‘ngi holatdagina eskiz qismi asosiy bo‘ladi. Chunki oxirdagi holatda mahsulotni ishlab chiqish muallif faoliyatiga kirmaydi. Ishlab chiqarishda, teatr va kinoda rassomning vazifasi eskizni ishlab berish bilan chegaralanadi. Loyihani materialda ishlab chiqish jarayonida rassomga maslaxatchi nazoratchi vazifasi yuklatilishi mumkin. Shu

sababli xotiradan, taassurotdan va hayoldan rasm ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bular chizmatasvirning qanday turlari? Professor M.N.Aleksich "Xotiradan rasm ishlash" maqolasida yozadi: "O'ylashimcha, asl xayoldan ishlangan chizmatasvir deb shunday chizmatasvirga aytildiki, rassom tomonidan o'z oldiga qo'ygan vazifani aniqroq bajarishda kuzatilgan, o'rganilgan yoki avval naturadan ishlangan ishlar yordamida bajarilgan ishlarga aytildi.


Shuni ham aytish lozimki, ko'rganni eslab qolish qobiliyati bevosita naturadan chizmatasvir bajarishda muhim ahamiyatga ega. Agarda tasvirlovchi tasvirlanayotgan muhitni yetarli darajada aniq ko'rmasa, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi yoki vazifani bajarishga keragidan ko'p mehnat va vaqt sarflaydi. Naturadan chizmatasvir ishlash, xayoldan rasm ishlashdan shunisi bilan farq qiladiki, unda model tasvirlovchining ko'z o'ngida turadi. Ko'rganni eslab qolish qobiliyati kam uchraydigan holat bo'lib, u buyuk ne'mat belgilardan hisoblanadi. Biroq uni masq qilish orqali rivojlantirish mumkin. O'zidan ishlashning murakkab turlaridan yana biri xayoldan rasm ishlash hisoblanadi.

Ko'rganni eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish uchun doimiy nabroskalar ayniqsa, harakatdagi model (hayvonot bog'ida, stadionda va .h.) tasvirini ishlash seanslarini o'tkazish maqsadga muvofiq. Tasavvurdan rasm ishlashning eng yaxshi usuli avval ishlangan modelni boshqacha ko'rinishini bajarish hisoblanadi. Masalan, ro'paradan chizilgan boshning to'rdan uch qismi ko'rinib turgan tasvirini ishlash. Modelni oynada aks etgan tasvirini ishlash ham yaxshi natija beradi.

Bo'lajak modelerlar uchun grafikadan "Zamondosh obrazi" vazifasini bajarish o'ta muhim. Bunday tasvirlarni bajarish o'zidan qarab rasm ishlashni o'rganishda stimul bo'la oladi. Natura materiallarini yig'ish va umumlash va ular yordamida zamondosh obrazini yaratish mazmun jihatidan ham xotiradan ham tasavvurdan va xayoldan rasm ishlash hisoblanadi.


Teatr sahnalari uchun yaratilgan liboslarni tasavvurdan ishlangan eskizlari juda ham yorqin. Bunday tasvirlar modeler rassomlar ishiga yaqindir.

Ayollar standart tik qomatining old va orqa ko‘rinishi. Bu qismda standarttik qomat uzunligining old va orqa ko‘rinishlar qanday chizilishi ko‘rsatilgan. Bunda konstruktiv chiziqlar libos detallarini chiziqlarini va proporsiyalarini ko‘rish mumkin. Libos dizaynini to‘liq ifodalashda qomatning old va orqa ko‘rinishi muhim. Qomatning bu holatida qo‘l va oyoq harakatlanishi natijasida turish holatini o‘zgarish imkonini yaratadi. Qomatda detallarni tasvirlash ahamiyatga ega bo‘lib, masalan, yupqa burmasi yoki yeng hajmini, model qomatining harakatlanishi ifodasi elementlarni aniq tasvirlashda yordam beradi.



26-rasm. Ayollar standart tik qomatining old va orqa ko‘rinishi.

Erkaklar standart tik qomatining old va orqa ko‘rinishi:
Erkaklar model qomati eskizi chizilganda ushbu shablon qo‘llanadi.



27-rasm. Erkaklar standart tik qomatining old va orqa ko‘rinishi.

Eskiz namunalarini yaratishda fotografik formatlardan foydalananish. Analog tashlashdagi birinchi bosqich bu uning qomatga mos kelishi, bundan siluetni jurnal yoki to‘plamlar fotosidan tanlab olish va loyihalanayotgan assortimentga mos bo‘lishi lozim. Keyingi bosqich qomatga mos siluetning takrorlanishidir. 18-19 betlarda ko‘rsatilgan model eskizlarini real qomatni eskizlarda tasvirlash va

ulardagi farqlarni kuzatish mumkin. Bu qomatni yaratishda ijodiy yondoshuv bilan model qomatiga uslublash mumkin. Kalka qog'oz va yozuv qog'ozlaridan foydalanayotganda eskiz modeli kontur chiziqlarini chizishda ehtiyotkorlik lozim. Bo'yin qismini chizishda chiziqlar ingichka, bosh qism shakli esa qomatga nisbatan kichikroq tasvirlanadi. Qomat eskizini chizishda yordamchi chizilar yelka kenglik, bel chizig'i va bo'ksa chiziqlar parallel ravishda o'tkaziladi. Bu esa eskiz shabloni yakuniga yetkanini ko'rsatadi.



28-rasm. Eskiz namunalarini yaratishda fotografik formatlardan foydalanish.

Eskiz shabloni tayyor holatga yetkani kuzatilganda flamaster yoki sharikli rukchkalar yordamida kontur chiziqlar berilib, qalam

izlari o'chiriladi yoki chiziqlarni chizishda foto nushadan foydalaniladi. Qaychi yoki skalpel pichoqlari model shablonini kesishda ishlatiladi. Bu qomatni olti bo'lakka bo'lish imkonini yaratadi: to'piqdan tizzagacha, tizzada bo'ksagacha, bilakdan tirsakgacha, tirsakdan yelkagacha va yelkada bo'yingacha bo'lgan bo'lak ajratiladi. Toza qog'oz ustiga bo'lingan bo'laklar asosida ihmiyori qomat shakli hosil qilinadi. Bu usul erkaklar ayollar va bolalar eskizini yaratishda ishlatiladi.



29-rasm. Eskiz namunalarini yaratishda fotografik formatlardan foydalanish.

2.5. Boshning chizmasi


Qomat shakllantirilgandan so'ng modelni tasvirlashga o'tish mumkin. Shuni ham aytib o'tish kerakki, turli jonivorlar yoki odamlar tasvirini chizishdan avval ularning skeletonini qanday tuzilishga ega ekanligini bilib olish, mavjud bo'lsa skeletonini alohida tasvirlab mashq qilish kerak. Odam boshini chizmatasviri – o'quv jarayonidagi qiyin vazifalardan biridir. Bosh shaklini to'g'ri tasvirlash uchun, uning tuzilishini, qurilishini, anatomiyasini va proporsiyasini bilish zarur. Odam boshini chizishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan narsa: uning asosi, ya'ni bosh chanoq suyagi, muskullari va tog'aylaridir. Bosh suyagi - shaklning ichki qurilmasi bo'lib, bosh hajmining butun asosini tashkil qiladi. Bu qurılma fazoviy bo'lib, chanoq ikkita asosiy qismdan tarkib topgan, ular miya qismi va yuz qismlaridir. Miya qismi o'z navbatida chakka, peshona, ensa bo'laklaridan iborat. ular va boshqa mayda ichki qismlar o'zaro toshsimon bo'rtma ulamalar bilan birikib turadi. Suyakning peshona qismi bosh shaklini belgilab turuvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari yonoq, burun bo'rtmasi ham inson yuzining shaklini qanday bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Bosh suyagining yuz qismi yuqorida peshona suyagining pastki (ko'z kosasi ustidagi) chetidan boshlanib, ikki yon tomondan yonoq suyaklari bilan cheklanadi va pastda pastki jag' bilan tutashadi. Bundan tashqari uning tarkibiga juft holdagi ikkala yuqori jag' suyaklari va juft holdagi ikkita burun suyakchalari kiradi. Bosh suyagi yuz qismining yuzasida ikkita juft chuqurcha - ko'z kosalari bitta toq teshik, burun teshigi yoki noksimon teshik va toq bo'ladigan og'iz teshigi joylashgandir. Yonoq suyagi juft bo'lib, yonoq bo'tig'ini hosil qiladi. Yuqori tomonda u peshona suyagi bilan tutashib, orbita (ko'z kosasi) ning tashqi devorini hosil qilsa, orqa tomonda ponasimon va chakka suyak bilan birikib, suyak ko'rikchasi - yonoq ravog'ini tashkil qiladi. Yuzning oldingi sirtida yonoq suyagi yuqori jag' suyagi bilan qo'shilib ketgan. Qotma odamlarning yuzida yonoq suyagi bilan yonoq ravog'I teri ostidan ro'y rost bilinib turadi. Yonoq suyaklari ko'proq bo'rtib chiqqan bo'lsa, yuzni keng qilib ko'rsatadi. Yonoq suyaklari yassi bo'lsa, yuz ingichka bo'lib ko'rindi.

Yuqori jag' suyagi yuz sirtining qattiq asosi sifatida xizmat qiladigan juft suyak bo'lib, ko'zlar bilan og'iz orasida joylashgandir.

Yuqori tomonda suyak yuzasi ko‘z kosasi ichiga qayrilib, uning pastgi devorini hosil qiladi; ichki tomondan yuqoriga ko‘tarilib chiqadigan peshona o‘sintasi peshona suyagi bilan qo‘silib ketadi. O‘ng va chap peshona o‘sintalari juft holda ikkita burun suyakchalar uchun tayanch bo‘lib hizmat qiladi. Bu suyakchalar o‘rtta chiziq bo‘ylab bir-biri bilan qo‘silib, yuqorida burunning qo‘zg‘almas suyak qismini hosil qiladi. O‘ng va chap yuqori jag‘ suyagining ichki chetlari pastda noksimon burun teshigini chegaralarini hosil qiladi, so‘ngra pastroqda o‘rtta chiziq bo‘ylab bir-biri bilan qo‘silib ketadi va qo‘silish joyida do‘mboq—oldingi burun qirrasini hosil qiladi [5].


Pastgi jag‘. Toq suyak. Asosiy qismi pastgi jag‘ tanasi taqasimon shaklda. Pastki jag‘ tanasi oldingi yuzasining o‘rtasida engak ko‘tarmasi bor, pastda undan o‘ng va chap tomonda ikkita engak do‘mbog‘I joylashgan. Pastki jag‘ suyagi tanasidan orqaga, o‘ng va chapga burchak ostida pastgi jag‘ suyagining shohlari chiqadi, ularning har biri ikkita o‘simta bilan oldida tojli va orqada bo‘g‘im osimtasi bilan tugallanadi. Bo‘g‘im osimtalari pastki jag‘ning bo‘g‘im chuqurchalari bilan harakatchan, pastki jag‘ bo‘g‘imlarini hosil qilib, ong va chap chakka suyaklar bilan birikadi. Tojli o‘simtalarga chakka muskullari kelib birikadi. Pastki jag‘ tanasining yuqori tomonida katakchali o‘simta mayjud. Katta yoshli odamda u 16 ta uyadan iborat bo‘lib, bu uyalarda tish ildizlari joylashadi; shunday qilib, katta yoshli odamning ikkala jag‘ida 32 ta tish bo‘ladi. Ko‘z kosalarining juft chuqurchalari bo‘lib, ularda ko‘z olmalari va ko‘zning harakat apparatlari joylashgan, devorining ichkarisida teshiklar bor. Bulardan ko‘z asablari va qon tomirlari o‘tadi. Tanglay suyagi bir juftdir, ko‘z kosasi, burun bo‘shlig‘i, og‘iz boshligi va qanot tanglay chuqurini hosil qiladi.

Qisqa qilib aytganda bosh chanoq suyagining barcha mayda bo‘laklari uning qanday nomlanishini talaba o‘rganib, plastik anatomiyaga oid kitoblarni mutolaa qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bosh suyagini to‘g‘ridan, yondan va burchak ostidan ko‘rinishini bitta qog‘ozda bir paytda ishlab, navbatma-navbat ishlov berilsa uni o‘rganish qulay bo‘ladi. Asosiy ko‘p davom ettiriladigan qalamsuratni ishlashdan avval albatta kichik qalamchizgilar chizishi shart. Shunda har bir tasvirni o‘zaro muvofiqlashtirib kompozitsiyasini topish engil ko‘chadi.




Bosh chanog'i: 1. Peshona suyagi. 2. Peshona do'ngliklari. 3. Qosh usti yoylari. 4. Chakka suyagi chuqurligini chegaralovchi chiziqning boshlanishi. 5. Yonoq suyagi. 6. Yonoq yoyi. 7. Yuqori jag'. 8. Pastki jag'. 9. Pastki jag'ning chiquvchi tarmog'i. 10. Tepa suyagi. 11. Tepa suyagi do'ngligi. 12. Chakka suyagi. 13. Ponasimon suyak. 14. So'rg'ichsimon o'simta. 15. Ensa suyagi.





30-rasm. Inson bosh suyagining tuzilishi va holatlari.

Kayfiyat va holatni belgilovchi tayanch bu yuz ifodasi bo'lib, soch turmag'i hamda pardoz jarayoning asosiy ko'rsatkichdir. Ijodiy manba tanlash va ilhomlanish uchun jurnallardan analoglar to'planadi. Bosh shakli tuxumning shaklini eslatadi, bunda yuqori qismi bosh suyagining tepe qismi chegarasi, pastki qismi jag' bilan shakllantiriladi. Malakaga ega bo'lish uchun ifodasiz yuz ko'rinishini amalda to'xtovsiz chizish lozim, tajriba oshganda yuz holati ifodasini aks ettiruvchi eskizlar chiziladi. Yuz ko'rinishi model qiyofasini tasvirlaydi.





31-rasm. Ayollar bosh chizmasi.

Ayollar bosh chizmasi.

1. Tuxumsimon shakl chizilib, bo'yin chiziqiga belgilanadi. Odam yuzini ikki qismga bo'luchchi vertikal chiziq o'tkazilsa, yuz chiziqlarini tasvirlashda proporsiyalarga rioya qilishga imkon yaratuvchi simmetrik o'qini hosil qilinadi.

2. Yuzni gorizontal bo'yicha ko'zni o'lchamiga mos keladigan oraliqda uchta segmentga bo'lish mumkin.

3. Yuzni gorizontal bo'yicha ko'zni o'lchamiga mos keladigan bodom shaklini joylashtiriladi.

4. Burun va labning joylashuv yuz past qisminig uchdan bir qism teglikda belgilanadi.

5. Ko'zlar orasidagi masofa ko'zning kengligiga teng, bu esa burun va labning kengligini aniqlaydi. Ko'z qirg'oqlari bo'yin kengligi belgilanib yelkaga vertikal chiziqlar bilan birlashtiriladi. Qosh tugash chiziqi quloqning boshlanishi, burun uchi nuqtasi chiziqi esa quloqning tugashi bilan belgilanadi.



32-rasm. Ayollar boshining soch turmamlari bilan turli holatdagi tasviri.

6. Turli xildagi soch turmagini tasvirlashga urinib ko'ring. Unutmang, soch chizishda soch turmagiga o'zgarishi sharts emas, asosiy maqsad yuz ifodasida qiyofani tasvirlashdir. Soch turmagi tanlangan ishchi qurolga bog'liq. Dizayner uchun soch turmagi libos modelini yaratishdan keyin ikkinchi darajada hisoblanadi. Kam

tajribaga ega bolganda ham, pero bilan chizilgan eskiz chiziqlari samarali bo'lishi mumkin. Yog'li pastel mellarini ishqalash natijasida "Pre-Rafaelite" chigal soch turmagi yoki kalta "Kaleti" soch turmagi tasvirilanadi.


7. Bosh chizmasining asosi tamoyili old ko'rinishning uchdan bir qism ko'rinishini tasvirlashdan iboratdir.

8. Profil korinishni tasvirlashda yuqoridagi usul qo'llanadi.


9. Rasmda bosh chizmasi kaft o'lchami bilan teng bo'lib, kaft uchlari soch chizig'idan boshlanib dahan chizig'ida tugaydi.

Erkaklar bosh chizmasi ayollar bosh chizmasidan kattaligi bilan farqlanadi, bosh chizmasi aniq chizilishi yordamchi chiziqlarga bog'-liqidir. Ilk bosqish bosh shaklini hosil qilishdan boshlanadi. Boshning tuxumsimon shakli to'gritortburchak shakliga yaqinlashadi, engak va daxan chiziqlari yuzning muskullarini ko'rsatadi. Erkaklar bo'yin qismi ayyollarnikidan yo'g'onroq bo'ladi.

Sochlар chizmasi chizilganda, soch orqali yuz ifodasi va rangi tasvirlanadi. Markerli ruchka bilan chizilgan qalin chiziqlar yoki pero ruchkasi bilan berilgan shtrixlar yuz qiyofasini xarakterlaydi. Tanish bo'lган qiyofalarni va jurnallardan analoglardan foydalanib eskiz chizish malakani oshirishga hamda o'zining uslubni yaralishiga yordam beradi.



33-rasm. Erkaklar bosh chizmasi.



34-rasm. Erkaklar boshining soch turmamlari bilan turli holatdagi tasviri.

2.6. Qo‘lning kafti va oyoq panjalarining chizmasi

Qo‘l inson qomatining eng ifodali va qiyin tana a’zolaridan biri. Ifoda kuchi jihatidan uni faqat yuz bilan qiyoslash mumkin, shakl plastikasi jihatdan unga o‘hshashi yo‘q. Qo‘l ko‘proq inson xarakteri va portretini belgilaydi. Qo‘l shakli va tuzilmasi orqali inson faoliyati va ichki kechinmalarini tasavvur qilish mumkin.

“Qo‘llar va barmoqlar o‘zlarining barcha harakatlarida ularni boshqarayotganlarning fikrini imkon qadar topa olishi kerak; teran

fikrlay oladiganlargiana, barcha hatti-harakatlarida qalb kechinmalarini namayon eta oladilar" - degan edi Leonardo da Vinchi.




35-rasm. Qo'Ining turli holatdagi chizma tasviri.

Albatta, qo'l chizmatasvirida qalb kechinmalarini ifodali tasvirlash uchun, ularni qurilishini o'rganib, shaklini yoddan bilish va ulardan erkin foydalanish lozim. Buning uchun esa avval qo'lning anatomik qurilmasini bilish kerak, chunki barcha yuqoridagi shakllar ichki qurilmalar- suyak va muskullar bilan uzviy bog'liq. Qo'l uch qismga bo'linadi: bular yelka kamari, tirsak va panja (35-rasm).

Yelka kamari (o'mrov va ko'krak suyaklari) va erkin qo'l (yelka, bilak va panja) suyaklaridan iborat. Yelka kamari ikkala tomondan bittadan o'mrov va kurak suyaklaridan tuzilga. O'mrov suyagiqo'lni tanaga birlashtirib turadi, shaklidan lotincha S harfiga o'xshab bukilgan, uzunligi 15-17 sm. O'mrov suyagining pastgi qismida konussimon do'mboqchasi trapetsiyasimon chiziq joylashgan. Uni to'sh suyagiga birlashadigan uchi va bo'g'im yuzasi hamda yelka o'sig'iga bo'g'im hosil qilib birlashadigan kichik bo'g'im yuzasi mavjud. O'mrov suyagi yelka bo'g'imining tanadan uzoqroqda bo'lishini ta'minlaydi, oqibatda qo'lni turli murakkab harakatlarini bajarishga qulaylik tug'diradi. O'mrov suyagi qo'lni harakatida tayanch nuqtasini hosil qiladi va yengil qo'zg'alishiga imkoniyat yaratadi. O'mrov suyagi ayollarda ingichkaror, kam bukilganligi va teri osti yog' kletchatkasi kuchli rivojlanganligi uchun yelka bo'g'imlaridan paypaslab ko'rish qiyin, erkaklarda esa u yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qo'l panjasи ko'plab suyaklar yig'indisidan iborat. Aniqroq qilib aytsak, bilakuzuk, kaft va barmoqning mayda suyakchalarini hosil qiladi. Bosh barmoq skeleti ikkita kichik suyakdan, qolgan har bir barmoq skeleti esa uchta mayda suyakchadan tashkil topgan, mana shu mayda suyakchalar barmoq falangalari deb ataladi. Qo'l panjasи skeleti to'g'risidagi bilim va tushunchalarni talabalar to'la o'ztirishi zarur. Ularning joylashishi, barmoqlarning bo'g'imlar bilan bir-biriga birikishi qo'lning tasvirini chizganda tayanch nuqtalari bilan nisbatlarini aniqlashda yordam beradi. Har doim biror – bir buyumni chizganda uning bir bo'lagi o'lcham sifatida asos qilib olinadi. Qo'lning tasvirini chizganimizda ham bir barmoq suyagi o'lcham uchun asos qilib olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'lning o'lcham birligi sifatida o'rta barmoq "asosi" ning uzunligi olinadi. Ma'lumki, qo'l barmoqlarining uzunligi bir hil emas. Shuning uchun har birining uzunligi alohida-alohida aniqlanib belgilanishi kerak.




36-rasm. Qo‘lning harakat holati.

Oyoq shakllari ko‘pincha uning tayanch va harakat funksiyalari bilan belgilanadi. Oyoq muskullari qo‘l muskullariga qaraganda ancha massivroqdir. To‘rtta markaziy suyak oyoqning tayanch funksiyasini bajaradi:

- Tos suyak o‘qi, tashqaridan ichkariga katta aylanadan tizzaning o‘rtasigacha boradi.
- Tizza suyagi o‘qi, tos suyagidan qarama-qarshi tomonga yo‘naladi.
- Boldir suyagi o‘qi, tos suyagiga solishtirganda biroz vertikal va bir qancha tashqariga egilgan bo‘lib, oldindagi katta ilik suyagi qirralariga monand bo‘ladi.
- Tovon suyagi o‘qi, yo‘nalishi boldir suyagi yo‘nalishidan bir muncha farq qiladi.

Oyoq panjasi suyaklarining tuzilishi ham qo‘l panjasi suyaklari tuzilishiga o‘xshash, ular ham qo‘l panjasi kabi uchta qismdan: tovon do‘mbog‘I, oyoq kaft suyagi va tirnoq falangalaridan tashkil topgan. Oshiq suyak past tomondan tovon suyagiga, oldingi tomondan esa qayiqsimon suyakka suyanib turadi. Tovon suyagi oyoq panjasining tashqi chetiga yaqinroq joylashadi, orqaga ancha turtib chiqib, tovonning suyak asosi bo‘lib xizmat qiluvchi tovon do‘mbog‘ini hosil qiladi. Oyoq kaftida beshta suyak bor, ular bosh barmoqdan jumjiloqqa tomon tartib bilan I, II, III, IV, V kaft suyaklari deb ataladi. 1-kaft suyagi eng yo‘g‘on, 2-kaft suyagi eng uzun suyakdir.



37-rasm. Inson oyog‘ining akademik chizmatasviri.

Qo‘l kafti va oyoq panjalarni tasvirlashda ijodkor bir qancha to‘siqlarga duch keladi. Qo‘l va kaft qomatga nisbatan olingan proporsiyaga ega bo‘lsa ham eskizni uslublashda ularning o‘lchamlari

buzilishi mumkin, lekin ular model siy whole uyg'un bo'lishi kerak. Oyoqlarni to'g'ri chizish uchun mushaklar tashkil qilgan konturga, uni tizza va to'piq sohasidagi torayishiga e'tibor qaratish zarur. Oyoq panjalari bilan birgalikda oyoq proporsional ravishda qomatning umumiylar qonun-qoidalardan to'rtta modulni egallaydi. Oyoq uzunligi qomatning umumiylar qonun-qoidalardan to'rtta modulni egallaydi. Oyoq uzunligi qomatning umumiylar qonun-qoidalardan to'rtta modulni egallaydi. Oyoq uzunligi qomatning umumiylar qonun-qoidalardan to'rtta modulni egallaydi.

Ko'rsatmada berilgani kabi, kaftning uzunligi yuz hajmiga teng bo'lganda proporsiya va o'lchamning mutanosibligiga ega bo'ladi. Yana qo'shimcha qilib aytganda, bilakdan barmoq uchigacha bo'lgan masofa barmoqlar yoyilgandagi masofa (qarich)ga tengligini ko'rish mumkin. Bu holatni tasvirlashdan maqsad umumiylilikdagi soddalikni ko'rsatib, minimal elementlardan foydalangan holda, qo'l chizmada asosiy shaklni saqlab, detallarni chizishdir.



38-rasm. Qo'l va oyoqning uslublashtirilgan harakat holatidagi chizmatasviri.

Yuqoridagi tasvirlarda ayollar qo'l kafti va oyoq panjasining turish holatlari keltirilgan. Tasvirlardan foydalanib, o'z misolingizda qo'l kafti va oyoq panjasini tasvirlang.


2.7. Ayol qomatini turish holati va harakatlari

Odam qiyofasini chizishni o'rganish jarayonida grafik uslublarini qo'llash eng sinalgan yo'ldir. Chunki eng qulay va tez bajariladigan har xil ashyolar (qalam, sangina, sous, pastel retush va boshqalar) yordamida amalga oshiriladigan tasvir ayniqsa, qiziqarli chiqadi. Bunday qalamchizgilarni ishlaganda rangli (tus berilgan) qog'ozlardan foydalanish o'quv-mashq ishlarining badiyligi darajasini ham oshiradi. Voqelikni obrazli ifoda etish omili bo'lib xizmat qiladi.

Intererdag'i odam qiyofasini tez lavhalarini turli holatlarda tasvirlashda atrof-muhitning ko'rinishi ham e'tiborga olinishi kerak. Yorug'lik manbaining qaysi tomondaligi chizilayotgan obyektning naqadar hajmli va bo'rtiq tasvirlanishida rol o'ynaydi. Shu sababli ish o'quv mashq sifatida bajarilayotganligidan qat'iy nazar jiddiy e'tiborli yondashuvni talab etadi.

Ma'lumki, odamni tasvirlashni o'rganishda uni tezlikda chizish mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mashq vazifalar kichikroq qog'ozlarda, so'ngra kattaroq qog'ozlarda bajarilishi maqsadga muvofiq. Kichik-kichik qalamchizgilar ko'pincha yumshoqroq oddiy qalamda, kattaroq tasvirlar esa iloji boricha ko'mir qalamchalari, retush, sangina, sous va pastelda ishlansa qulay bo'ladi. Buning sababi ularning ishlatilishi qulaylidadir. Bunday vositalar bilan tezkorlikda katta sathlarda ifodali tasvirlar ishlash mumkin. Ammo bu ularni ishlatish oson ekan degan tushunchani tug'dirmasligi kerak. Masalan, retush qalami o'ta qora bo'lganligi uchun uni rangli, ya'ni biror xolis tus berilgan qog'ozga rasm solishda ishlatish mumkin. Oppoq qog'oz sathida undan foydalanish ancha tajriba va mahoratni talab etadi. Ayniqsa, tezkor qalam lavhalarni chizganda retush juda qulay bo'lib, kerakli joylarda chiziq tarhlarini qo'l barmoqlari yoki qog'oz parchasi bilan surkatib, tasvirlanayotgan narsaning soya, hatto yarimsoyalarini juda ifodali va chiroyli qilib ko'rsatish imkoniyati bor.

Rangli qog'ozda ishlanganda retush qalami va ko'mir qalamchalarini oq rangli pastel yoki bo'r bilan aralash texnikada ishlatish yaxshi samara beradi.



39-rasm. Ayol qomatini harakatdagi tezkor qalamchizgilar.

Ma'lumki, sousni suvgaga qorib mo'yqalamda qog'ozga surtib tus berilsa, so'ngra tasvirni retush qalamida ishlansa, o'chirg'ichdan ham unumli, bilib foydalanilsa, har qanday o'quv-mashq vazifani namunali va chiroyli qilib chiqarish mumkin. Tasvirning eng yorug' qismlarini o'chirg'ich yordamida ustalik bilan o'chirib bo'rttirilsa, eng to'q soyalarning sathi quyuq, qora sous bilan bo'yab yopilsa, ish hajm tomondan juda fazoviylik kasb etadi.

Sangina qalamtasvirlarni ishlashda qo'llanilishi ham foydali. U bilan har qanday tasvirni tez va ifodali qilib chiqarsa bo'ladi. Faqat buning uchun uning texnikasini egallash kerak.

Ma'lumki, sanginaning to'q jigarrang hamda qizg'imtir jigarrang turlari bo'ladi. Ularni ham tus berilgan oxrasimon rangli qog'ozlarda unumli qo'llash mumkin. Sanginani surkatib soyalarning kattakkatta qismlarini yopish imkoniyati ham borligi, ish rivojini tezlash-tiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha tasvirlash vositalarini uzoq muddatda bajariladigan, hamda tezkorlik bilan ishlanadigan qalam-tasvirlarda birdek muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin.

Odam qomatini turli holatlarda, vaziyatlarda harakatli ko'rinishlarda interer muhiti sharoitida tasvirlash ancha murakkab vazifalar dan hisoblanadi. Agar ular tez muddatda ishlanishi kerak bo'lsa, tezchizgi lavhalari ko'rinishida bo'lsa, bir nechta tasvirni bitta qog'oz sathida chiroqli kompozitsiyada joylashtirib bajarish ko'p samara beradi. Chunki unda har bir chizilgan har turli holatlarda turgan odamlar qiyofasi o'zaro solishtirib ishlanadi, o'lchamlari bir-biriga moslanadi va shuning natijasida tasvirlar guruhi bog'langan mazmun kasb etib, badii ko'rinishga ega bo'ladi.

Inson qaddi-qomatini chizishga albatta tezkor tasvirlar ishslash, ko'proq mashq qilish talab etiladi. Ayniqsa, suratning qismlari nisbatlari, katta shaklning yaxlitligiga e'tibor qaratilishi kerak. So'ng tana holati, uning qanday harakat holatida namoyon bo'layotganligi muhim bo'lib, uni to'g'ri topish va aks ettirish kerak.

Qomatni turish holatini tasvirlashda dizayner harakatlarni amalda ko'rishi va his qilish lozim. Qomat harakatlanganda yelka qismning burilishi uning bo'ksagacha bo'lgan chizig'i, oyoq turishi holati va qomat vazni qanday taqsimlanganligi inobatga olish lozim. Qomat turish holatida tana vazni qanday balansga ega bo'ladi.

a - tik holatda qollar tepaga harakatlanish jarayoni.

b - yon tomondan qo'llar tepaga harakatlanish ko'rinishi.


c va d- tik va qiya holatidagi qomat ko'rinishi. Umurtqa pog'o-nasi qiyalanganda bo'ksa va taz qismlar oldi tarafga harakatlanadi. Tana vazni oyoqlar bilan boshqariladi.

e - bu tabiiy holatdagi harakatlanuvchi qomat bolib, bir oyoq oldinga boshqasi orqaga yo'naltirilgan. Bu holat model va libos harakatini chiroqli ifodalaydi.


f - bu turish holatida tana qismi qiyalangan bo'lib, oyoqga tayangan.

g - bu modadagi oddatiy turish holati bo'lib, tananing uchdan to'rt qismi qiya turish holatida, bo'ksa oldinga harakatlangan, tana og'irli chap oyoqga tushib ong oyoq balansni ta'minlaydi.


h,i,j - bu uch guruhdagi tik qomat turish holatida, bo'ksa qiya holatda va qo'l harakatlari eskizni tasvirlashda qo'l keladi.




40-rasm. Ayol qomatining uslublashtirilgan harakat holati.



41-rasm. Ayol qomatining uslublashtirilgan harakat holati.







42-rasm. Ayol qomatining uslublashtirilgan harakat holati.

2.8. Erkak qomatini turish holati va harakatlari

A- Tik qomat, biroz bo'shashgan, bosh qismi bir tomonga qiyalangan. Tana vazni teng taqsimlangan.



43-rasm. Erkak qomatining turish holati va harakatlari.




B - Orqa ko'rinishning uchdan bir qismi turish holati bo'lib, shimminig o'rta chok chizig'i va cho'ntak tasvirlashni aniq ko'rsatadi. Tana vazni og'irligi chap oyoqga tayanadi.

C - Tik qomat biroz qiya holatda, bo'shashga, oyoqlar kesishgan tana og'irligi o'ng oyoqga tayanadi, qo'l harakatlar orqa yoki shim cho'ntagida tasvirlanadi.

D - Bo'shashgan tik qomat holatida yelkalar va bosh qismi qiya holatda tana og'irligi o'ng oyoqga tayangan, qo'llar pidjak tugmasini yoki o'tkazmani ustida tasvirlangan.

E - Ushbu old tomonning uchdan bir ko'rinishda bosh oldga qaragan, oyoqlar kesishgan holat tartibsiz turush holati deb nomlanadi.



44-rasm. Erkak qomatining turish holati va harakatlari.

F - Old tomoning uchdan bir qismi ko‘rinish modelning o‘rtaga burilgan (yarimqiya) harakati holatini ko‘rsatadi. Tana vazn og‘irligi o‘ng oyoqga tushib, chap oyoq bir oz ko‘tarilgan.

G - Model qomatning yon tomondan ko‘rinishi, tana vazni chap oyoqga tushgan. Bosh qismi profil ko‘rinishda. H va I eskizlardagi turish holatiga qarab, ushbu turish holati harakatlanayotgan modelni qismi sifatida ifodalaydi.

H - Model turish holatining yon tomonidan uchdan bir qismi ko‘rinishi yuzni ham shundan ko‘rsatadi, tana vazni og‘irligi chap oyoqqa, o‘ng yelka o‘ng oyoq bilan oldinga harakatlanayotgan ko‘rinishda tasvirlangan, qo‘llar belda yelka harakati pastga og‘gan.

I - Turish holati H rasmdagi turish holatining davomi sifatida chiqilgan. O‘ng oyoq ko‘tarilgan, tana vazni og‘irligi ravon yoyilgan, lekin tana vaznining ko‘proq qismi chap oyoqga tushgan.

II bobga oid nazorat savollari:

1. Qomatni tasvirlashni qanday qonun va qoidalari mavjud?
2. Ayol va erkak qomatini tasvirlashning proporsiyada qanday farqlari mavjud?
3. Odam tanasini tasvirlashda boshning hajmi qanday rol o‘ynaydi?
4. Qo‘l kaftlarini tasvirlashda nimalarga ahamiyat berish zarur?
5. Oyoq panjalarini va turish holatini tasvirlash o‘ziga xos xususiyatlari.
6. Muvozanat va ritm nimani izohlaydi?
7. Torsni tasvirlashda qaysi tuzilmalar asosiy hisoblanadi?

III BOB. SKETCHBOOK YARATISH VA RASMIYLASHTIRISH

3.1. Sketchbook – ijodiy faoliyat elementi

Yuqoridagi birinchi bobda sketchbook haqida qisman ma'lumot berilgan, ammo bu sketchbook yaratishda va yangi to'plam loyihalarini ishlab chiqishda to'siq bo'lmaydi. Sketchbook sifatida katta bo'lman Albom yoki bloknotdan foydalilaniladi. Sketchbookda turli xil qorlama eskizlar, chizmalar va rasmlarni chizish, yoqib qolgan rasmlarni yopishtirish, har bir sahifasini ma'lum bir uslubda bezash va shunga o'xshash jarayonlarni bajarish mumkin.

Sketchbook sotib olinganda uning muqovasini tayyor rasm foto yoki firma logotipi bilan rasmiylashtirish mumkin. Sketchbook – bu ijodiy hujjat bo'lib, o'zida yozma va vizual materiallarni mujassam etadi. U g'oyalarni tadqiqot etishga, o'rganishga, rejalashtirish va rivojlantirishga, hamda test o'tkazish, baholash va loyihalarni muhokama qilishga yordam beruvchi ish qurolidir. U boshqa rassomlarning tajribalarni o'rganish va o'zida to'satdan paydo bo'lgan g'oyalarni ifodalashga imkon beradi.

Sketchbookni yuritish har qanday ijodiy ishning asosiy elementi hisoblanadi. U fantaziyani rivojlantirib, yangi g'oyalarga ilhomlan-tiradi.



Xulosa qilib aytganda, haqiqiy sketchbook loyiha yoki ma'lum vazifani yakuni bo'lishi kerak emas, u ma'lum bir g'oya yoki ijodiy ish jarayonning jamlanmasi bo'lishi lozim. Sayohatdagi ijodiy g'oyalari namunalari to'plami kabi. Sketchbook o'zi nima va u bilan to'g'ri ishslashni qanday o'rghanish mumkin?

Sketchbookda turli xil qorlama eskizlar, chizmalar va rasmlarni chizish, yoqib qolgan rasmlarni yopishtirish, har bir sahifasini ma'lum bir uslubda bezash va shunga o'xshash jaryonlarnit bajarish mumkin. Umuman olganda, sketchbook ijodiy odam o'zi yaratayotgan g'oyalari xazinasidir.

3.2. Sketchbookdagi ijodiy manba

Bu yerdagagi namunalar shuni ko'rsatadiki, loyiha oldi qismi jarayonida "Topilma Tasvirlar", analoglar, jurnallar, foto rasmlar jamlanmasi ijodiy manba bo'lib, Brayton Universiteti talabalarning ijodiy ishlardan quyida namunalar keltirilgan.

Chap va quyida: Bryoni Cook va Dodie Smit tomonidan yaratilgan eskiz "Copture Costle" nomlanib, bunda 1950-yildagi "make do" nostalgiya ko'rinishidagi yorqin ranglar va qushlar tasvirini ko'rishimiz mumkin [4].

Chapdagi: Fotosuratlarda Dizayner Robert Atkinsning arxitektura va uning detallariga bo'lgan qiziqishini qoralama eskiz va setka tuzilishidagi eskizlar orqali ko'rsatadi. Erkaklar kiyimining for eskizi va printlardagi yangi g'oyalarni ichlab chiqarishga yordam beradi.

Chapdagi: Ushbu sketchbookda Sara Koningam gullagan daraxt tasvirini ijodiy manba sifatida olib, ranglar palitrasи, rangli to'qima iplar va kashta iplarida aks etgan. Matoning dag'al bo'lgani





bilan gul tasviridagi siymo o'zgacha ko'rinish ega. Kashta iplari ranglarni aniq tasvirlashda to'g'ri tanlov bo'ladi.

O'ngda: Ushbu namuna Brayton Universiteti talabasi sketchbookidan olin-gan bo'lib, bu yerda ham

oddiy rasmlardan foydalani-lgan. Stakandagi sharbat tasviri o'z ifori va ranglarni o'zida aks etadi. To'qima ipning ingichka va notekis shakli, o'Ichami spontalikni hosil qilib, qo'l mehnatidagi namuna sifatini namunalarda aks ettiradi [4].




3.3. Karen Fehrning koloritli loyihasi



Yuqorida: Bu loyihasida Karen Fehr Amerika Interkontinental universiteti talabasi) havorang va qizg'ish ranglar birikmasidan hosil bo'lgan faktura yuzalaridan ilhomlanib, to'plam loyihasini ishlab chiqdi.

Quyida: Bunda loyihaning tajriba natijalari, matoga ishlov berish, gul bosish jarayoni tasvirlangan. Faktura yuzalari va mato teksturasini uyg'unlashgan holatida matolarga ishlov berilgan. Mato va ushbu usuldan foydalanish libos to'plamini yaratishdagi elementar g'oyalarni paydo qildi.



Yuqorida: Mavzuda faktura yuzalarini uyg'unligi boyitishda qo'l mehnati bilan ishlangan Hind qog'ozidan foydalanilgan. Siluet va hajm shakllanishida Shakl va strukturasi orqali yaratildi. Mato yuzasidagi tasvirlar va to'qilishidan ilhomlanib, qiyqim bo'laklaridan hosil bo'lgan to'qima matoda to'qima ipdan foydalanilgan ifodani ko'rsatib bergen. Dekorlarni ishlab chiqishda munchoq, Parij plasteri va bo'yoqlardan foydalanilganda zamonaviy betakror interpretatsiya usuli paydo bo'ldi.

Quyida: Bu tasvirlar ijodiy manba asosida yaratilgan, liboslarda tajrima va g'oyaning rivojlanishi aks ettirilgan [4].



3.4. Loyihalashda tadqiqot

Sketchbooklar loyihalashdagi tadqiqotning ajralmas qismidir. Agar sketchbuk ijodiy jarayondagi izlanishlar jamlanmasi bo'lsa, loyihaning yaratilishi, dizayner umumlashtirgandek, g'oyalardan iboratligi unga xulosa qilib loyiha konsepsiysi ishlab chiqiladi. Tadqiqot bu g'oyalarning takomillashuvидir. Amaliy izlanish jarayonida texnologiyalar ijodiy jarayonlar matolar va to'plangan ma'lumotlar ko'rib chiqilib, bu g'oyalarning rivojlantirilishigan ta'sir ko'rsatadi. Loyihalashtirishda asosan estetik va amaliy jarayon

g‘oyalar almashinuvida ahamiyatli bo‘lib, dizaynerni boshqa yangi g‘oyalar sari undaydi, hamda baholash, takomillashtirish va tanqidiy mezonlar yakuniy ijodiy jarayoni tashkil etiladi.

Analoglar tahlili jarayoni g‘oyalarnini mukammal tarzda ishlab chiqishda asos bo‘ladi, sketchbookdagι qoralama tasvirlar izlanish jarayonining ilk poydevori hisoblanadi: foto sur’atlar, tajribalar, ma’lumotlar va taassurotlar shular jumlasidandir. Tadqiqot jarayoni idividual tarzda o‘tkazilganda, g‘oyalar ishlanmasi ham individuallikka ega. Ijodkor g‘oyalarni ilk uchqunini turli xildagi holatlardan va buyumlardan, ya’ni muzeyga borganda, baxtli marosimlarda va abstrak holatlarda olishi mumkin. Ijodiy jarayon ketma-ketligi skechbukga tushirlganda umumiylar xulosani hosil qiladi. Agarda ijodiy manba mavzusi Qadimgi Misr bo‘lganda, bunda ko‘plab tarixiy manbalar, qo‘lyozma va adabiyotlar, muzey eksponatidagi liboslar to‘plami haqidagi ma’lumotlar bazasini to‘plash, o‘rganib chiqish, tahlil qilish zarur. Mavzuga oid filmlar ko‘rilib, undagi tarixi libos elementlarini kuzatish, natijada yillar davomida moda sanoatiga ta’sir etuvchi misr liboslari elementlarini tahlil etish, masalan, 1700 yillarda Suriya va Misrda Napoleon hukmdorligidan Britaniya mustamlakasi davriga qadar bo‘lgan vaqt oralig‘idagi misr liboslari elementlarining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Yuqorida keltirilgan tavisyalar ijodiy jarayonda g‘oyani mukammal ishlab chiqarishga turki hisoblanadi. Izlanishlar hayratlanarli, natija esa aksincha bo‘lishi ham mumkin.

Hulosa qilib aytganda, loyihaning izlanish jarayoni muhim hisoblanib, unda g‘oyaning yakuniy natijagacha bo‘lgan yo‘lni (yoki rivojlanishni) ko‘rsatadi va qoidaga asosan rasmlar, chizmalar, eskizlar, sxemalar, miniatyuralar, rejalar kostruksiylar (xususan, to‘liq bo‘limgan yoki tajribali bo‘lgan), turli usul va jarayonlarni izlash, aralash faktura va materiallar ko‘lami, ko‘rgazma va galereyalar tashrif buyurilib, undan olingan eskizlar va annotatsiya qilingan broshyuralar suratlari, rasmlar orqali o‘z aksini topgan ilk ma’lumotlar, rassomlar va modelerlarning mos ishlarining olingan nusxalarini o‘z ichiga oladi.

3.5. Ijodiy manbaa

O‘zbekiston – dunyoda o‘zining yuksak madaniyati, ko‘hna tarixi va go‘zal me’morchilik namunalari bilan nom taratgan davlatdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me’morchilik va xalq amaliy san’ati yodgorliklari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan beباho san’at asarlarining namunalari bo‘lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi. Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati kishilarni badiiy, ahloqiy, umuminsoniy qarashlarini tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. O‘tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Ko‘pchilik maqbaralarda boy va xilma-xilligi bilan farq qiladigan geometrik naqshlardan, ko‘p hollarda shakl berilgan g‘ishtlardan, loydan yasab naqsh oyilgan, so‘ng pechda pishirilgan terrakota plitalardan foydalanilgan. Binolarning tashqi qismiga esa quyma ganch ishlari bajarilgan. Mavoraunnaxrda ganchkorlik san’ati, ayniqsa, ravnaq topgan, me’morchilikning asosiy bezagi darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatilgan. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nushalarida ramziari, timsoliy tasvirlar, va hattotlik sanati namunalari naqadar mo’lligini ko‘ramiz. Har bir chizilgan naqshda o‘ziga hos ma’no bo‘lgan. O‘simliksimon “islimi” naqsh boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to‘kinchilik va bahor chog‘ida uyg‘onishni bildiradi. Ozbekiston territoriyasida arxeologik qazishmalar shuni ko‘rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko‘p ishlatilgan. Girihlar (Xandasiy naqsh) - forscha, chigal, tugun degan ma’noni beradi. Girihlar – to‘rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turi. Milliy naqshlarimiz g‘oyatda boy mazmunga ega. Turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi. Bu go‘zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan

yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriylashtirilgan holda takomillashib bordi.


a. Ayollar liboslar to'plamini yaratishda ijodiy manbaa sifatida milliy me'morchilikdagi naqqoshlik elementlaridan lavhalar namuna qilib olingan.



a.

a) XV asrda qurilgan Ulug'bek madrasasining peshtoqiga marmardan o'yib ishlangan bezak va koshinlar ijodiy manbaa sifatida qo'llaniladi.

b.




b) Miiy memorlik amaliy bezak san'ati namunalari o'rGANILIB, ularidan naqish elementlaridan olinib dizaynerlar tomonidan uslublashtirilgan holda yangi zamonaviy naqsh kompozitsiyalari, shakli yaratilib libos eskizlariga tadbiq etiladi. Milliy me'moriy binolardan

olingan naqsh elementlari liboslarga transformatsiya yo'li bilan ko'chirilgan.




c) Xomaki eskizlardan kelib chiqqan holda, bir to'xtamga kelin-gan tanlangan eskizni yaratiladi. G'oyani qog'ozga kochirish jarayonida, avval bir qancha qoralama eskizlar ishlab chiqiladi. Eskiz ishslash jarayonida dizayner o'z g'oyasini yanada takomillashtirishga va g'oyani tub ma'nosi va mohiyatini chuqurroq ko'rsatib berishga ega bo'ladi.







d.

d) Zamonaviy moda yonalishi o'rganib eskiz konsepsiysi g'oyasi asosida tor eskizlar yaratildi. G'oya mavzusi izlanishlar va to'plangan ko'hna me'morchilik naqshlarini eskizga joylashtirilishi-dan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi.








e)

e) Zamonaviy moda tendensiyasida urf bo'lgan ranglardan ilhomlangan holda eskizlar namunalari yaratiladi, so'ng rang berish jarayoniga o'tiladi. Bunda yaratilayotgan libos qanday matodan ishlanishi nazarda tutiladi, so'ng eskizlarga rang berishga o'tiladi. Matoni xususiyati, fakturasi rang orqali chiqarib beriladi.



f) Stilikistik qator. Bir necha eskizlarni birligida jamlanmasi bo'lib, unda libos detallari va shakllarini o'ziga hos jihatlarini yaratadi.









j.


j) Texnik eskiz – bu libosning detallarini yaqqol ko'rsatib beriladi. Texnik eskizda libosning har-bir detali va taxlamalari, choklari va choc bezaklari ko'rsatib beriladi.




k.

k) Tanlangan model eskizini umumiy ko'rinishi aks ettiriladi va bunda libosni ko'rinishini aksessuarlar bilan boyitib, obrazning umumiy ansamblini yaratiladi.





Adras, atlas, olacha kabi yorqin matolar nafaqat quyoshli Sharqni, balki vazmin G'arbni ham maftun etgan. Sharq o'zining gul bosilgan, (abr naqshli) (ikat) ipak matolari bilan mashhur. "Abr naqshli" murakkab texnikali qo'l mehnati orqali hosil bo'ladigan mato bo'lib, iplarni bosqichma-bosqich bog'lab bo'yoqqa botiriladi. Abr texnikasida to'qilgan matolarning ajoyib naqshlari va yorqin ranglari XIX asr Markaziy Osiyoning timsoliy mavqeini belgilab beradi. Sovet davlatidan avval O'zbekiston va Tojikistonda bu yorqinlikka shunchaki urg'u berilmasdan, Abr naqshlar xunarmandalar san'atining yuksak namunasi. Abr matolari hayotning siyosiyligi, iqtisodiy va ijtimoiy kabi turli sohalarini bog'lovchi bo'g'imi bo'lган. Abr texnikasida to'qilgan matolarning nufuzining ortishiga sabab, bu uning tayyorlanish jarayonini mashhaqqatliligidadir. Adras matolarining iplari avval bo'yalib naqsh elementlari tushirilib, song to'quv dastgohida to'qiladi.



m) Libos To'plami eskizlari – bu tanlangan eskizlarni yakuniy
holatga keltirilgan jamlanmasi.



m.

III bobga oid nazorat savollari:

1. Sketchbook nima uchun qo'llaniladi?
2. Sketchbook o'zida nimani mujassam etadi?
3. Sketchbook yuritishda nimalarni hisobga olish zarur?
4. Sketchbookni rasmiylashtirish bosqichlari.

VI BOB. MATO VA MATERIALLARNI TASVIRLASH

Odam qomatini chizish va gavda turish holatini yaratish asoslarini egallagandan so'ng, keyingi bosqich bu libos chizishni o'r-ganish. Bu mato va materiallarning assortimentini o'ziga xos xususiyatlarini va tasvirlash vositalarini o'rganish imkoniyatini beradi. Modellar yaratishda barcha foydalanadigan mato va materiallar ko'z o'ngida bo'lishi kerak.

Ishning birinchi bosqichi kerakli turdag'i matoni tanlashdir. Mato tanlashda o'z didingizdan kelib chiqishingiz lozim. Barcha kerakli ishqurollar bilan ishlangan, ish mazmuni unumli bo'ladi.

4.1. Drapirovkalarini tasvirlash. Drapirovkalardagi shakllarni hosil qilishdag'i asosiy usullar.

Mato fakturasi bilan bir qatorda libos eskizini yaratishda drapirovka, burmalar va taxlamalarni tasvirlash katta ahamiyat kasb etadi. Hayoldan yoki o'quv mashg'ulotlarida natyurmort yoki interer, maniken yoki kiyimli inson gavdasidagi turli matolarni (drapirovka) uning buklama va taxlamlarni xarakterli shakllarini tasvirlash mahoratini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Turli davr rassomlari asarlarida tasvirlangan matolarning burma va taxlamlari drapirovka deb ataladi. Aniqrog'i, burama – bu matoni beixтиyor siqilishi natijasida matoning yuzasida hosil bo'ladigan tartibsiz buklamalardir, drapirovka esa bezash maqsadida ixtiyoriy tarzda buklamalarni bog'lash, tikish, taxlash va boshqa uslublarda hosil qilinadi. Drapirovkalar haqida so'z borganda buklamlarning (taxlamalarning) chizmatasvirda plastik ifodalash qonuniyatları haqida gapirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir qarashda buralib-buralib ketuvchi shakllar ma'lum qonun - qoidalar asosida, ma'lum ketma-ketlikda, qiziqarli, ritmik tarzda takrorlanuvchi, chiroyli chiziqlar to'plamini hosil qilib, rassom uchun keng va boy tasvirlash imkoniyatlarini ochadi. Drapirovka tasviriy san'atning ifoda vositasidan biri bo'lib, jiddiy o'rganishni talab etadi. Chizmatasvir


vazifalarni bajarishda, o‘quv qo‘yilmalarga biriktirilgan drapiro-kaning statik holatini, ya’ni osig‘liq yoki yotgan mato bo‘lagini tasvirlashga katta e’tibor qaratilishi lozim (natyurmort yoki inter’er, drapirovkalar bilan maniken yoki kiyimli inson). Drapirovkani to‘g‘ri tasvirlash uchun, unda sodir bo‘layotgan dinamik holatni aniq tasavvur eta olishi kerak. Hajmli-fazoviy shakllarni “o‘qiy” olib chizmatasvir vositalari orqali grafik etyudga ko‘chira olishi lozim. Matodagi taxlamlar mato uzunligiga nisbatan kam masofada cho‘zilgandada hosil bo‘ladi. Mato harakatdagi kuchga bo‘ysungan holda, fizik xususiyatlari ya’ni qaysi materialdan ishlanganiga, qalinligi, xarakterli tuzilmasiga ko‘ra bukiladi. Taxlamalarning shakli mato xususiyatiga va turiga bog‘liq. Yupqa va harir matolar mayda taxlamlar, qalin va dag‘allari esa katta va keng taxlamlar hosil qiladi, ya’ni turli xil matolar g‘ijimlanganda qarshilik ham har-xil bo‘ladi.

Hozirgi kunda to‘qimachilik matolarining ko‘plab hillari mavjud, ular o‘zining elastiklik va taranglik darajasiga ega. To‘qimachilik polotnolari (gazlamaning qalinroq turi) dinamik ta’sir natijasida, boshqa matolarga qaraganda tekis yumaloq shakldagi taxlamlarni hosil qiladi.

Drapirovka uchun har-xil yuzalar hosil qiladigan matolar va to‘qimachilik gazlamalari ishlatiladi. Mato va gazlamalar o‘zining fakturasi (o‘ziga xoslik, sifati)ga qarab farqlanadi. Ular tekis, silliq, tukli, paxmoq, yaltiroq yoki xira, jilosiz, dag‘al yoki yumshoq, zich yoki siyrak to‘qilgan va hokazo bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga mato va polotnolar bir qancha xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatlar mato va gazlamalarni tayyorlashda ishlatilgan tolalarining xossalariiga bog‘liq. Shunday qilib, shoyi matolar yumshoq va yaltiroq, junlilari tukli, momiq, jilosiz va hokazo. Yumshoq, yupqa matolar drapirovka uchun qulay bo‘lib, yumshoq bukilishlar beradi, zich va dag‘allari esa uchli aniq burchakli taxlamlar hosil qiladi. Drapirovka uchun matolar tanlashda bu xususiyatlarini e’tiborga olish zarur, noto‘g‘ri tanlangan mato esa o‘ylangan kompozitsiyada mo‘ljaldagi natijani bermasligi mumkin. 45-rasmda bir qancha drapirovkalarining kompozitsion yechimlari keltirilgan.

Kompozitsiya variantlarining biri bu, bir yoki ikki tayanch nuqtalariga osilgan drapirovkalaridir. Birinchi variantda bitta tayanch

nuqtada osilib turgan drapirovka, vertikal yo‘nalishda konussimon shakl hosil qilgan. Ikkinci variantda esa drapirovka ikki nuqtaga osilgan bo‘lib, u yoki bu tarafdan guruhlarga ajralgan holda, to‘g‘ri tuzilmali yaxlit yoysimon taxlamlar hosil qilgan.




45-rasm. Drapirovka kompozitsion yechimlarining variantlari.



46-rasm. Drapirovka chizmatasviri.

Bunda yoysimon qatorlardagi taxlamlar, bir yoki ikki joydan sinadi. Birinchi ikki variantdagilarni moda shakldagi taxlamalı drapirova kompozitsiyasiga kiritish mumkin. Agarda mato bo'lagini uchta tayanch nuqtalariga ilib qo'ysak, ikkiyiarim yoysimon shakldagi taxlam hosil bo'ladi (45, b).

Taxlamlari qilib qo'yilgan drapirovkalar, hajmli bo'lib, bo'yi, eni va chuqurligiga ega. Drapirovkaning hajmli shakllari bukilgan taxlamalarga ega bo'lib, matoning o'ngidan teskari tomonga va aksincha, teskaridan o'ngiga qarab yo'naladi. Shunga e'tibor qaratish lozimki, matoning og'irligi tufayli, drapirova taxlamlarini yuqoridan pastka qadar bukilishlari kattalashib borishiga olib keladi. Eng katta bo'rtgan yuzasi buklama shakl, katta chuqur yuzasi esa –botiq shaklli taxlamlarini hosil qiladi. Bortgan shakldan botiq shaklgacha bo'lgan masofa, taxlamlarning ham bo'yi, ham chuqurligi sanaladi. Drapirovkalar asosiy va bo'ysinuvchi tayanch huqtalaridan osilib tushishi mumkin.



47-rasm. Drapirovka akademik chizmatasviri.

Asosiy tayanch nuqtasi deb drapirovkan ni osilishi boshlangan joyi, drapirova taxlamlari uzilib, yangi shakl hosil qilish joyi-bo'ysinuvchi nuqta deb ataladi. Asosiy va bo'ysunuvchi tayanch nuqtalar drapirova kompozitsiyasini shunday shakllantiradiki, taxlamlar tayanch nuqtalardan nur, to'lqin yoki yoysimon shakllar drapirova xarakteri qonun qoidalariga bog'liq holda shakllantiradi. Boshida taxlamlar vertikal holatda tushib, so'ogra pastki nuqtaga nisbatan yo'naladi. Shu bilan birga bo'ysunuvchi nuqtada yangi

tayanch nuqta hosil bo‘ladi, undan qarama-qarshi yo‘nalishda davom etadi. Bunday shakldagi drapirovkalar zinasimon taxlamli kompozitsiya hosil qiladi (47 rasm).



48-rasm. Drapirovdagi murakkab taxlamalarning chizmatasviri.

Agarda mato bo‘lagini gorizontal yuzaga tashlasak, murakkab buklamalar to‘plami hosil bo‘ladiki, u hech qanday sistemaga bo‘ysunmaydi, har gal taxamlar yangicha shaklda hosil bo‘ladi. Drapirovkaning bunday holatda joylashishi to‘g‘ri chiziqli murakkab bo‘rtmalarni shakllantiradi.



49-rasm. Yuzaga erkin holatda tashlangan matodagi taxlamalar chizmatasviri.

Agarda matoni vertikal, gorizontal nuqtadan balandda turgan figura ustiga tashlansa, bir yoki ikki tayanch nuqtalar tashlangan

drapirovka hosil qiluvchi murakkab turkumdag'i burmalar paydo bo'ladı. Hajm ustiga tashlangan drapirovka hosil qilgan taxlamlar shaklan xilma-xil bo'ladı (48-rasm).

Sharsimon shakl yuzasiga tashlangan darpirovkadagi taxlamlar ham ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysunadi. Drapirovka sharsimon shaklning yuqori qismida tekis yuza hosil qiladi. Drapirovka yuqori qismidan keng gorizontal aylana shaklgacha qanchalik uzoqlashsa, shunchalik erkin osilgan taxlamlarni yuzaga keltiradi. Bunday aylanada bir qancha tayanch nuqtalarni hosil bo'ladı. Ulardan ham taxlamlar, bir tayanch nuqtadan uzoqlashib osilgan sayin yuzaga kelgan taxlamlar singari hosil bo'ladı. Agarda ikki sharsimon shaklidan foydalanilsa, ular orasidagi drapirovkaning gorizontal tekisligida yengil bukilgan, pastroqdag'i vertikal tekislikda esa, ikki nuqtadan osilib tushgan drapirovka kompozitsiyasida chuqur taxlamlar hosil bo'ladı.

Agarda tayanch nuqtasidan yuqorida joylashgan sharsimon shaklga drapirovka tashlansa, unda shaklning bir qismi bekilib, drapirovka sharsimon shaklga ega bo'ladı va taxlamlar uning atrofida hosil bo'la boshlaydi.

Agarda drapirovka matosi uchun to'qimachilik polotnosi ishlatsilsa, unda silliq gorizontal yuzada bo'rtma va puffaklar hosil bo'ladı. Elastiklik xususiyati tufayli hosil bo'lgan taxlamlardagi bo'tiq qismlari buralib, aylana taxlamlarni shakllantiradi. Erkin osilgan drapirovkada xarakterli og'ir doim pastga tomon egilib turuvchi taxlamlar kuzatiladi. Og'ir taxlamlar diagonal so'ng esa pastga tomon aylana hosil qilib, yoy uchlari radial (radius bo'ylab tarqalgan) taxlamlarni shakllantiradi.

Yuqorida ta'kidlanganlarga mos ravishda, murakkab taxlamlarni kelib chiqishini tahlil qilish mumkin. Mashhur rassomlar ishlarida drapirovkalarining murakkab shakllaridagi xilma-xil taxlamlar turini ko'rishimiz mumkin.

Drapirovkaning barcha kompozitsion yechimi asosida uning o'quv vazifasining mavzusi yotadi.

Drapirovkalarini naturadan tasvirlashga kirishishdan oldin, trikotaj polotnolari yoki turli matolar parchalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladı. Matoning drapirovkaga mosligini tekshirib ko'rish zarur. Matoni yoki to'qimachilik polotnolarini stend


yoki maniken ustiga chirolyi va ifodali taxlamlar hosil qilib, matoning fakturasi va plastik xususiyatlarini hisobga olib, so‘ng uni mahkamlash lozim. Har-xil matolar va polotnolarga bir vaqtda qaraganda, taxlamlar xarakterini rang-barangligini tahlil qilib, drapirovkalarni tasavvurdagi siyosini taxlamlar ustidagi “o‘ynoqi” naqshlarni aniqlash mumkin.



50-rasm. Liboslarda taxlamalrn chizmatasvirda aks ettirilishi.

Turli mato parchalarini ketma-ketlikda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir: qalin va harirlari, jilosiz va yaltiroqlari, dag‘al va yumshoqlari va hokazo. Shunda ham har gal ikki-uchtasini solishtirish kerak. Shundagina junli, shoyi va paxtali matolar, polotnolardan shakllangan taxlamlarning keskin farqini ko‘rish mumkin. Drapirovani tasvirlash oldidan, qog‘ozga qanday joylashtirish, tasvirni qog‘ozga komponovka qilib, qog‘oz “bo‘sning‘iga” tasvirni nisbatlash lozim. Kompozitsiyadagi nisbat o‘ng va chap, baland va pastdagining elementlarini barobar bo‘lish orqali erishiladi. Ammo bu, tasvir simmetrik joylashishi kerak degani emas. Masalan, osilib turgan drapirovka tasviri, agarda pastdan ko‘proq bo‘sh joy qolsa, ishonarli chiqadi. Shunda qog‘ozdagi “Bo‘sning‘ilar” kompozitsion to‘g‘ri bo‘ladi. Stolning gorizontal yuzasidagi drapirovani og‘irligi va muallaqlik holati taassurotini berish uchun tasvirni ozroq pastga siljitiш maqsadga muvofiq bo‘ladi. Faqat ko‘z oldimizdagи drapirovka obrazini yaxlitligiga erishgandan so‘ng, hayolan qog‘oz o‘lchami bilan “og‘irlilik” nisbatlarini solishtirib, drapirovka joylashgan yengil kontur chiziqlarni belgilab chiqib, tasvirlashga otish mumkin.

Drapirovka kompozitsiyasida matolarning plastik xususiyatlari, rang kontrastlari ahamiyatini ko'ra olib, ishda mohirona qo'llash mahoratini kuchaytirish muhim.




51-rasm. Mato fakturasining chizmatasviri.

Chizmatasvirda qalam va qo'l harakati bilan, chiziq vositasida inson his-tuyg'usi va kechinmalarini ifodalash mumkin. Chiziq-chizmatasvirning assosiy tasvirlash vositalaridan biri. U shakl, rang, hajm va fazoni chiqarib bera oladi. Chiziq yordamida hajm, yuzalarni chegarasini belgilash mumkin. Chiziqning xarakteri qog'oz yuzasidan qanday usulda va qanday kuch bilan yurgazilganligiga bog'liq. Odatda och tusdag'i chiziqlar ish boshida yordamchi, qidiruvchi chiziq sifatida, tasvirlanayotgan drapirovka nabroskasini konturlarini ishlashda qo'llaniladi. Tasvirdagi chiziq yoritilishning turli sharoitidagi shakllarni o'rganish me'yorlari natijasida fazoviy xarakterga ega bo'ladi. Chiziqlar qog'ozda bilinear-bilinmas va hatto umuman yo'q bo'lib ketishi, ba'zan esa tus jihatdan qalin va kattalashishi mumkin. Qalamni har xil qiyalikda bosib ishslash natijasida ingichka, qalin yoki keng chiziqlar hosil bo'ladi.

Chizmatasvirda drapirovkani hajmli taassurotini yaratish uchun, uning yuzasida yorug'-soyaning tarqalishini aniqlash lozim. Tabiiyki, drapirovkaninbg yorug'lik manbaiga qaratilgan yuzasi yorug', yorug'lik tushmaydigan yuzasi esa soyada qoladi. Shuning uchun berilgan shtrixlar tasvirdagi hajmli va fazoviy taassurotni

kuchaytiradi. Turli xarakterli chiziqli-shtrixlar drapirova va matolar taxlamlarining tasvirida asosiy ifoda vositalaridan biri bo'lib qoladi. Shtrix yordamida taxlamlar shaklini tusi, fakturasi, hajmi va "harakat" holatini berish mumkin. Tasvir konturidagi shtrixlardan foydalanish hajm belgilarini hal etishga, ya'ni, qo'yilmaning shartli fazosidan shaklini chiqarib olishga imkon beradi.

Shtrixli yoki chiziqli-shtrixli chizmatasviridagi shtrixlarning qalinligi va xarakteri, tasvirlanayotgan drapirovkaning yuzasiga bog'liq holda har-hil bo'lishi mumkin. Shtrixlar xarakteri qalamga beriladigan bosimga bog'liq. Shtrixlar – bu nisbatan qisqa chiziqlardir. Bir joyda ko'roq, boshqasida kamroq to'planib, ular chizmatasvirda har-hil tuslarni hosil qiladi. Tasvir bo'laklarini shtrixlar bilan to'yintirish (singdirish) tasvirlanayotgan drapirovka hajmini va shaklini chiqarishga imkon beradi. Shtrixli dog'lar turli tus kuchiga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun chizmatasvirda shtrixlar soya-yorug' va tus munosabatlarini ifodalash vositasi hisoblanadi. Drapirovka hosil qilgan shakllar bilan beriladigan shtrixlar xarakterini moslash, nafaqat tasvirdagi shaklni muvoffaqiyatli o'xshatishga, balki drapirovka fakturasini ham aniq belgilashga yordam beradi. Shunday qilib, drapirovka tasvirlashda undagi taxlamlarning joylashuvini hisobga olib, shtrixlarni taxlamlar yo'nalishi bo'ylab berish maqsadga muvofiq bo'ladi.



52-rasm. Libos yengidagi mato taxlamalarning chizmatasviri.

Noto'g'ri yo'nalishda berilgan shtrix tasvirdagi shaklga halaqt berayotgandek, begonadek ko'rindi. Tasvirdagi tus va rang asosan

shtrixlar yordamida hosil bo‘ladi. Shtrixlar orasidagi masofani qisqartirish yoki shtrixlarni turli yo‘nalishda birlashtirish natijasida shtrixli dog‘ hosil qilish mumkin. Natijada drapirovka tasvirida tus paydo bo‘ladi. To‘q tusni hosil qilish uchun, bir joyga bir necha bor shtrix berish, yoki qalamni yumshog‘iga almashtirish lozim (47-rasm). Tusli dog‘larni boshqa vositalar bilan, masalan, mo‘yqalam yordamida suvli sous, akvarel yoki guash ham hosil qilish mumkin.

4.2. Libosda taxlamalarni tasvirlash

Mato tasvirlash uchun birinchi navbatda mos qog‘oz turini tanlashdir. O‘ta silliq qog‘oz atlas yoki yaltiroq matolarni tasvirlash uchun mos keladi. Akvarel qog‘ozi esa, tvid yoki yumshoq melanj kabi matolar fakturasini ko‘rsatish uchun qulaydir.

Shakl yuzasida yotgan sifatli matoning xususiyatini e’tiborga olingan harakatlar tufayli, har-xil turdag'i taxlamlar, o‘zaro bir-biri bilan bog‘lanib, turli mutanosibliklarni kasb etadi.

Agar momiq fakturali matolarni yoki mo‘ynani tasvirlash kerak bo‘lsa, tasvirni akvarelda bajarish maqsadga muvofiқ bo‘ladi. Bunda ho‘l qog‘ozga quyuq rang qo‘yliganda u biroz tarqaladi, natijada paxmoq, momiq mato fakturasi hosil bo‘ladi. Eskizlar kollaj ko‘rinishida bajarilishi mumkin. Bundan tashqari bor matolarni skaner qilish, foto nusxalaridan foydalanish mumkin. Buning uchun ular masshtabini kichraytirib, talab etilayotgan eskizga yopishtirish mumkin.



53-rasm. Libosdag'i taxlama va burmalar tasviri.

Eskizni chizgandan so'ng, bazaviy rangni flomaster, bo'yoy qalam, moyli pastel yordamida hosil qilish mumkin, so'ng qalam, ruchka, siyoh, gelliruchka va boshqalar bilan ish yuritish mumkin. Maskirovkali flamaster yordamida chizilgan tasvir quritilib, ustki qatlam ko'chirib olinadi. Bu uslub polotnoni va to'rli matolarni ko'rsatib berishda qulay yoki matoning nuqsoni va bezagini alohida ko'rsatib beradi.

4.3. Mato fakturasini tasvirlashning asosiy texnikalari. Oq matoni eskizda tasvirlash.

Oq matoni eskiz modelda tasvirlash oddiygina bo'lib tuyuladi, ammo bu rangning o'ziga hosligi ancha muammolarga ega. Ularni, ijodiy yondashib yengish mumkin. Bunday holda tasvirda berilgan matoning yuza jilosi va fakturasini dadil berilgan shtrixlar hisobiga ko'rsatiladi, ular matoning tasvirda berilgan turini aks ettiradi. Vual – yupqa, shaffof matoning bir turidir. An'anaviy ravishda bu mato turini tasvirda ko'rsatib berish, doimo murakkab jarayon bo'lib kelgan. Yupqa matolar maxsus kiyim turlarida masalan, to'y liboslarida, bashang liboslarda, nafis bluzkalar va h.k qo'llaniladi.

Shaffoflik – matodan yorug'likni o'tkazishga imkon beradigan, tana nafisligini ifodalaydigan sifatlarga ega. Bu matolar mutlaq emas, balki yarim shaffof bo'ladi. Tyul yoki mayda to'r matosi narsalarning shaklini va tusini ilg'ab olishga, filtr xususiyati kabi yo'l qo'yib beradi. Bunda matoni idrok qilish bir muncha o'zgaradi. Agar akvarel yoki akril bo'yoqlar bilan ishlansa, matoning shaffofligini ko'rsatish uchun lessirovkalar qulay bo'ladi.

Gaz matolari ostida tana tusini o'zgartiradi. Uning siyimosi noaniq bo'lib qoladi. Ma'lumki, libos tarang va silliq bo'lmaydi, o'zida bukllov va taxlamalar hosil qiladi, bunda mato qatlamlarini ustma-ust bo'lganligi shaffoflik xususiyatini o'zgartiradi, bu omil ishni murakkablashtiradi. Matoni buklash jarayonida shaffoflik xususiyati ancha qisqaradi, bunda bir nechta taxlamalar bo'lsa bu xususiyat butunlay yo'qolib boradi va libos o'zidan kam yorug'lik o'tkazsada, uning rangi jadallahshadi.





54-rasm. Oq matoni eskizda tasvirlash.

Harir matolar va Vuallar.
a - eskiz asosi marker ruchka
bilan chizilgan
b - shtrixlar kesishuvi flamas-
terda ishlangan.


Lyureksli va metal fakturali ma-
tolar.
a - eskiz asosi marker ruchka
bilan chizilgan
b - chiziqlar, nuqtalar va yaltiroq
chiziqlar birikmasi flomasterda
ishlangan.



55-rasm. Eskizda xarir matolar tasviri

Shvetsariya kashtasi nomi bilan mashhur kashtado'zlik san'a-tida sifatli paxta tolali oq matolarga qo'l mehnati orqali tikilgan naqshlar berilib, ular odatda oq ipdan foydalanib yaratiladigan to'rlar hisoblanadi, Yevropa uslubida esa naqshlar rangli iplardan qo'llanilgan. Bugungi kunda bu kabi matolar turlari mavjud bo'lib, matolar asosan to'quv mashinalarda to'qiladi. Qo'l mehnati orqali yaratilgan to'qima matolar mashina orqali to'qilgan matolardan farqlanadi, hattoki naqshi va dizayni bir xil bo'lganda ham. Qo'l mehnati orqali to'qilgan matolar (Krokot) asosan bezak elementlarni qo'llash va pardozlashda ishlatilab, ba'zida yarim bo'rtma effektlarini hosil qilishda ishlatiladi.


Krujeva kryuchok yordamida qo'lda to'qilgan buyumlar xususiyatini mashinada to'qib bo'lmaydi. Kryuchok yordamida to'-qish nafis ajurli modellarni dekorativ bezashda, 3D- effektini yaratishda qo'llaniladi. Krujeva ajurli matosining keng turlarini, shu jumladan, to'rlarni qamrab oladi.



Gipyurni kashta turiga kiritish mumkin. Gipyur, matoga turli ornamentli kashtani tikish yo'li bilan yaratiladi, so'ng ajurli krujevani qoldirish uchun kimyoviy yoki boshqa usullar yordamida mato yo'-qotiladi. Kashtalangan yuzani chizish materialni puxta o'rganishni talab etadi. Kashtalangan buyumlarning tasviri sodda bo'lib ko'rningani bilan berilgan detallarga alohida e'tibor berilib, boshqa materiallar kabi kesib o'tadigan shakllarni chizish, tasvirlanadigan ba'zi nuqtalar haqida bilimlarga ega bo'lishni talab etadi. Agar kashta

rasmi takrorlansa yoki mato juda keng bo'lsa, detallarga ozgina ishlov berib xomaki chizmani bir qismini qoldirish mumkin.

Eskizda 1960-yildagi kokteyl uslubidagi libos modeli namuna sifatida keltirilgan.



Ingliz kashtasi

a - markerli ruchka bilan chizilgan.

b - izmasi roller ruchkadan foydalanilgan.

Qo'l kashtasi

a - qo'l kashtasi kompyuter dasturidan nusxalanib chiziladi.

b - oq matoni tasvirlashda kumush rangli ruchkadan foydalanilgan.

Krujeva

Qora va oq ranglar birikmasidagi ranglardan foydalanib tasvirlangan.

4.4. Qimmatbaho matolarini tasvirlash

Atlas matodan tikilgan liboslar akvarel qog'ozlariga chiziladi, ranglar berilib grafikada ishlov beriladi. Atlas matolari silliq va yorqin, to'qilishi zich va yaltiroq tusga ega. Odatga ko'ra ipak toladan yoki sun'iy ipak tolasidan to'qiladi. Satin atlas matosiga o'xshash bo'lib jilosiga ega emas. Lyureksli matolar odatda, metall iplar bilan bиргаликда to'qiladi, ammo zamonaviy matolarda ichiga sintetik tolalar qo'shiladi va unga metall xususiyatlarini berish uchun laminat va grunlash texnikasi qo'llaniladi. Oqshom liboslarida atlas matosini tasvirlashda akvarel bo'yoqlarini tortish va qalamlar konturidan dadil foydalanish mumkin. Shuningdek, atlas matosi silliq va yaltiroq yuzaga ega bo'lib, yorug'likni o'zida aks ettiradi.

Baxmal, duxoba va vilyur matolari tukli yuzaga ega. Bu matolarning ayrim turlari trikotaj asosida bo'ladi. Ularning ustunligi shundaki cho'zilish darajasi trikotaj matosiga o'xshash.

Bu matolarda ba'zan yaltiroq tangachalar (blestki) va payetkalar qo'llaniladi. Bular matoga tikilgan mayda hajmli yorug'likni o'zida aks ettiradigan metall disklar. Zamonaviy matolar turli xil ko'rnishdagi bezaklarga ega, shu jumladan, jilosiz, shaffof, pechat urilgan shuningdek, turli shakldagi va o'lchamdagagi gologrammalar.



Atlas mato

a-eskiz asosi marker ruchka bilan chizilgan.

b-qo'shimsha jilolar pastel qalamlari yoki print yordamida tasvirlangan.

Velvet

a-eskiz asosi marker ruchka bilan chizilgan.

b-bliklarni hosil qilishda mellardan foydalanilgan.

Yaltiroq mato

a-eskiz asosi marker ruchka bilan chizilgan.

b- yaltiroq effekt flomaster va gelli ruchkada chizilgan.

4.5. Mo'ynali va charm buyumlarni tasvirlash

Mo'ynali va charm buyumlarni tasvirlash alohida yondashuvni talab etadi. Moda olamida leopard, gepard, norka, tulki va ilon terilarini tasviri ko'p yildan beri alohida o'ringa ega. Tasvir

boshishning yangi raqamli texnologiyalari doimiy ravishda o'sayotgan imkoniyatlarga olib keldi. Hozirgi kunda jonivorlar tasviri printi juda mashhurdir. Dizaynerlar modellar yaratishda qushlar patlari, kapalaklar shuningdek, tabiatda uchraydigan boshqa narsalarni tasvirining elementlaridan foydalanadilar.

Mo'ynali liboslar uzunligi, qalinligi, zichligi turlicha bo'lgan tuklardan iborat bo'ladi, bu belgilarning birikmasi yumshoq yuzani hosil qiladi. Bunday liboslarni tasvirlash uchun eng avval rang yordamida shakl chiziladi, bunda to'yingan bo'yoq tortishga ahamiyat berish shart emas, bir nechta soya yoki och, o'rta tusdagi akvarel dog'lar etarlidir. So'ng yakunlangan rangli asosga yumaloq, juda ingichka bo'lgan mo'yqalam yordamida shtrixlar yotqizilgan holda mo'yna shakli va fakturasini yaratish mumkin. Bu faktura to'q rangdagi bo'yoqlar och rangli bo'yoqlar ustidan tortilgan sohalarda ayniqlisa, sezilarli bo'ladi. Kalta mo'ynali ustki kiyimlarning fakturasi tuklar yuzasidagi kontrastlar jilosi bilan aniqlanadi.



56-rasm. Eskizda mo'ynali matolarni tasvirlash.

Mo'yna

a-eskiz asosi marker ruchka bilan chizilgan.

b-mo'yna junlari pastel qalamlari yordamida tasvirlangan.

c-oxirgi shtrixlar pastel mellari va gelli ruchka bilan berilgan.







57-rasm. Eskizda mo‘ynali matolarni tasvirlash.

Parcha matosi

- a-kontur chiziqlari flomasterda ishlangan.
- b- orqa fon markerli rushka bilan bo‘yalgan va yaltiroq jilosini hosil qilishda tilla rang gelli ruchka qo‘llanilgan.

Hayvon terilari namunalari

- a-eskiz asosi marker ruchka bilan chizilgan.
- b- eskizni chizishda flomasterdan foydalanylган.
- c-eskizda terini yumshoqligini ko‘rsatishda pastel qalamlari ishlataladi.

Kompyuterda tayyorlangan eskiz namunalari

Mato avval kompyuterda skaner qilib so'ng print qilinadi.

Parcha matosi

Eskiz voskli usulda tasvirlanadi so'ng, akvarel bo'yog'ida yorqin ranglar beriladi.

4.6. Trikotaj buyumlarining fakturasini tasvirlash

To'qish – bu polotno va buyumni qo'lida tayyorlashning dunyo bo'yicha ko'p madaniyatli ildizlariga ega bo'lgan eng qadimgi usulidir. To'qish mashinasi ilk bor 16 asr oxirida paypoqlarni tayyorlash uchun kashf etilgan. Hozirda to'quv mashinalari trikotaj polotnolarni va kiyimlarni to'qishda keng qo'llaniladi. Shunga qaramay, zamonaviy kiyimlarda qo'lida to'qish usullari mavjud. To'qish bu gazlama yoki kiyim tayyorlashning eng qadimiylar qo'l mehnati usullaridan biri bolib, bu dunyo bo'ylab Shimoliy Shotlandiyadan Perugacha bo'lgan hududlarda tarqalgan. Ko'pgina to-qima namunalari usullari qadimdan bugunga qadar dunyo miqyosida urfga aylangan.

Shunday bo'lsa ham zamonaviy to'qima mahsulatlari qo'l mehnati orqali to'qiladi. Ushbu erkaklar sviterda yumshoq to'qilishi qalin Nordik to'qilish usuliga mos keladi, unda markerli ruchka va yumshoq uchli qalam ishlataligan. Qomatga yopishib turuvchi dijinski shimplar uchli ko'k markerli ruchka bilan tasvirlangan, so'ng shakli va matoning o'ziga xosligi pastel qalamchasi bilan tasvirlanadi.

Yosh ayollarning ustki kiyimi tarkibiga, trapetsiyasimon yubka-ingichka uchli pero va pastellar yordamida chizilgan, to'g'ri siluetli sviter va to'qilishi oddiy sharfning eskizini chizishda pastel qalamchalari qo'llanilgan.



Romb shaklidagi to‘qima mato

a- Qoralama eskiz chizilgandan so‘ng, marker ruchka yordamida olmos shaklida rang beriladi.

b- Pastel qalamchalari yordamida romb shaklida chiziqlar chiziladi.

“Fair Isle” tasviri


a- Eskiz qalamda chiziladi va chiziqlar flamasterda aniqlashtiriladi.

b- Mato fakturasi va ranglar uyg‘unligini tasvirlashda marker va pastel qalamlari ishlatilgan.

Skandinaviya uslubi

a- Eskizda bosma naqshlar chizilgan.

b- Ranglarni berishda markerli ruchkalar ishlatilingan, mato fakturasi pastel qalamchalarida ishlangan.



58-rasm. To‘qilgan matolarni eskizda tasvirlash.

Nordik

a-namuna eskiz avval qalamda chiziladi.

b-markerli ruchka yordamida yorqin ranglar chizilib qalam izlari o‘chiriladi.

c-Ranglarning fakturasi va tiniqligi uchun pastel qalamchalaridan foydalaniladi.

To‘qish halqalari fakturasi.

a-Eskiz namunasi qalam bilan belgilanadi, imkoniyat darajasida haqiqiy izma bo‘lagidan foydalanish kerak boladi.

b-Eskiz namunasi markerli ruchka bilan chizilib qalam izlari o‘chiriladi. Markerli ruchka yordamida yorqin ranglar chizilib qalam izlari o‘chiriladi.

Ornamenti to‘qish halqalari.

a- Asosiy ranglar markerli ruchkada bo‘yalgan.

b- Eskiz pastel qalamchalari bilan chizilgan.

c- Soya va faktura yuzasi ingichka pastel qalamchalarida ifodalangan.

4.7. Kiyishda chidamli matolarni tasvirlash

Charm ikkita assosiy ko‘rsatkichlar bilan farqlanadi. Birinchisi – dabdabaliyliги, ranglarining o‘ziga xos nafisligi, materialning elastik xususiyati va nisbatan materialga ishlov berishda qiyinligi. Ikkinci farqlovchi ko‘rsatkichi – bu birinchisiga qarama-qarshi bo‘lgan uning isyonkor, shafqatsiz siymosidir, uning boshlang‘ich manbai 1950-70-yillardagi yoshlardan harakatiga oid hisoblanadi.


Xolst va djinsi matolari qattiq, nisbatan qo‘pol, hamda chidamligi bilan farqlanadi.

Tvil – yengil, uni ushlab ko‘rganda yumshoq, ingichka, ammo zich bo‘lgan tabiiy mato. Uning iplari maxsus texnikada o‘riladi: assosiy ipi ko‘ndalang bo‘lib, ikkita oldindi ko‘ndalang ipning ustidan o‘tib o‘riladi. Keyingi qatorlar bir ipga suriladi. Bunday o‘rilish diagonal yoki sarja o‘rilish deyiladi. Ko‘rinishi bo‘yicha u djinsi matosini eslatadi. Eshilmagan standart iplar qo‘llaniladi.

Namat – tabiiy yungdan qilingan noto‘qima mato bo‘lib, har bir yung tolachasi tangachalardan tuzilganligi sababli issiq suv, bug‘ yoki mexanik ta’sir ostida bir-biri bilan jipslashadi.

Mototsikl haydovchi qiz siymosida djinsi matosi ko‘k rangli marker ruchkasida mato soyasi va yorug‘lik effekti to‘q, och rangli pastel qalamlarida ifodalangan. Kontur chiziqlari pastel qalamchalarida ishlanib, djinsi mato tuzilishini eskizda ko‘rsatib beradi va

bunda djinsi matosining yirtilgan holati, buklov dagi holati va izmalarni aniq tasvirlashda ko'mak bolgan. Jaket eskizida charm matosining fakturasi va bliklar mukammal chizilgan. Markerli ruchka va korrektor yakuniy pardoz berishda ishlatalilgan.



Brizent

a-Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.

b-Mato fakturasi moy qalamda chizilgan.

Tvil

a-Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.

b- Markerli ruchka mato fakturasiga yakuniy ko'rinishni bergen.

Jinsi matolar

a-Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.

b-Diagonal tvil chiziqlar pastel qalamida chizilgan.

c-Izmalar qora flomasterda, bel qismi pastel qalamchalarida chizilgan.

d-Pastel qalamchalar va oq rangli gelli ruchka djinsining "Yirtiq" bo'lagini tasvirlaydi.

"Kamuflyaj" matolari birinchi bor ovchilar tomonidan qo'lla nilgan, ular hayvonlar ovidan va o'z odathlaridan ilhom olishgan.

Biroq tushunchasi 18 asrda har bir xizmatchilar tomonidan qo'lla nilgan, lekin u biz bilganimizdek, bu mato birinchi va ikkinchi jahon urishi davrigacha maxsus kiyim sifatida juda keng tarqalmagan.

Mo'ynali mato bu zinch to'qilgan yuzasi ixchamlashtirilgan va tekislangan, bu jarayon uning chidamliligin oshiradi.

Vilvet to'qilgan mato bo'lib, to'qilish konstruksiyasiga ko'ra barxatdan farq qiladi. Mato vorsining vertikal chiziq boylab tanda ipga parallel chiziqlar arqoq deb nomlanib, to'qilishda mato chetlari ham hisobga olinadi.

Bushlak kurtkasi tekis dag'al shaklsiz bo'ladi, lekin uning oq gelli ruchkadagi chizgilari unga aniqlik va ravonlik beradi. Eskiz asosiga va shimplarni tasvirlashda markerli ruchkalar va qalin chiziqlarni chizishda rangli moyqalamandan foydalaniladi.





59-rasm. Chidamli matolarni eskizda tasvirlash.

“Kamuflyaj” matosi

a - Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.

b - Eskiz ustidagi dog‘ boshqa rangdagi markerda chizilgan.

c - Ikkita rangli marker ruchgalari baravar holatda ishlatilganda kutuligan natijaga ega bo‘linadi.

Mo‘ynali jun matolari

a - Eskiz asosi mo‘y qalamda chizilgan.

b - Ikkinchi tonni hosil qilishda moy qalamdan foydalanilgan.

Yirik chiziqli mato

a - Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.

b - Vertikal chiziqlar fakturani ko‘rsatishda mo‘y qalamda chizilgan.

c - Yorug‘lik berishda pastel qalamlar ishlatilinadi.


Dag‘al mato - o‘zgacha usul


a - asosiy rang markerli ruchkada bo‘yalgan, eskizning yuzasi moyqalam yordamida ishlangan.

4.8. Erkaklar kiyim assortimentiga mo‘ljallangan matolar



60-rasm. Erkaklar bashang matosini eskizda tasvirlash.





Tvid, ustki kiyimlar uchun qo'llaniladi va u an'anaviy ravishda janubiy Shotlandiyada ishlab chiqariladi. Mato Tvid daryosi nomidan olingan bo'lib, daryoning suvi matoga yakuniy ishlov berish jarayonida qo'llanilgan. Hozirgi vaqtida tvid jun matoning keng ko'lamiga taalluqli. Bu matoning afzalligi, qulaylikdan tashqari yoqimli ranglar birikmasidir. "Archali mato" atamasi sarja o'riliishi natijasida yaratilgan an'anaviy to'qilgan naqsh uchun qo'llaniladi. Britaniya aristokratlari o'ziga xos ranglar va naqshlarni ishlab chiqishgan.

Donagal Tvidi

a-Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.

b-Nuqtalar aralashma tasviri pastel qalamlari va rangli bo'yoqlarda berilgan.

c-Mato ustidagi tugunchalar va mato faktura yuzasi pastel qalamchalarida chizilgan.

Davomiy Katak chiziqli mato

a-Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.

b- Katak chiziqlari ham marker ruchkalarida chiziladi.

c-Pastel qalamlar kontur chiziqlarini aniqlashda ishlataladi.

Sheferd uslubidagi katak chiziqlar (tog'ri chiziqli katak matolar)

a-Katak asosi qalamda chizilib, diagonal chiziqlar ikki vertikal ustunni flomaster yordamida yaratiladi.

b-Katak nusxani hosil qilishda diagonal chiziqning gorizontal ustunlari qo'shiladi.

c-Ustunlardagi kesishga nuqtalar natijasida rang to'q tusga ega.

d-Katak nusxaning o'lchami ustunlarning kengligiga qarab o'zgaradi.



61-rasm. Eskizda katak matolarni tasvirlash.

Archa nusxa Tvidlar

a-Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.

b-Archa nusxali chiziqlar tuzilishi marker ruchkada beriladi.

c-Yorqin va tvid effektlarini berishda pastel qalamlari ishlatiladi.

d-Pastel qalamchalarining ishlatishning boshqa usuli bu shtrixlashdir.

Archa shaklidagi to'qilish an'anaviy eskiz namunalarini tasvirlaydi, uni yaratishda diagonal to'qish usulidan foydalilanildi, bu

jarayon to‘qima yo‘nalishlarini hosil qilishda ishlatiladi. Sheferdni katak nusxali matolari ikki rangli ipni to‘rt, olti yoki sakkiz guruhlariga ajratib kontrast ranglar orqali diagonal to‘qish usuli yordamida yaratiladi. Bu nom taxminan Shotlandiya chegaralaridagi choqqilarda yashovchi choponlar kiyimidan olingan. To‘qilish usullari turlicha.

Plashovka matolari oddiy to‘qish usuli orqali paxta gazlamsidan yaratiladi, unda to‘rtburchak konstruksiyali bo‘yagan to‘qima iplar oq va bo‘yalmagan to‘qima iplar qarama qarshi kontraslanadi.

Ushbu sahifada markerli ruchkada chizilgan yordamchi chiziqlari dumaloq yoqali sviterni yaratilshi tasvirlanadi. Marker ruchkari polto eskizini yaratishda ishlatiladi, uning archa nusxali eskizi flomaster yordamida chiziladi.

Archa nusxali va Ingichka chiziqli mato.

- a-Toq rangdagi asos uchun markerli ruchka ishlatiladi.
- b-Ingichka chiziqlar oq gelli ruchka yordamida chiziladi.
- c-Archa nusxali eskiz namunasi sifatli chiqishi uchun marker yordamida chiziladi.

Yumshoq jilosiz archa nusxali eskiz namunalari.

Bu tvid usulidagi eskiz asosida toq markerli ruchka ustidan yumshoq pastel qalamlari chizilgan.


“Vels shaxzodasi” nomli katak nusxali to‘qilish usuli.

- a-Asosiy rangda markerli ruchkadan foydalaniladi.
- b-Vertikal chiziqning tasmalari uchli flomaster yordamida qoshiladi.

c-Gorizontal chiziqning tasmalari ham huddu shu holatda chizilib faktura va qalinligi pastel qalamchalari yordamida ajratiladi.

“Gaz panja” nomli katak nusxali mato.

- a-Katak tasvirini chizish uchun oddiy qalam ishlatiladi, kvadrat shakllar markerli ruchka bilan ajratiladi.
- b-Qalam izlari o‘chirilib vertikal chiziqlar flomaster yordamida bogilanadi.
- c-Yon diagonal chiziqlari yon tomon chiziqlari bilan biriktiriladi.




4.9. Printlar


Ushbu jarayon mato to‘qilgandan keyin unda yaratiladigan eskiz namunasi minglab yillar davomida XVIII asrning oxirida matoga turli yo‘llar bilan gul bosilgan rollerli printerning ihtirosidan bu jarayonning rivojlanishiga sabab bo‘ldi va ko‘pchilik uchun qulaylik yaratdi. Matoga gul bosishning zamonaviy usullari sanoatni o‘zgarishiga olib keldi, ushbu jarayondagi muammolarni yechilishiga sabab boldi.

Paxta tolali gazlamalar paxta tolalaridan to‘qilib, bu tolalar yetishgandan so‘ng terib olinib, ma’lum jarayonlar asosida matoga aylantiriladi. Paxta dunyo bo‘ylab ko‘pgina hududlarda yetishtiriladi, paxta tolasi har bir mamlakatda sifati va afzalliklari bilan farqlanadi. Masalan, Misr paxta tolasi uzun tolali bo‘lib, bu sifatli paxtali matolar to‘qishga yordam beradi. Paxta tolali gazlamalar tuzilmasiga ko‘ra ikki kategoriya bo‘linadi: to‘qilgan va gul bosilgan. To‘qilgan namunalar o‘z ichiga tanda va arqon yonalishdagi kontrast rangli ipning ishlatalishi orqali yaratiladigan chiziqlarni o‘z ichiga oladi. Gul bosilgan namunalar esa qolgan barcha turdag'i qoralama eskiz namunalariga to‘gri keladi.

Quyidagi gulli ko'ylik akvarel qog'ozda yumshoq qalamdan foydalanib tasvirlangan. Qoralama eskiz va yorqin jilolar akvarel yordamida chizilgan.



62-rasm. Print matolarni eskizda tasvirlash.





Polka hollari (nuqtalari)

- a - Eskizning foni qora markerli ruchkada bo'yaladi.
- b - Polka nuqtalari oq yelimli qog'ozda doira shaklida yelimanadi.
- c - Boshqa usuli bu dizaynerlarning guashi yordamida chiziladi.

Dolli Guldor tasvirlari

Guldor mato eskizi qora fonga per ova siyoh yordamida chiziladi.

Kollaj

Kollaj uchun turli xildagi qog'ozlar va matolarni skaner qilib ishlatish mumkin.

Retro printlar

- a - Eskiz avval qalamda chizilib, so'ng qora chiziqlar siyoh bilan ajratiladi.
- b - Orqa fon boyashda markerli ruchkadan foydalaniladi, qalam izlari o'chiriladi.
- c - Eskiz asosi markerli ruchkada chizilgan.
- d - Qora pero eskizni bo'yash uchun ishlataladi.
- e - Strix berishda kulrang peroda chiziladi.
- f - Markerli ruchka bilan ranglar boyitiladi.

Printli matolar, odatda kiyimning bir bo‘lagi yoki modelda katta o‘lchamda tasvirlanadi. Shtampovkali kiyimni kattalashtirilgan o‘lchamlarda namoyish etish mumkin. Shuningdek, shtampovkani yanada aniqroq va kiyimda matoning ko‘rinishini ko‘rsatish uchun yonida rasm qo‘yiladi. Kontrast va uyg‘unlik – printlar dizaynining tamoyillari, bunda dizaynerlik echimlarida rangning bosh rol o‘ynashi nazarda tutiladi.

Jonli va to‘yingan ranglarning konrast effekti kiyimga e’tiborni jalg etadi va ansamblni bir xillikdan uzoqlashtiradi. Boshqa tomondan, uyg‘unlashgan kontrastlar ranglarning mosligi va kombinatsiyalashgan matolar tufayli o‘zida ko‘proq o‘xshashlikni aks ettiradi. Katta kontrastga ega bo‘lmagan printni yaratish uchun undagi ba’zi tuslarni yo‘qolib ketishini oldini olish maqsadida, eskizda ranglar o‘rtasidagi kontrastni ko‘paytirish kerak. Kiyimning turli predmetlarida qo‘llaniladigan ba’zi printlar qomatni ko‘rish orqali o‘zgargan holda idrok etish optik illyuziyasini beradi. Printlar qattiq yoki yumshoq bo‘lishi mumkin. Masalan, kiyimda o‘simlik va geometrik shakldagi shtaplangan printlar odamdagagi anatormik refeqlarni berkitadi va ansambl effektini beradi. Ko‘ylak yoki yubkalardagi gorizontal, vertikal va diagonal chiziqlar siluetni o‘zgartiradi. Bunda odam semiz, ozg‘in, past yoki baland ko‘rinadi. Chiziqli printlar qomatni idrok etishni o‘zgartiradi, uni pastroq balandroq yoki ko‘rkam qiladi. Chiziqlar nigohni ko‘ylak uzunligi bo‘yicha tepadan pastga, diagonal yoki yuqoriga ko‘tarilganda zigzag bo‘yicha yuqoriga yo‘naltiriladi.

Vertikal chiziqlar qomatni balandroq, nigohni yuqori va pastga yo‘naltirgan holda uni yanada bashang, ko‘rkam va ozg‘in ko‘rsatadi. Gorizonal chiziqlar kaltaroq bo‘lib diqqatni tana kenligiga jalg etadi. Uni pastroq va kengroq qilib ko‘rsatadi. Ko‘ndalang printlar ko‘ylakning uzunligi bo‘yicha diagonal joylashgan bo‘lib, matoga dinamika effektini beradi. Chiziqli print bir-biridan uzoqlashgan bo‘lishi, bunda chiziqlar qarama-qarshi tomonga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Egri chiziqlar buyumga latofatlikni bag‘ishlaydi va bel chizig‘ini ajratishga yoki nigohni tananing bo‘rtib turgan ko‘krak, bo‘ksa qismlariga yo‘naltiradi. Chiziqlar yorug‘lik nurlari kabi bir nuqtadan chiqib turishi mumkin. Bunday usul ko‘proq yubka dizaynida qo‘llaniladi.



Skanerli matolar

Guldor matolar skanerlanib kollaj sifatida ishlatish mumkin.

Peysli usuli

a - Eskiz yengil chiziqlar bilan qalamda chiziladi. Chiziqlar flamasterda aniqlashirilib qalam izlari o'chiriladi.

b - Rang berishda markerli ruchka va pastel qalamlari ishlatiladi.

Chit

a - Eskiz uchli qalamda chiziladi.

b - Asosiy ranglar akvarel bo'yogida beriladi, bo'yoq quriganda qalam izlari uchirilib, detallar pastel qalamchalarida chiziladi.



63-rasm. Gulli matolarni eskizda tasvirlash.

IV bob uchun nazorat savollari:

1. Matolar tarkibi bo'yicha qanday turlarga ajratiladi?
2. Sizga ma'lum paxta tolali matolarning nomlarini aytib bering.
3. Sizga ma'lum zig'ir tolali matolarning nomlarini aytib bering.
4. Sizga ma'lum jun tolali matolarning nomlarini aytib bering.
5. Sizga ma'lum sintetik matolarning nomlarini aytib bering.
6. Mato fakturasini yaratishda qanday usullarini bilasiz?
7. Oq mato eskizda qanday tasvirlash mumkin?
8. Lyureks, krujeva va gipyur matolari qanday tasvirlanadi?


V BOB. KIYIM DETALLARINI TASVIRLASH


5.1. Kiyim detallarini libosda tasvirlash yoki ettirish

Matoning sifatini, tavsifini va o‘ziga xos xususiyatlarini bilish, eskizda kiyimni professional darajada tasvirlash mumkin. Keyingi bosqich bu kiyimni qomatga to‘g‘ri o‘tkazish va har bir detalni chizishdan iborat. Masalan: yoqani sorochkaga o‘qkazish, manjet, cho‘ntak va taxlamalarni chizish va h.k.

Bunday axborotni diqqatni kiyimga qaratib uni tanqidiy o‘rganish orqali olish mumkin. Buning uchun quyida keltirilgan savollarga javob topish kerak, bu shakl qanday yaratilgan, detallar qanday birlashtirilgan, drapirova, taxlamalar qanday shakllantiriladi va h.k. tahlil etish jarayonida uning dizaynini, konstruksiyasini, tayyorlanish texnologiyasini to‘g‘ri tushunish uchun kiyimni ichki tomonidan ko‘rib chiqish kerak. Kiyim dizaynini barcha elementlarini chuqur o‘rganib, to‘g‘ri eskiz chizish mumkin.

Quyida turli assortimentdagi kiyimning qomatdan tortib, tayyor komplektgacha bo‘lgan ketma-ketlikda model eskizlari berilgan.





64-rasm. Kiyim detallarini tasvirlash.

5.2. "Urban girl-shaharlik qiz" shiori ostida o'rta yoshdag'i
ayollar komplekti



65-rasm. Kiyim detallarini tasvirlash.



66-rasm. "Shaharlik qiz" shiori ostidagi obraz eskizi.

1. Model eskizining turish holatini tasvirlashdagi izoh.
2. Siluet va kiyim detallarini qomatda tasvirlash. Eskizni yaratish jarayonida yumshoq qalamdan foydalaning. So'ng soch turmag'i chiziladi. Kerakli detal va aksessuarlar xomaki tasviri beriladi. Qomatga kiyim tasvirlanish jarayonida ular biroz erkin siluetda tasvirlanishi lozim.
3. Xomaki tasvirlanishdan so'ng kiyim detallarining kontur chiziqlari uchli bo'lмаган flomaster yoki pero ruchkalaridan foydalanib chiziqlar aniqlashtiriladi.
4. Kontur chiziqlar chizilgandan so'ng marker ruchka yordamida eskizga rang beriladi. Akvarel bo'yog'i tabiiy ko'rinishni aks ettiradi, bundan foydalanish g'oyalarni yanada rivojlanishiga yordam beradi yoki bo'lmasa pastel mellarini qo'llanganda libos ko'rinishida jilosizlikka ega bo'ladi. Marker ruchkalari tana rangini ko'rsatishda maqbul yechimga ega. Marker ruchkalari yordamida chizilgan to'lqinsimon chiziqlar yubka etagining harakatlanuvchi holatini ko'rsatib beradi.

5. Mato fakturasi va printlarni tasvirlashda pastel mellari yoki yog'liq qalamlardan foydalaniladi. Yoqa va cho'ntak hajmni va 3 defektlarini ko'rsatishda soyalar to'qlashtiriladi. Tugmalarni chizishda

ularda yorug‘ va soyalarni ko‘rsatish uchun oq rangli pastel mellari zarur bo‘ladi.


5.3. “Vacation girl” shiori ostida o‘rta yoshdag‘i ayollar komplekti



67-rasm. “Ta’tildagi qiz” shiori ostidagi obraz eskizi.

1. Uslubga mos eskiz va qomatning turish holatini tanlang.
2. Qomatning barcha qismini qalamda chizing, proporsiyani tekshirib, har bir detalga e’tibor qarating.
3. Xomaki tasvirlanishdan so‘ng kiyim detallarining kontur chiziqlari uchli bo‘lgan flomaster yoki pero ruchkalaridan foydalanib chiziqlar aniqlashtiriladi.
4. Marker ruchkalar eskizda libosni, tana rangini va sochga rang berishda ishlatiladi. Libos hajmini ko‘rsatishda yorug‘ va soyaga e’tibor berilishi lozim.
5. Ustki kiyimda Jersiy matosini tasvirlashda ingichka chiziqlar chiziladi. Buning uchun yumshoq qalamlar zarur.


5.4. “Party girl” shiori ostida o‘rta yoshdagi ayollar komplekti



68-rasm. “Kechki bazmdagi qiz ” shiori ostidagi obraz eskizi.

1. Uslubga mos eskiz va qomatning turish holatini tanlang.
2. Qomatning barcha qismini qalamda chizing, proporsiyani tekshirib, har bir detalga e’tibor qarating.
3. Xomaki tasvirlanishdan so‘ng libos silueti kontur chiziqlari uchli bo‘lgan flomaster yoki pero ruchkalaridan foydalanib chiziqlar aniqlashtiriladi.
4. Marker ruchkalar eskizda libosni, tana rangini va sochga rang berishda ishlatiladi. Libos hajmini ko‘rsatishda yorug‘va soyaga e’tibor berilishi lozim.
5. Yumshoq mellar va qattiq uchli qalamlar yordamida to‘q soyalar bo‘riladi. Yuz pardozi uchun pastel mellaridan foydalanyladi.


5.5. “Urban guy” shiori ostida o‘rta yoshdagи erkaklar komplekti



69-rasm. “Shaharlik yigit” shiori ostidagi obraz eskizi.

1. Uslubga mos eskiz va qomatning turish holatini tanlang.
2. Qomatning barcha qismini qalamda chizing, proporsiyani tekshirib, har bir detalga e’tibor qarating.
3. Xomaki tasvirlanishdan so‘ng libos silueti kontur chiziqlari uchli bo‘lgan flamaster yoki pero ruchkalaridan foydalanib chiziqlar aniqlashtiriladi.
4. Jakardli sviter eskizini tasvirlashda chiziqlarni aniq ko‘rsatishda yorqin rangli qalamlardan foydalaniladi. Djinsi va sviter yoqasini tasvirlashda marker ruchkalari qulay.
5. Svirt qo‘srimcha elementlari va mayinligini tasvirlashda ingichka chiziqlar chizilganda, libosning sifati aniq tasvirlanmasligi lozim. Djinsi va sviterni yorug‘ va soyalarini ko‘rsatib berishda pastel mellari zarur. Djinsi matosini aniq tasvirlashda qo‘srimcha diagonal chiziqlarni berish kerak.

5.6. “Vacation guy” shiori ostida o‘rta yoshdagi erkaklar komplekti



70-rasm. “Ta’tildagi yigit” shiori ostidagi obraz eskizi.

1. Uslubga mos eskiz va qomatning turish holatini tanlang.
2. Qomatning barcha qismini qalamda chizing, proporsiyani tekshirib, har bir detalga e’tibor qarating.
3. Xomaki tasvirlanishdan so‘ng libos silueti kontur chiziqlari uchli bo‘lgan flomaster yoki pero ruchkalaridan foydalanib, chiziqlar aniqlashtiriladi.
4. Marker ruchkalar eskizda libosni, tana rangini va sochga rang berishda ishlataladi. Libos hajmini ko‘rsatishda yorug‘ va soyaga e’tibor berilishi lozim.
5. Yumshoq mellar va qattiq uchli qalamlar yordamida to‘q soyalar bo‘riladi. Yuz pardozi uchun pastel mellaridan foydalaniladi.

5.7. “Party guy” shiori ostida o‘rta yoshdagi erkaklar komplekti


1. Uslubga mos eskiz va qomatning turish holatini tanlang
2. Siluet va kiyim detallarini qomatda tasvirlash. Eskizni yaratish jarayonida yumshoq qalamdan foydalaning. So‘ng soch turmagi chiziladi. Kerakli detal va aksessuarlar xomaki tasviri

beriladi. Qomatga kiyim tasvirlanish jarayonida ular biroq erkin siluetda tasvirlanishi lozim.

3. Xomaki tasvirlanishdan so'ng libos silueti kontur chiziqlari uchli bo'lgan flomaster yoki pero ruchkalaridan foydalanib chiziqlar aniqlashtiriladi.

4. Rang berishda rangli markerdan foydalilanadi. Qora matoni tasvirlash biroz noqulaylik tug'diradi, biroq rangli markerlar ranglarni to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Eskizga rang berishda bir qismi bo'yalmasdan detal chiziqlar tasviri qoladi. Shimga rang berishda kulrang qo'shiladi.

5. Shimning katakli fakturasi yorqin uchli pastel qalamchalari yordamida tasvirlanadi. Marker ruchkalar eskizda libosni, tana rangini va sochga rang berishda ishlataladi. Korrektor orqali kapalak shaklidagi bo'yin bog'ning holdor tasvirini ko'rsatib berish uchun yordam beradi.



71-rasm. "Kechki bazmdagi yigit" shiori ostidagi obraz eskizi.

V bob uchun nazorat savollar:

1. Kiyim detallariga nimalar kiradi?
2. Cho'ntaklarni qaysi turlarini bilasiz?
3. Yoqa turlari haqida ma'lumot bering.

VI BOB. LOYIHALASHDA SHABLON ESKIZLARINI QO'LLASH VA CHIZISH

Modeler rassomning ijodiy jarayonini o'zaro bog'liqlik va o'zaro mutanosiblik kabi jihatlariga bo'lish mumkin: qabul qilish (hissiyot, his qilish), tasavvur (xotira, fikr yuritish, tanlash, baholash). Bular g'oyaning tasviriy tekislikda yaratilishi kabi ijodiy jarayonning barcha bosqichida shakl va mazmun uyg'unligini tashkil qiladi.

Inson obyektiv tasvirni ko'rish orqali qabul qiladi, lekin egallangan bilimlar natijasida aniq mavzu bo'yicha tasavvur qilgan qiyoфani tasvirlashda har tomonlama izlanadi. Miyaga ko'z orqali buyumning tasviri uzatiladi, miya esa o'z navbatida ko'z faoliyatini boshqaradi. Inson nafaqat ko'rayotgan narsasiga ishonadi, balki qaysidir ma'noda ishongan narsasini ko'radi. Atrofdagi buyumlar shakli inson ruhiyatiga ta'sir etib, ma'lum bir kayfiyatni paydo bo'lishiga olib keladi.

Hissiyot – alohida buyumlar xususiyatining bir aksidir, buyum aksini yaxlitlikda ko'rish esa qabul qilishdir, tushunish va fikrlash orttirilgan tajribalar asosi. Ko'rish orqali qabul qilish natijasida buyumning obrazi namoyon bo'ladi. Rassom buyumni xayolot va sezgi, tasviriy ifoda vositalari va tasvirlar yordamida qayta o'zgartiradi.

Nisbatlarni his qilishda shakldan tashqari, buyumning rangi, uning fakturasi, atrof bilan bog'liqligi, asosiysi buyumning mohiyati va undagi tasvirlar ham muhimdir. Libosni tasavvur qilish esa uning silueti asosiy o'rinni egallaydi. Libos inson va uning gavdasi bilan qabul qilinadi. Shunda gavda plastikasi bilan mato plastikasining o'zaro ta'siri seziladi.

Modeler rassomning idroki nihoyatda nozik, u hamma narsadan tasavvuriga xos jarangdor o'zinikini ko'ra oladi. Idrokning faolligi qiyoфani his qilishni, naturani har tomonlama o'rganib tahlil qilishni, asosiysini va shartlilikni ko'ra olishni nazarda tutadi.

Ijodiy jarayon tasavvurdan boshlanadi. Ko'rish – bu ijodiy ish, ma'lum kayfiyatni, kuchli hissiyot va fikr yuritishni talab etadi.

Tasvirlashni o'rganish qiyin, lekin undan ham murakkab jarayon bu ijodiy fikrlash, timsolni yaratish va uning kompozitsion yechimidir. Kompozitsiya bo'lmasa san'at yo'q. Har qanday nabroska, har qanday ijodiy ish o'yangan va kompozitsion qurilgan bo'lishi kerak.

Ifodalii badiiy obrazni yaratishda buyum yoki obyektni obraz orqali chuqur o'ylab chiqish yordam beradi. Modeler rassomning tasavvuri dastgoh rassomi tasavvuridan sezilarli farq qiladi. Model tasvirini chizishda ko'rish nuqtasi muhimdir. Hajmli-fazoviy libosli inson tuzilmali sistemasi shunga bog'liq. Tasvirning ifodaliligi ko'pincha ko'rish nuqtasi va shu bilan birga uni qaysi burchakdan tasavvur qilishga bo'g'liq.

Qo'yilma (postanovka)ni tasvirlayotganda bitta ko'rish nuqtasi saqlagan holda, qo'yilma haqida hamma narsani bilishi, har tomonlama o'rganishi va kuzatishi lozim. Xayolan bo'lajak kompozitsiya yechimini topish uchun qo'yilmani (modelni) har tomonlama kuzatish, model harakatidagi o'ziga xosliklarni hal etish lozim. Tasvir hali yo'q, lekin tasvirlovchi uni ko'radi. Bu esa chizmatasvirni qat'yan olib borishga yordam beradi. Ba keyingi ishlar ancha o'yangan va ta'sirchan chiqadi. Har qanday buyum yoki obyekt, uni idrok etilgan xarakterli ko'rish nuqtasiga ega. Insonga nisbatan bunday ko'rish nuqtasi uni oldidan ko'rinishidir.

Buyumning ko'rinishi tasvirlovchining joylashuv holatiga bog'liq. U yoki bu buyumlarni tamosha qilish mumkin bo'lgan, ishlab chiqilgan, ko'nikilgan holatlar mavjud, shu bilan birga buyumlar ifodalii ko'rinaligan ko'rish nuqtalari mavjud.

Ijodning asosiy tirkaklaridan biri bu – tasavvurdir. Tasavvur etish – tugallangan ishni his eta olish va ko'rish demakdir. Modeler rassom modelni materialda bajargunga qadar, qog'ozda g'oyani qat'iy ifoda etishi shart. Uning tasavvuri qanchalik boy bo'lsa, modelni qog'ozda tasvirlash orqali samarali va ta'sirchan loyihalashni davom ettira oladi. Shu yerda qiyin masala – tasavvur bilan tasvir o'rtasidagi moslikni topish vazifasi paydo bo'ladi. Naturani idrok etish tahlil qilish va ijodiy tasavvur ijodiy jarayondagi muhim onlar sanaladi. Tasavvur orqali yaratilgan natura taassuroti g'oya va obrazlar bilan qo'shilib ketadi. Bevosita hayotiy taassurot bilan badiiy umumlashtirish o'rtasida doimiy o'zaro ta'sir sodir bo'ladi.

5-bobda ko'rsatganidek, libos illyustratsiyalashtirishda eskizlarni ishlatish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, eskiz libosni loyihalashda muhum qiymatga ega bo'lib, ish jarayonini samarali va tez bo'lishiga yordam beradi. Buyurtmachini qomat tuzulishi va proporsiyalarini inobatga olgan holda eskizni moslashtirib, yanada mukamml darajada eskizni yaratish lozim. Qomat eskizlariga qo'shimcha ravishda dizaynerlarning foreskizlaridan ham foydalanishadi, ular libos yaratish jarayonida qomatga ko'ra libos detallarini alohida tasvirlaydi. Bir xil ko'rinishda ishlatilganda qomat eskiziga ko'ra foreskiz qog'oz ostida ishlatilishi mumkin, chizmalar aniq ravshida ko'rindi.

Ko'pgina for-eskizlar texnik rasm deb ham nomlanadi va asosan, pidjak qaytarmasi, bo'yin aylanasi burmalar va izma tasvirlashda alohida urg'u beradi. Mato turi va xususiyatini tasvirlashda kollaj va nusxalash orqali namoyon etiladi, eng muhim darajasi esa libosning umumiyo ko'rinishi illyustratsiyada bayon etadi. An'anaviy usullardan tashqari kompyuter dasturlaridan ham foydalilaniladi.

Grafik yechimdag'i quyidagi ketma-ketlik yaxshi natija beradi: naturadan chizmatasvir ishlash, eskizlar ustida ishlash, asosiy grafik ishlar (varroq) bajarish.

Natura bilan bevosita bog'liq ishlar natura qo'yilmasining grafik xarakteri yaxshi tushungan holda, eslab qolish qiyin bo'lgani uchun albatta qog'ozga aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Natura grafikasi juda qiyin jarayon va u ma'lum malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Qayta ishlangan va yangi qog'ozga ko'chirilgan bunday grafika ko'pincha effektli ko'rindi. Ba'zi hollarda grafik kompozitsiyalar natura qo'yilmalari bilan tog'ridan-to'g'ri bog'liq holda bajarilishi mumkin (eskiz va naturadan tasvirlar bajarilmasdan). Bu esa modelni sofligi saqlab qabul qiladi.

Naturadan chizmatasvir bajarish: Odam gavdasi qo'yilmasidan grafik yechimlar ustida olib boriladigan ishlar uchun chizmatasvir, chizish malakasini saqlash uchun, (grafik rassom natura ishslash jarayonida ko'zni o'rgatib, shaklni his qilishni mashq qilishi kerak) hamda ularni keyingi grafik ishlarda qo'llash maqsadida bajariladi. Tasvirlarning shakli tahvil qilingan, tugallangan va odam gavdasidagi shakl va plastika bog'liqligi ajralib turishi kerak. Muallifning keyingi grafik g'oyalariga bog'liq bo'lgan qo'yilma chizmatasvirda u yoki bu

shakllarni detallashtirish, uning badiiy darajasiga ta'sir qilishi kerak emas. Naturadan bajarilgan tasvirlar ko'rikka grafik ishlar bilan birga qo'yiladi.

Eskizlar ustida ishslash: Qo'yilmadagi grafik yechimlarning eng yaxshi variantini qidirish eskizlar ustida ishlaganda sodir bo'ladi. Aynan shu yerda grafika paydo bo'ladi va rassomning maksimal ijodiy qobiliyati ham aynan shu yerda namoyon bo'ladi. Grafikani shartliligi kompozitsiya tuzish ishlarida erkinlikka keng yo'l ochadi. Eskizlar ko'pincha natura qo'yilmasisiz chizmatasvirlar asosida bajariladi. Berilgan qo'yilmada asosiy e'tibor ifodalni vositalarni qidirishga va grafik yechim usullarini qo'llashga qaratiladi.

Eskizlar 1/8, 1/16 o'lchamida chizmachilik qog'oz varaqalariga bajariladi va imtihonda eskizlar seriyasi sifatida katta qog'ozlarga elimlangan holda qo'yiladi.


Grafik ish varaqalarini bajarish: Qo'yilmaning eng yaxshi yechim variantlari toza qog'ozga ko'chiriladi. Bu vaziyatda mualifning butun g'oyalarni ifodalovchi oq qorada bajarilgan detallariga ham ishlov berilgan grafik kompozitsiya toza asosiy qog'oz (grafik ish) sanaladi. Asosiy toza grafik ishlar xatolarsiz, kerak bo'lsa, pasportiga yelimlangan holda bajarilishi kerak. Eskizlarni toza asosiy ishga ko'chirish mexanik jarayon emas, balki ijodiy ishdir. Eskizlarni mulohazasiz toza asosiy ish o'lchamiga olib chiqish, kattalashtirish sxematizatsiyaga olib keladi. Asosiy toza ish bajarilishini eskiz asosida grafik asar yaratilishi deb atash mumkin.

Ish jarayonida eskizda o'yangan g'oyalarni o'zgartiradigan yangi fikrlar paydo bo'ladi, yangi imkoniyatlar ochiladi. Toza asosiy ish o'lchamlari bir chizma qog'izi o'lchami bilan barobar bo'lishi ham mumkin.


6.1. Ishchi va foreskizlar

Foreskizlar bu model qomatida tasvirlanmaydigan eskizlar bo'lib unda libos elementlari to'liq tasvirlanadi. Bu kabi eskizlar asosan bichim ko'rinishiga ega. Ishchi eskizlar 1980-1970-yillari urf bo'lgan bichimlar singari eskiz namunalari to'g'ri siluetlarni tashkil etadi. Bu texnik rasmga yaqin ammo erkintarzda bajariladi. Ommaviy extiyojga ko'ra taylor buyumlarni ishlab chiqarish "fastfashion" deb yuritiladi.

Eskizni qomatda tasvirlash bilan bir qatorda foreskizlarni chizish ham foyda beradi. Bu eskiz shablonlari bir qator model liboslarini loyihalashda ishlataladi. Agarda foreskizlar farqli bo'lsa, o'lcham o'zgarishi kuzatiladi. Biroq, qoralama eskizlarni qomatga chizish yoki chizmaslik dizaynerning ihtiiyoridir.



72-rasm. Erkaklar foreskizi.



73-rasm. Noel Chapmen kichik qoralama model eskizi.

Hillary Kid

Buyurtmachi uchum eskiz shabloni.

Judit Chik

Yaxshi ishatilgan universal shablon.


6.2. Foreskizlar uchun namunalar yaratish.

- Foreskizlar uchun namunalar yaratishda birinchi navbatda oddiy qalamdan foydalanadi. Qomat tasviri soddalashtirilganda eskiz shablonini oxirigi nuqtasiga ham e'tibor qaratish lozim. Yaratilayotgan libos dizayniga bo'lgan ehtiyoj asosisiy bo'lib, yoshlar


liboslariga bo‘lgan talablar turlichadir. Foreskizlar odatda bo‘rtirilgan tasvirga ega emas, ayniqsa, texnik rasmlarda ko‘rish mumkin.

- Ish yakunida qomat shabloni yaratilib, so‘ng ishlov berish bosqichi amalga oshiriladi.

- Ishlab chiqilgan for eskiz shablonidagi yordamchi chiziqlar o‘chirilib asosiy kontur chiziqlar to‘qlashtiriladi.



74-rasm. Eskiz shabloni: ayol



75-rasm. Eskiz shabloni: erkak

Foreskizlar uchun namunalar: Turli xil rangli va turli uchdagi ruchkalarni foreskiz, ishchi eskiz va texnik eskizlar yaratishda ishlataladi. Ingichka uchli ruchkalar tashqi kontur chiziqlarni, ko‘rinib turuvchi orqa qismini tasvirlashda ishlatalib, bezak choklari va izmalar flamaster yordamida ko‘rsatiladi. Pero ishchi eskizlarga burmasimon chiziqlar yordamida hajm berishda qo‘llaniladi. Ammo boshlang‘ich vazifa sifatida diqqat va e’tibor talab etiladi.



76-rasm. Ayollar plashi

Eskiz: 0.8mm flomaster

Chok chizig'i: 0.3 mm flomaster

Cho'ntak va yoqa: 0.5mm flomaster


Bezak choklari: 0.05mm flomaster

Erkaklar kostyumi

Eskiz: 0.8mm flomaster

Chok chizig'i va cho'ntak: 0.5mm va 0.3 mm flomaster

Bezak choklari: 0.05mm flomaster



77-rasm. Erkaklar trikotaj ko'ylagi.

Eskiz: 0.8mm flomaster

Chok va bo'yin o'mizi chizig'i: 0.5mm flomaster





Logo/ Raqami: 0.3mm flomaster


Bezak choklari: 0.05mm flomaster

6.3. Texnik rasm yaratish

Texnik rasmni yaratishning asosiy maqsadi kiyimning har bir elementini chizib ko'rsatishdir. Texnik eskiz o'zida barcha zarur o'lchamlarni mujassam etgan, yassi, aniq rasm hisoblanadi. Qo'shimcha tushuntirishga talab etiladigan, o'ziga xos qiyin detallar chizmada katta hajmda chiziladi (xlyastik, cho'ntak, yoqalar va h.k.).

Texnik rasm illyustratsiyaning eng muhim turlaridan biri, u buyumni vizual ko'rsatish uchun model ishlab chiqish jarayonida qo'llaniladi. U siluet, proporsiya, konstruktiv echimni va detallarni aniq ko'rsatadi va yagona ma'noga ega bo'lgan tartibli chizilgan aniq chiziqlarni ifodalaydi. Texnik rasmlar – bu dizayner bilan ishlab chiqaruvchi o'rtaсидagi vizual muloqat shaklidir. Ular liboslar to'plamini dizaynnini ishlab chiqishda, ishlab chiqarishda (modelning texnik tavsifi) va marketingda (katalog va narx ko'rsatkichlarda) butun tikuv sanoatida keng qo'llaniladi. Texnik rasm modelni qomatisiz kiyimning tekislikdagi tasviri bo'lib, unda bo'linish chiziqlari, dekorativ choklar, plankalar va boshqa detallar ko'rsatilgan holda konstruksiyaga urg'u beriladi. U aniq va sxematik tavsifga ega bo'lishi, shuningdek, qo'lda yoki grafik muharrir yordamida tayyorlanishi mumkin.







78-rasm. Ayol va erkak liboslaringin texnik rasmlari.

Erkarlar ko'ylagi yoqasi va manjet qaytarmasini detallari hamda uslublarini ko'rsatish: Erkaklar ko'ylagi va ayollar bluzkasi yoqa turlari turlichadir. Moda trendlaridan asosida, o'xshash modellar tahlili natijasida hosil bo'lgan yoqa turlari klassik uslubi deb nom olgan. Biroq, bularning barchasi ikki yoqa namunasi asos bo'lgan. Yoqa turlari ikkiga bo'linadi: qaytarma yoqa va ko'tarmali qaytarma yoqa.

Tik yoqlar, jabolar, valon yoqlar alohida qadalgan bo'lib, bunday yoqa turlari yuvish oson kechgan. Bu kabi yoqa turlari o'ta chidamli hisoblangan. Mao va Tuhkg yoqlari bichilishi va uslubi tomonidan o'hshashdir.



79-rasm. Erkaklar ko'ylagi yoqa turlari. O'rtalichamdag'i yoqa, erkaklar ko'ylagi yoqasi uchlari old qismiga qadalgan, dumaloq yoqa, flang yoqa, tik yoqa, polo





80-rasm. Erkaklar pidjaki yoqa turlari.

A- oddiy qaytarma yoqa

B- latskan uchi uchli yoki


C- Shal yoqa

D- Ikki bo'lakli yoki qoplamlami ikkibordli ko'krak qismi qoplangan.
(bu uslub militariy uslubi ilhomlanib epilot ham deb ham yuritiladi).
Uslub va detallar ko'rinishi-ayollar liboslarida yoqa turlari, burmalar va yubkalar.




81-rasm. Ayollar liboslardagi yoqa turlari, burmalar va yubkalar.

Uslub va detallar ko‘rinishi - cho‘ntaklar:




82-rasm. Cho‘ntak detallarini texnik eskizi.

Uslub va detallar ko‘rinishi – bezak choklar va detallar: Bu yerdagи qator namunalar va turli xildagi bezak choklari kuzatiladi, lekin yangi va turli xildagi bo‘lgan bezak turlari ham mavjuddir. Tajriba o‘tkazish va g‘oyani yakunlashda o‘z stenografik usullar orqali turli xil hajmli bezaklarni hosil qilish mumkin.



83-rasm. Kiyim bezak choklari va detallari.

Trikotaj kiyim detallari: Trikotaj kiyim turlarini chizishda o‘ziga xos xususiyatining muammoli holatiga va ahamiyatga ega; tasvirlashda nafaqat kiyim detallari va uslubini, balki uning strukturasi va faktura uzalarini ko‘rsatib berish muhimdir. Bundan tashqari qisman trikotaj to‘qilishi haqida ma’lumotga ega bolish chizish imkoniyatini hosil qiladi. Kiyim tasnifi aniq tasvirlanganda jakard matolarni eslatuvchi ana shunday o‘ziga xos qirralarini tasniflaydi va g‘oyani mukammal ko‘rsatadi.



84-rasm. Trikotaj kiyimlarini texnik eskizlari

Foreskiz va ishchi eskizlarda matolarni chizish: For eskezizlarda matolarni chizish asosan, agarda ishlab chiqarish maqsadida bo'lganda, hech qandan detallar va boshqa turdag'i matolar birikmasidan iborat bo'lmagan oddiy kontur chizig'idan tashkil topadi. Lekin foreskizlar ko'proq illyustratsion yoki loyihalash uchun bo'lsa, ijodkor illyustratsion matolardan foydalanadi. For eskezida tasvirlashda qo'llaniladigan uslubga ehtiyojkorlik bilan yondashishni talab etadi, tajribalarda ko'rsatilganidek, tasvir bir munkha kattaroq va aniq bo'lmasiligi, tekislikdagi tasvir hajmini ko'rsatishda ranglar berilishi

talab etiladi. Har bir ishda illyustratsiyani to‘g‘ri bajarishda tajriba talab qiladi.

Matolarning tasvirlashda xilma xil usullari:

- Asosiy mato bo‘lagi va eskizini kiriting.
- Kenglikni ko‘rsatishda “Fokus aylanasini” chizing.
- Chegaralangan mato tasvirini chizishda oq rangni yoki orqa fonni yopish lozim.



85-rasm. Erkaklar plashi

Eskiz: siyohli ruchka

Chok chizig‘I va cho‘ntak: 0.5 mm flomaster

Bezak choklari: 0.1mm flomaster

Astari: mo‘mli qalam

Rang: marker ruchka va mo‘mli qalam



86-rasm. Erkaklar brizent matoli kurtkasi.


Eskiz: 7B qalam

Chok chizig'i va cho'ntak: HB qalam

Bezak choklari: HB qalam

Mato (brizent): rang moyli qalamda berilgan (maydalangan tosh fakturasi berilgan) oq rangli pastvor yoki terpentin bilan aralashmasi qo'llanilgan.

Astari: moyli qalamva mo'm qalamda chizilgan



87-rasm. Ayollar fakturali trikotaj kardigani

Eskiz: siyohli ruchka

To‘qilishi: 0.3mm flomaster

To‘qilishi: 0.1mm flomaster va mo‘mli qalamda to‘qilish fakturasi shtrix bilan chizilgan.

Rang: markerli ruchka

Ko‘ylak

Eskiz: siyohli ruchka

Burmalar: 0.3 mm flomaster

Mato fakturasi va shtrixlar: 0.05mm flomaster

Taxlamali yubka

Eskiz: siyohli ruchka

Shtrix: 7B qalam



88-rasm. Erkaklar qavilga kurtkasi.

Eskiz: siyohli ruchka

Chok chizig'i va cho'ntaklar: 0.8mm va 0.5mm flomaster

Mato tasnifi: 8B

6.4. Kompyuterda loyihalashtirish

Ijodiy ishingiz chiroyli chiqishi uchun quyidagi detallarni tasvirlash zarur: Bir chocli mashinada tikilgan choclar taqilmalar, sanaotning jinsi va sport kiyimlari bo'limi shu kabilarni o'z ichiga oladi. Ayrim dizaynerlar kompyuterda loyihalashni zarur bo'limgan yoki yetarlicha qoniqtirmaydigan ish usuli deb hisoblab, qolda tasvirlashni afzal ko'rishadi. Illyustrator Martina Ferru qo'l mehnati bilan eskizlar yaratishda muvaffaqiyat qozongan va kompyuterda illyustratsiya malakasi bo'yicha mahoratlari mutaxassis hisoblanadi, u ommobop dasturlardan tashqari murakkab dasturlar bilan ham ishlay oladi. Martinaning ko'pgina ijodiy ishlari sof illyustratsiya bo'lsa ham, uning tasvirlash va illyustratsiyalash jarayonini kompyuterda o'rganish haqidagi maslahatlari for eskizlarni chizayotganda qo'l keladi. Quyida uning bir qancha fikrlari berilgan:

Appel Macda tasvirlash uchun Adobe Illustrator CS dan foydalanib, avval panellar instrumentidagi har bir buyruqni o'rganish lozim, so'ng ularni me'yyor darajasida qanday ishlata olishingizni bilsa boladi.


Ish boshlanishida illyustratsiya o'lchami aniqlanadi. Yangi hujjat sahifasini ochib o'lchami masshtabi tanlanadi. "Custom"ni tanlab ijod namunalaringizning o'lchamini kiritishingiz mumkin. Buyurtmali ishlar uchun faylining ohigi olchamini bilish zarur, katta hajmdagi ijodiy ishlar katta o'lchamda boladi, bu esa uni saqlash va pochtadan jo'natishga kattalik qilishi mumkin. Bu birgina illustratsiyadan boshqasiga ishlatilmadi.

Keyingi bosqich agar yo'nalish sifatida rasmi faylingizdan foydalanmoqchi bo'lsangiz uni yangi hujjatga ko'chirib o'lchamini o'zgartirasiz. So'ng tasvir yopiladi, eskiz qo'lida qalam yordamida chiziladi. Buning aksi sifatida chizish dasturidan ham foydalanishingiz mumkin. Wacom dasturi va pero ish quroli sichqonchaga nisbatan foydalanishga qulay bo'lgani bilan uning qiymati yuqoriroq bo'ladi, lekin Auto CAD dasturidagi kop ishlar uchun keraklidur. Chiziqni tasvirlash bajarilgandan so'ng yordamchi tasvirni o'chiring. Chiziqlar bir-biriga moslashtirilib koordinatsion to'g'irlanadi, kerakli yoysimon shakl hosil boladi, bunda instrumentlar panelidan foydalaniлади.

Agar yakuniy nuqta bir chiziqli ishdan iborat bo'lsa, chiziq qalnligi va fakturasini turli usullarda belgilash mumkin. Qatorlar panelida va b'yoqlar uskunasi yordamida tajriba otkazib koring. Bo'r yumshoq qalam postel siyoh akvarel va sepuchi qurilma yordamida ajoyib qalnlikdagi chiziqlar va effekt hosil qilishi mumkin.

Ranglar panelida har bir rangni tabiiy ko'rinishda olishimiz mumkin. Qatorlar va rang berish panelida ranglarni umumlashtirilgan holda ishlatish mumkin. Rang berish paneli faqatgina konturning tiniq ranglarini olib, yorqin ko'rinishga keltirib beradi. Panton menyusi talab etilsa namuna panelidan mos ranglar tanlab olinadi.


Quyida Linnet Kukning dastur asosida yaratgan eskiz namunalari berilgan.



89-rasm. Linnet Kukning dastur asosida yaratgan eskiz namunalari

6.5. Kompyuter dasturlaridan foydalanib texnik maxsus for eskizlani yaratish

Bu tasvirlar loyihani ishlab chiqarishga bog'lash maqsadida yaratilgan. Dizayn namunalarini tushunarli bo'lishi uchun olchov jihatdan farqlanmaydi. Shunisi ma'lumki, dizayner fikrlarini aniq tog'ri ko'rsatish uchun loyihaning kerakli konstruktiv usullarini to'g'ri tanlashi lozim.





90-rasm. Kompyuterlardan foydalaniб yaratilgan foreshizlar.

Mariella Erti

ONLY Kuz/Qish 2012/13 mavsumi uchun
Illyustratorda chizilgan

6.6. Qomat holati va foreskizlarini kompozitsiyada ko'rsatish

Detallar kombinatsiyasini tayyor eskiz shablonida chizib, ustki kiyim yaratishingiz mumkin. Rang berish va matoni tasvirlash yaratilgan kiyimga yaqqol korinish beradi. Aniqlik uchun, ular individual foreskizning detali ko'rinishida keltiriladi.



91-rasm. Qomat ko'rinishini foreskizlarda kompozitsion joylashuvi.

6.7. Ko‘rgazmali ishchi eskizlar

Ushbu ishlov berilgan kiyim yuqoridagi eskiz namunasiga asoslangan va yumshoq qalamda ishchi eskiz usulida chizilgan. Bu uslubni jurnallarda ko‘p marotaba ko‘rish mumkin bo‘lgan uslublar-dan biridir.



92-rasm. Ishchi eskizlarni kompozitsion joylashuvi.

VI bob uchun nazorat savollar:

1. Loyihalash jarayonida for eskizlarni o‘rnii.
2. Texnik eskizlarga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Trikotaj polotnosining o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
4. Kiyimlarni badiiy loyihalash jarayonlarida kompyuter dasturlarining qanday turlaridan foydalanish mumkin?

VII BOB. AKSESSUARLARNI TASVIRLASH

7.1. Bosh kiyimlar, poyafzallar va libosni to‘ldiruvchi vositalarni tasvirlash

Mashhur rassomlarning ko‘pchiligi o‘zlarining asarlarida bosh va oyoq kiyimlarni, turli aksessuarlarni ajoyib va aniq qilib tasvirlashgan. Bu borada V. Titsian, P. Rubens, G. Golbeyn, A. Dyurer, F. Bushe, A. Vatto, T. Geynsboro, P. Longi, J.O.D. Engr, A. Matisslarning bosh kiyimli ayol va erkaklar portretlarini eslash joizdir.



93-rasm.

T. Geynsboro.
“Gertsog xonim de
Bofor” portreti.

94-rasm. Piter Paul

Rubens rafiqasi
Izabella bilan.

95-rasm. Diego

Velaskes.
“Inokentiy X”
portreti.

Shu bilan birga rus tasviriy san’atidan ham bu borada ko‘plab misollar keltirish mumkin. Surikov ijodidagi yuzlab nabroska va etyudlar syujetlarida ham qalpoq kiygan, ro‘mol o‘ragan, kokoshnik (rus bosh kiyimi) kiygan bosh portretlarini ishlagan. U atayin bosh kiyimlarni kiyishni va ayollar ro‘molini o‘ralishini o‘rgangan. K.P.Bryullov, I.Repin ijodida ham aksessuarlar bilan tasvirlangan portretlarni ko‘rish mumkin.



96-rasm. Fransua Bushe. "Berjer xonim" portreti.



97-rasm. P'etro Longi. "O'ziga oro berayotgan xonim".



98-rasm. K.P.Bryullov. "Grfinya Yu. P. Samoylova o'gay qizi J.Pachini va arab bolasi bilan" portreti. 1832-1834.



99-rasm. Repin. "Quyoshda"

Shu bilan birga buyuk o'zbek rassomlarining ijodida ham bosh kiyim, oyoq kiyim va libosni to'ldiruvchi aksessuarlarni ko'rishimiz mumkin.



100-rasm. Chingiz Axmarov.
a) peshonaband taqqan qiz;
b) meva ko'targan qiz.



101-rasm. R. Axmedov. «Surxondaryolik ayol», 1962.

Buyuk rassomlarning ijodi bosh kiyim, oyoq kiyim va libosni to‘ldiruvchi aksessuarlarni loyihalaydigan modeler-rassomlar va rassomlar uchun katta maktab bo‘lib xizmat qiladi. Biroq an’analarni ijodiy o‘zlashtirish – bu ularning rivojidir, taqlid qilish yoki ko‘chirish emas. Libos va uni to‘ldiruvchi detallar, bosh kiyim, oyoq kiyimlar tasvirida ham o‘sha tasviriy vositalar ishlataligani uchun ular orasida o‘xshashlik mavjud. Akademik chizmatasvir kursida libosni to‘ldiruvchi vositalar, bosh kiyim, oyoq kiyimlarni tasvirlash natijasida, nisbatlarni aniqlash, ko‘z bilan o‘lchash, yaxlit ko‘rish, asosiy va ikkilamchilarni aniqlash kabi hissiyotlar rivojlanadi. Buyumlar shaklini va qurilishini (konstruksiya) o‘rganish, plastik ishonarli bo‘lishiga olib keladi. Dastlab bosh kiyim, oyoq kiyim va boshqa libosni to‘ldiruvchi vositalar tasviri tezkor qalamchizgilar, ba’zan esa nabroskalar xarakterida bo‘lishi mumkin. Ularni tez va ifodali tasvirlash lozim. Muhibi ular “qotib qolgan” sxemali ko‘rinmasligi kerak. Chizmatasvir umumiyligidan xususiylikka, asosiy katta bo‘laklar va hajmlardan, mayda bo‘laklar sari bajariladi. Qurilishini o‘ziga xosligini bera olish va birlikka erishishga harakat qilish kerak. Buyumlarni fazoviy- perspektiv tasvirini to‘g‘ri ishslash ham muhim. Barcha shakl nuqtalarini fazoviy his qilingan bo‘lishi

kerak, bu esa tasvirlovchi oldida fazoviy fikrlash kabi keng imkoniyatlarni ochilishiga olib keladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, bu – nafaqat buyumlar to‘plamining umumiyligi konfiguratsiyasi (tashqi ko‘rinish, shakl) balki, har bir buyumni alohida shakli ham asosiyidir. Aniq bosh kiyim, botinka va sumkalarni o‘ziga xosligini belgilash va topish tasvirlash jarayonida yuz beradi.

Bosh kiyimlarni boshga kiygizilgan holda tasvirlash jarayonida, bosh kiyimni boshga yopishib turgan chizig‘ini aniqlash lozim, bu esa bosh kiyimlarni moda yo‘nalishini aniqlaydi. So‘ngra bosh shakli bilan bosh kiyimning umumiyligi shakli orasidagi bog‘liqlikni aniqlash kerak. Keyin detallashtirish jarayoni boshlanadi. Qoidasi bo‘yicha, bosh kiyim yuz tuzilishi, soch turmagi xarakteri, yoqa shakli va boshqalar bilan uzviy bog‘liq.

Libosni to‘ldiruvchi vositalarni tasvirlashda kostyum yaratgan obrazga mos keladigan akkompanement detalini aks ettirish vazifasi tug‘iladi. Bu vazifa detallarga va ularning aniq shakllariga katta e’tibor qaratishni o‘z ichiga oladi. Agarda libos eskizida bosh kiyim yoki oyoq kiyim umumiyligi xarakterni beruvchi qandaydir shartli belgililar sifatida berilgan bo‘lsa, endilikda ularni barcha batafsilliklari va afzalliklari bilan “katta planda” bajarish shart. Bosh kiyimi, oyoq kiyimi va liboslarni to‘ldiruvchi vositalar tasvirlashning bu uslubi kompozitsion usullarni qo‘llashda ham o‘z izini qoldiradi.

Bosh kiyimlari, oyoq kiyimlari va libosni to‘ldiruvchi vositalar tasvirlashda kompozitsiyaning uchta asosiy turi bo‘lishi mumkin.

1. Yuzaga joylashtirilgan plastik o‘zaro bog‘liq bir masshtabli buyumlar tasviri. Oyoq kiyim, bosh kiyim va libosni to‘ldiruvchi vositalar natyurmort ko‘rinishidagi joylashuvi.

2. Bir yoki ikki-uch yetakchi siluetli shakllarni ajratish. Ular masshtab, tasvirlash usuli orqali ajratiladi. Masalan, bir necha oyoq kiyimlar chiziqlar, yetakchi shakl esa tus va chiziq yoki biror- bir boshqa usulda yechimini topib tasvirlangan.

3. Bosh kiyim, oyoq kiyim va libosni to‘ldiruvchi vositalarni libosli figura libosining shakli tendensiyalari (g‘oyalari) bilan bog‘liqligini ifodalaydi. Bunda figura umumiyligi, shartli, siluetli qilib, oyoq kiyim, bosh kiyim va to‘ldiruvchi vositalar esa - aniq, yaxlitlashtirilgan, kattalashtirilgan va faollashtirilga holda beriladi. Libosni to‘ldiruvchi vositalar bilan bog‘liq barcha ishlari uchun bu

kompozitsion yechimlar umumiy hisoblanadi. Barcha alohida vaziyatlar uchun tasvir ilgari surayotgan funksiyaga bog'liq holda, kompozitsion yechimlar turli manfaatli birikmalar bilan ishlatalishi mumkin.

Tezda ko'zga tashlanadigan qobiliyati, boshqa takliflar oldida raqobatbardosh bo'lishi - bu bosh kiyim, oyoq kiyim va to'ldiruvchi vositalarni targ'iboti bilan shug'ullanuvchi reklama plakatlarining o'ziga hosligi. Zukkolik, hech kimga o'xshamaslik, esda qoluvchi - bunday turdag'i grafik tasvirlarning xarakterli o'ziga hosliklari. Reklama plakatlarining grafik tili har qanday bo'lishi mumkin. Bu yerda foreskizlar juda ham shartli bo'lishi va katta ro'l o'ynashi mumkin. Bunda foreskizlar turkumi talab etiladi. So'ng eskizlar va nihoyat tugallangan grafik sahifa- jurnallardagi ichki sahifalar, bukletlar, afishalar, plakatlar.

Barcha ijodiy jarayon singari, yangi mahsulot loyihasi – hamisha izlanishda. Rassomlarning modellashtirilayotgan oyoq kiyim, charm va charm o'rmini bosuvchi mahsulotlar, bosh kiyimlar kabi amaliy ishlarida eskiz keng tarqalgan grafik tasvir hisoblanadi. Eskiz ishslashda tush, qalam, flomaster, sharikli ruchka, mo'yqalam va akvareldan foydalaniladi.

Bugungi kunda libos aksessuarlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Moda sanoatida hozirgi kunda aksessuarlarning turlari kop bo'lib, ularning dizayn ko'rinishlari, tasvirlash va illyustratsiyalash jarayonlani o'sib bormoqda.

Aksessuarlarni chizish avvalgi o'rganilgan malakalarni o'zida jamlashi mumkin. Ularning tabiatiga ko'ra hajmi kichkina va mayda detallardan iborat bo'lishi mumkin. Mukammal grafik tasvirlash usuli – Model qomatida dizayn tasvirlash bilan foreskizlarni yaratish jarayoni ortasidagi bog'liqlik bo'lib, u ko'pincha muvaffaqiyatga olib keladi. Biroz tajriba va sinov ijodkor uchun eng yahshi ish vositasi va loyihaning muhim yo'llanmasini topishga yordam beradi.

Libos detallarni hosil qiladigan tekis shakllar kerakli ko'rinishga ega bo'ladi. Lekin poyabzallarda bu jarayon boshqacharoq kechadi. Poyabzallar uchun mo'ljallangan aksessuarlarni yaqqol tahlil qilish va tajribada sinab ko'rish zarur bo'ladi. Aksessuarlarni tasvirlashda turli xil metal va elementlarga duch kelishingiz mumkin. Charm va zamsh kabi turli matolarning sifat va ko'rinishi haqida ma'lumotga

ega bo'lish zarur metallik va boshqa taqilmalar ham poyabzal bezagining ajralmas qismi hisoblanadi.

Dizaynda nazarda tutiladigan yana bir qancha muhim o'zgarmas vositalar mavjud: Portmone, hamyon, futlyar yoki sumka obraz ko'rinishini to'laligini ta'minlab beradi, ijodkor buni e'tibordan chetda qoldirmasligi shart. Agar ijodkor o'z uslubida tasvirlashni istasa, bu manba shu vaqtgacha foydalanilmagan bo'lsa, tasvirlash jarayoni buning yechimi bo'ladi. Tasvirlash va eskiz detallarini to'ldirish natijasida ajoyib ish yaratadi.






102-rasm. Bosh kiyim aksesuarlarini tasvirlash


Model qomatini tasvirlash: Model qomatini tasvirlash eskiz namunasini yaratishga yordam beradi. Bu ishni bajarayotganda bir qancha savollarga javob topish lozim bo‘ladi, ayniqsa, mahsulotni model qomatida yoki o‘zgacha ko‘rinishda ko‘rsatish mumkin. Ushbu jarayon poyabzallarning o‘zgacha ko‘rinishdagi illyustratsiyasida ma’qul keladi, aynan to‘g‘ri yoki tasmali poyafzallar oyoqdagi ayrim kamchilik va nuqsonlarini ko‘rsatmaslikka yordam beradi.

Rasmda ko‘rsatilgan eskiz namunalarini jamlash foydadan holi bo‘lmaydi, bunday jamlanma tasvirlar oyoqning turish holatini tez va aniq tasvirlashni ta’minlab beradi. Tekislikdagi oyoqning turish holati va poshnali poyabzallar etiklarni tasvirlashda oyoqlarning bir tomonlama holati tasvirlanadi. To‘gri proporsiyali bosh qismning eskizlari jamlanmasiga ega bo‘lish bosh qismini turli tomonlama gavda va qo‘l harakatlanishida ham aniq tasvirlashga yordam beradi. Model qomatning aksessuarlar bilan tasvirlash uning o‘lchamini aniq olishda yaxshi usullardan biri hisoblanadi. Masalan, sharf yoki kichik dastro‘mol, ro‘mol. Bunday aksessuarlarni model qomatida ko‘rsatilganda o‘lcham va g‘oya aniq namoyon bo‘ladi.

Aksessuarlarni tasvirlayotganda mashtab ketma-ketligida ayrim muammolarga duch kelishingiz mumkin. Sumka yoki hamyonni tuzilishi kabi. Ayrim журнallarda chop etilgan rasmlarda predmetlar standart o‘lchamda tayyorlanadi. Masalan, sumka yonida ayollar lab boyogi yoki atir idishi ko‘rsatiladi. Bunday usul mahsulot mashtabini to‘g‘ri tasavvur etishga yordam beradi.




103-rasm. Sumkalarni model qomatida tasvirlash.



104-rasm. Bosh va oyoq kiyimlarni model qomatida tasvirlash.

7.2. Ayollar poyabzallarini tasvirlash

Ushbu namunalar bir qator vositalardan foydalaniб, poyabzalni tasvirlash haqida ma'lumot beradi; bunday yordamchi vositalarga markerli ruchka, qalam, moyqalam, yumshoq pastellar va boshqalar kiradi. Rasmni nusxalash kabi oddiy usuldan ham foydalilaniladi. Jadval asosida ma'lum vaqt ni rejalashtirib, yangi texnik usullar va yordamchi vositalarni tajribada sinab ko'rish mumkin.






105-rasm. Ayollar oyoq kiyimlarini turli xildagi texnikalarda tasvirlash.

7.3. Erkaklar poyabzallarini tasvirlash

Erkaklar poyabzalini tasvirlash texnikasi ayollar poyabzalini tasvirlash texnikasi bilan o'xshash bo'ladi. Ikkala turdag'i poyabzallar bir sahifada tasvirlaganda, erkaklar oyoq kiyimi biroz kattaroq o'lchamda chiziladi. Bu usul tabiiy holatdag'i o'lchamni ko'rsatib turadi.





106-rasm. Erkaklar oyoq kiyimlarini turli xildagi texnikalarda tasvirlash.

7.4. Ayollar sumkasini tasvirlash

Ayollar sumkasini tasvirlashdagi kichik bir muammo eskiz namunasining asl ko‘rinishidagidek tabiiy chiqmasligidir. Muammoni bartaraf etishning samarali yo‘li eskiz shaklini oddiy qalamda aks ettirishdan boshlash bo‘ladi. Eskiz detallarini chizayotganda, avvalo, boshlang‘ich proporsiya va elementlarni ajratish kerak, so‘ng tasvirni boyitish uchun kichik elementlar qo‘shiladi.





107-rasm. Ayollar sumkasini tasvirlash bosqichlari.

7.5. Erkaklar sumkasini tasvirlash

Erkaklar sumkasini tasvirlash jarayoni yuqorida aytib o‘tilgani-dek, ayollar sumkasini tasvirlash jarayoniga o‘xshash bo‘lib, ijodkor o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda fikr va g‘oyalarini ishga solishi mumkin.



108-rasm. Erkaklar sumkasini tasvirlash bosqichlari.

7.6. Ayollar libosi aksessuarlarini tasniflash

Rasmdagi aksessuarlar jamlanmasini boshqa biror jurnallarning sahifalarida uchratish mumkin, masalan, “How to do the latest look” (So‘nggi ko‘rinishga ishlov berish), “Key must-have pieces” (Kalitning zarur qismlari), “Seasonal gifts” (Mavsumiy sovg‘alar) jurnallari. Rasmdagi aksessuarlar eskizida bir qator tasvirlash usullari ishlatalig‘an bo‘lib, alohida libos elementlari maromiga yetkazilib ishlov berilgan.





109- rasm. Ayollar aksessuarlarini tasvirlash.

7.7. Erkaklar libosi aksessuarlarini tasniflash

Erkaklar libosi aksessuarlarini tasniflash jarayoni yuqorida aytib o'tilganidek, ayollar libosi aksessuarlarini tasniflash jarayoniga o'xhash bo'lib, ijodkor o'z tajribasidan kelib chiqqan holda fikr va g'oyalarini ishga solishi mumkin.



110-rasm. Erkaklar aksessuarlarini tasvirlash.

VII bobga oid nazorat savollar:

1. Qanday aksessuar turlarini bilasiz ?
2. Klassik uslubda qanday aksessuarlar qo'llaniladi ?
3. Libos mo'ljaliga qarab aksessuar qanday tanlanadi?
4. Qaysi dizaynerlar aksessuar yaratishda kreativ g'oyaga yondashadi?

VIII BOB. MODA ILLYUSTRATSIYASI GALEREYASI

Biz bu bobni kichik bir loyihani ko'rsatishdan boshlamoq-chimiz. Unda bir libos detalini chizishda turli usul va chizish texnikasidan foydalanilgan. Ushbu bobda xalqaro illyustrator, dizaynerlar qobiliyatli ijodkorlar tomonidan nufuzli buyurtmachilar uchun yaratilgan ijod namunalari ham berilgan. Boshqa tasvirlar ommaga kamdan-kam namoyon etilgan. Dizayner va rassomlarning ijodlarini kuzatishda ko'pgina shoshib ishlangan chizgilar ularning ijodiy jarayonini tezlashishiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari yaratilgan eskizlar o'zida to'liq ma'lumotlarni mujassamlantirilgan holat bo'lib, bu dizayn va ishlab chiqishdagi muvozanatni belgilaydi. Uslub erkinligi eskizda yuqori darajada ishlanganligini ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda moda bu trend siklining o'zgaruvchanligi, uslubning qaytishi, qayta ishlov berish, yangilash va rivojlantirish bo'lib, eskizlarda ham o'zgarish jarayoni kuzatiladi va tarixiy san'at namunalari zamonaviy asarlarning birga kelishi yuqoridagi jarayonni shakllantiradi. Ba'zi tasvirlar samaradorligi bilan boyitilganda boshqalari jonli va mahoratlari ko'rinishni o'zida ifodalaydi. Ayrim illyustratsiya namunalari kishini o'zga olamga yetaklaydi va uni o'z ichiga qamrab olishi, unda moda, liboslar va aksessuarlar asosiy qahramonga aylanadi. Boshqa tarafdan realizm va aniq tasavvur yetakchi bo'lib, ranglar yorqinligi kuchayib grafik usul sustlashadi. Ijodiy ish mavzulari keng yoritilganda uning darajasi tenglashadi.

Kitobni o'rganish jarayonida eskizni mukammal darajada tasvirlashning ayrim qoida va talablari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Yakuniy natijaga Sketchbookda barcha g'oyalarni umumlashtirib, tasvirlash orqali, dizayn loyihasini ishlab chiqish, libos modelini tahlil qilish, texnik chizmalarni g'oyaga mosligini tekshirish orqali ijobiyligi natijaga erishiladi. Ko'rinish turibdiki, ayrim qoidalari chegara belgilaydi (maqsadga muvofiq), bajarishda mahoratga ega bo'lish dizaynerga bo'lgan e'tiborni oshiradi.

8.1. Kapyushon kurtka (parka) eskizda qanday tasvirlanadi?

Oldingi ko'nikmalar asosida, professionallik va o'ziga ishonch ortganda o'z uslubuni shaklantirish mumkin. O'z qiziqishlarining asosida portfolio yaratish, turli texnika usullarini qo'llab, o'ziga xos uslubda eskiz yaratiladi, bunda bilim va malakalar tayanch bo'ladi. Eskizda turli texnika usullaridan foydalanib yaratilgan libos detallarini namuna sifatida berilgan.



Martina Farrow

Buyurtmachi: Kambrij Universiteti bosmaxonasi

Vakil: Yangi bo'lim

Adobe Illyustrator dasturi yordamida qo'lda chizilgan, eskizda sayohat uchun qiyofasi tasvirlangan.

Elis Fletcher – Qvinnel

Elis Fletcher tomonidan yaratilgan ushbu obrazda yoshlik, kadjol uslubi va tik qomat ifodalangan. Eskizdagi barcha libos detallari aniq ko'rsatilgan. Bu tasvirda Adobe photoshop va monoprintdan dasturlari foydalaniilgan [6].



111-rasm. Judit Chikning kapyushonli kurtka eskizlari.

Judit Chik

Tasvir qulay uslubda ishlaniб, eskizning kontur chiziqlari 6B yumshoq qalamida ishlangan, akvarel bo‘yogidan libos elementlarini to‘ldirishda qo‘llanilgan.

Blikni shag‘am tarkibli qalam va maskirovkali flomaster yordamida ko‘rsatiladi. Orqa fonda tasvirlangan ko‘k osmon manzarasi qiyofani shakllanishida yordamchi vazifaga ega. Libos detallari tasvir to‘liq tugallanmagan lekin aniqlik berilgan.

Judit Chikni erkin tarzda ishlangan qoralama eskizdagi Parka va oqshom liboslari tasviri o‘z mohiyatiga ega.

Judit Chik Bu grafik tasvir kollaj yordamida yaratilgan. Birinchi navbatda sodda turdagи qomat eskizi tanlanib, libos detallari rangli qog‘ozdan qirqilib, yelim orqali orqa fonga yelimlanadi. Libosning mayda detallari pastel mellari yordamida qalin kontur chiziqlar belgilanadi [6].

8.2. Mashhur dizaynerlarning eskizlar galereyasи

Lanvin

Y. Lanvin asosan qizchalar, qizlar va ayollar uchun “Haute Cauture” yo‘nalishida ijod qiladi. 1923-yilda San-Onore Flover ko‘chasi 15-uyda o‘zining Lanvin sport modalar uyini ochdi. U yerda ayollar uchun ihcham bichimdagi erkin va sayohat (sarguzasht) uslubida kiyimlar modellarini yaratdi. Mijozlarga Lanvin yaratgan ihcham bichimdagi kundalikda kiyiladigan yengil liboslar ma’qul keldi va tezda ommalashdi. Keyinchalik Lanvin Kann, Buarritz, Do‘vil, Tuketda, so‘ng Madrid, Buenos-Ayres, San-Paulo, N’yu-York, Londonda o‘z modalar uyini ochdi. Lanvin eskizlarining o‘ziga xos tomonlari, zamon bilan hamnafas olg‘a boruvchi insonlar, tabi nozik ayollar qomatini obrazga mos qilib uslublashtira olgan va zamondoshlar obrazini yaratgan. Libosni individual xarakterini ochib bergen [9]. Eskiz yaratishda dizayner rassomlik ashyolari va texnikalaridan mohirona foydalana olgan. Bu esa dizaynerni nafaqat libos yaratuvchi, balki iste’dodli rassom yuksak did va iqtidor sohibi ekanligidan dalolatdir.



108-rasm. Dizayner Lanvin yaratgan eskizlar namunasi.

Jan Patu

Jan Patu asosan sport uslubidagi kiyimlar yaratuvchilardan biridir. U bu uslubda 1920 yillarda erkaklar va ayollar uchun xilmoxil modellar yaratdi va keng omma hukmiga havola etdi. U 1920-30-yillarda sermahsul ijod qildi. U ijodining dastlabki yillarida ayollar uchun karsetlar va shishirilgan yubkalar yaratdi. Shavqatsiz Jahon urushi kishilar dunyoqarashini va hayot tarzini butkul o'zgartirib

yubordi. Bu albatta moda sohasiga ham o‘z ta’sirini o’tkazdi. J. Patu o‘z modalar uyini ochishdan avval tog‘asining modalar uyida faoliyat yuritdi. U asosan aktrisalar uchun oldi sodda burchakli o‘yilgan, yengil uslubdagi kiyimlar, uzunligi tizzagacha bo‘lgan yupqa, harir kashtalar bilan bezatilgan matodan tikilgan oqshom liboslari toplamini yaratdi. U tennis sport turi bilan shug‘ullanuvchilar uchun ham serharakatga moyil, qulay kalta yubkalar to‘plamini yaratdi [9]. Jan Patu ham mo‘yqalam yordamida akvarel bo‘yoqlari, pastel qalamchalari va retushdan mohirona foydalaniib, tuslangan qog‘ozlarda o‘zining yorqin g‘oyalarini eskizlarda namoyon qilib, tayyor liboslarda hayotga tadbiq eta olgan va keng ommaga taqdim etgan. Shu orqali dunyo moda industriyasida o‘zining nomiga (brendiga) ega bo‘lgan dizaynerlardan hisoblanadi.



Couture Jean PATOU

*Chale à manches — Un très joli manteau d'une robe très élégante. Gantons
brodés, et d'un magnifique double pochette et une ceinture élégante.*



113-rasm. Dizayner Jan Patu yaratgan eskizlardan namuna.

Elza Skiaparelli



114-rasm. Elza Skiaparelli ish ustida. Elza va Salvador Dalí.



115-rasm. Elza Skiaparelli o'zi yaratgan va barchani lol qoldirgan "Napoleon" shlyapa va pushti rangli jaketida.

Elza Skiaparellining o'ziga xosligi, u oqshom ko'yylaklarini taqinchoqlar bilan uyg'unlashtirib kiyishni ommaga taklif qilgan. E.Skiaparelli liboslarda zam'a (molniya tasmasi) bilan ishlashni boshlab bergen. Skiaparelli ~~zma~~ zmda ijod qilgan dizaynerlardan biridir va u birinchilardan bo'lib kolleksiyalarga nom berishni boshlab bergen. E. Skiaparelli sharofati bilan moda sohasida yelka yostiqchalaridan, dag'al matolardan, keng bichimlardan foydalanila boshlandi. U hatto ayollar cho'milish kiyimiga ham o'zgartirish kiritib, ajralgan cho'milish kiyimini yaratdi va birinchi bo'lib, yubka-shortikni kashf qildi. Elza ayollar uchun alvon, binafsha rang va to'q siyoh ranglarni qo'shgan holda liboslar yaratdi. Kontrast ranglarda kiyinishni tavsiya qildi. Skiaparelli moda uyining ishlab chiqargan birinchi liboslari katta hajmli tasvirlar tushirilgan sviterlar edi. Elzaning otasi Misrshunos bo'lgan va u o'zining eskizlarida bolaligida ko'rgan barcha xotiralarini tasvirlashga harakat qilgan. Shuning uchun u Misr timsollarini, shuningdek, syurrealist do'stlarining tasvirlari, dengiz tatuirovkalarini va atrofida ko'rgan boshqa obrazlarni ozining g'oyalariga asos qilib olgan [9].

Elzaning eskizlarini kuzatadigan bo'lsak, nafaqat dizaynerlikda, balki model'er rassom sifatida ham yetuk mutaxassis ekanligini ko'rishimiz mumkin. U guash, retush, pastel qalamchalari va aralash texnikalardan erkin foydalana olgan.





1949

2012





116-rasm. Elza Skiaparelli eskizlarından namunalar.



117-rasm. Madam Gre ish ustida.

Madam Gre yuksak moda haykaltaroshi, Olimp ma'budlariga munosib liboslari yaratuvchisi. Uning yunon uslubidagi liboslari noyob va takrorlanmas. Mato bilan ishlash uning asosiy iste'dodi bo'lgan. Bu bejiz emas edi albatta, chunki u haykaltarosh bo'lishni orzu qilgan edi. "Mato bilan ishlash bu huddi tosh bilan ishslash kabitdir, men uchun farqi yo'q" - degan edi Madam Gre. U yaratgan to'kilib turuvchi shoyili jersi matosidan tikilgan liboslari qadimgi yunon hitonlarini eslatar edi. Go'zal drapirovkalar, oddiy va shu bilan birga ko'rkan shakllar, u antik va hind san'atini sevgan va ilhomlangan. U andozasiz mijozning ustida libos bichgan va burmalarini tahlagan. Ellik yillik faoliyati davomida Madam Greni faqat ijod qiziqtirdi. U tomonidan yunon taxamlari bilan yaratilgan

liboslар barcha ayollarnи mabudaga aylantirган va o'zi yaratган liboslarida Yunon tarixini gavdalantirган [9].



№7. №7. №7.
157



118-rasm. Madam Grening eskiz namunaları.



119-rasm. Samofrakiyalik Nika haykalidan ilhomlanib yaratilgan libos eskizi va tayyor holati. 1984.



116-rasm. P'yer Balmain ish ustida.

P. Balmain dunyoga o'zining 1957-yillarning ruhini beruvchi Go'zal xonim obrazi bilan mashhurdir. P. Balmain qirolichalar va malikalar dizayneri hisoblanadi. U ko'p hollarda tungi ziyoftlar, niqobli ballar (maskaradlar) uchun mo'ljallangan va kokteyl uslubidagi liboslar to'plamlarini yaratgan dizaynerlar sarasiga kiradi. U libosni qomat shakliga mos holda, tanadagi nuqsonlarni berkitib, quyuq va to'q ranglardan foydalanim asar yaratishga harakat qilgan. Uning choklari jiddiy va toza. Uning maqsadi fransuz ayollarini go'zalligini, hashamadorligini liboslari orqali yanada bo'rttirib ko'rsatib tarannum etishga harakat qilgan. Kunduz kuni kiyishga mo'ljallangan liboslarda asosan qora, qoramtilr va kulranglar, ko'k va oxra ranglardan ko'proq foydalangan [9]. Ushbu liboslar eskizlarini yaratishda P. Balmain tush va pero, retush, akvarel, suv bo'yolardan unumli va erkin foydalana olgan. Bu esa dizaynerni ras-somchilik va grafikada ham katta yutuqlarga erishganligini ko'rsatadi.







121-rasm. P'yer Balmain libos eskizlari.

Iv Sen Loran



122-rasm. I v Sen-Loran.



123-rasm. Iv Sen-loran ish ustida.

“Men yaratgan barcha liboslar imo-ishora, hatti-harakat orqali paydo bo‘ladi. Imo-ishorani aks ettirmaydigan yoki eslatmaydigan libos, - yomon libosdir. Qachonki imo-ishora aniqlanib, ilg‘angan-dagina, unga faqatgina, rang va aniq shaklni tanlash qoladi xolos...”

Iv Sen-Loran.



124-rasm. Iv Sen-Loran eskizlari.

125-rasm. Iv Sen-Loranning Rus baleti turkumidan kuz-qish kolleksiyasiga ishlagan eskizi. 1976-1977-yillar.



126-rasm. Smoking, kuz-qish 1966-yil. Smoking va kokteyl liboslar 1987-yil.



127-rasm. "Toreador" kuz-qish. 1979-yil. Rus kolleksiyasi uchun
eskizlar. 1976-yil.




128-rasm. Afrika kolleksiyasi. Bahor-yoz. 1967-yil.



129-rasm. Iv sen Loran avtoportreti.

ENSEMBLES- HABILLES



130-rasm. Iv sen Loran kolleksiya eskizlari namunalari.

Iv Sen-Loran XX asr modasining “dohysi” va fransuz moda-sining timsoli deya e’tirof etilgan. U san’atni sevuvchi, zamonaviylik va yangiliklar tarafdiri, modadagi qarama-qarshi yo‘nalishlarni birlashtirgan, kubizm, abstrakt, impressionism, realism, artistizm va yangi uslublar bilan tadqiqotlar o‘tkazgan va shu bilan birga mumtozlikka (klassikaga) intilgan iste’dod egasi [9]. Sen-Loran afsonaviy Dior modalar uyining bosh dizayneri sifatida 1958-yili birinchi mustaqil kolleksiyasini namoyish etgan, shunda u haqda butun dunyo xabar topdi. U yaratgan “Trapetsiya” silueti esa moda olamida haqiqiy inqilob bo‘ldi. U Vinsent va Gog, Anri Matiss, Pikasso, Pit Mondrian asarlaridan ilhomlangan.

VIII bobga oid savollar:

1. Dizayner Elza Skiaparelli qanday uslublarda liboslar yaratgan?
2. Dizayner Iv sen Loran ijodi haqida ma’lumot bering.
3. Dizayner Madam Greni libos yaratishda ilhomlantirgan ijod manbai haqida ma’lumot bering.

GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atama- ning rus tilida nomla- nishi	Atamaning ma'nosi
Avangard	<i>vanguard</i>	Аван- гард	modaning oldi, o'ta udumda, modada bo'lgan libos, kiyim nomi.
Ajur	<i>fretwork</i>	ажур	1. to'qilgan, nozik, nafis to'rsi- mon mato. 2. nozik, mohirona astoydil berilib bajarilgan ish.
Aksessuar- lar	<i>accessories</i>	аксес- суары	liboslarga mukammal ko'rinish beruvchi predmetlar aksessuarlar qatoriga kiradi: ya'ni sharf, ro'mol, bosh kiyim, qo'lkop, sumka, bo'yinbog', hamyonlar. Savdo rastalarida ular galanteriya mahsulotlari deb nomlanadi.
Antropome- triya	<i>anthropo- metry</i>	антро- помет- рия	inson tanasini va uning ayrim qismlarini o'chash, shuningdek, inson tanasini butunlay yoki qisman turg'un holatda ifodalash uchun mo'ljallangan antropologik izlanish usuli.
Applikat- siya	<i>applique, cutwork</i>	аппли- кация	1. ornament yaratish usuli. U kashta, (mato, trikotaj, qog'oz va h.k.) asosga, boshqa rangdagi bo'lakcha material, mato, tasma, yung, teri,

			qog'oz va boshqalarni yopishtirish orqali amalga oshiriladi. Rasm bo'rtib turishi uchun oraliqqa paxta, sintepon va h.k qo'yiladi. 2. applikatsiya -- bezash san'atining qadimgi usullaridan bo'lib, undan hozirgi vaqtida ham ko'pgina xalqlarda ishlatib kelinmoqda.
Assortiment	<i>assortment</i>	ассортимент	To'plam yoki ro'yxat, tovar turlari, xom-ashyo, nav. ishlab chiqarilgan va savdo assortimenti deb farqlanadi.
Atlas	<i>atlas</i>	атлас	1. ipak, jun yoki lyonli zich matolar. Usti yaltiroq silliq bo'lib, kiyim va oyoq kiyim, mebellarni qoplash, drapirlash - bezashda foydalilanladi. atlasli matolar o'rta asrlardan beri ma'lum bo'lib, ular asosan dekorativ-bezaklash, shuningdek, marosimlar vaqtida qo'llanilgan. 2. to'qimachilikdagi oddiy to'qilish usuli.
Atlasga oid to'qilish	<i>satiny interlace-ment</i>	атлас-ное переплетение	Oddiy to'qimachilikdagi to'qilish bo'lib, sirt va uzunasiga qoplovchi iplar asosiy hisoblanadi. Rapportda Stadan kam ip bo'lmasligi lozim; har bir utkali ip rapportda faqat bir marta sirt yuzasiga chiqishi, keyin

			barcha asosiy iplar ostidan o'tishi kerak. Bunday to'qilish mato (gazlama)larning sirtiga silliq, yaltirash, yaxshi chidamlilik beradi, ammo gazlamaning chirishini tezlashtiradi. Atlasga oid to'qilish bo'yicha atlaslar, lastiklar, ko'ylakli gazlamalarni tayyorlashda qo'llaniladi.
Axromatik	<i>achromatic</i>	ахроматический	rangsiz, hatto bo'yoqsiz, oqish, och kulrang qoracha bo'lishi mumkin.
Biser	<i>bead</i>	бисер	Mayda har xil shakldagi shaffof yoki rangdor shishadan yasalgan marjon (munchoq), ip o'tkazadigan teshikchaga ega. kiyim hamda bosh kiyimlarni bezash uchun ishlataladi. Qadimgi Misrda biser ipdan marjonlar shodasi tayyorlanib kiyimlarga taqilgan. X asrda Vizantiyada biser ishlab chiqarish siri o'zlashtirilgach, u boshqa mamlakatlarga tarqalgan. XVIII asr o'rtalarida M.V.Lomonosov Rossiyada biser ishlab chiqarilishiga asos soldi.
Bulavka	<i>pin</i>	булавка	3-5 sm uzunlikdagi metall shakli yoki oxirida petlisi bo'lgan igna. Dekorativ bu-

			lavka soch turmaklash, shlyapa, kostyumlarni bezashda xizmat qiladi. Ishchi, portnov bo'laklar esa birorta (masalan, bichishda, buyurtmachi mahsulotni kiyib ko'rishda) detalni vaqtincha biriktiruv jarayonida qo'llanadi.
Bijuteriya	<i>jewelry</i>	бижутерия	Qimmatbaho (to'nog'ich, kulon - zanjir), klipsi, marjon, taqinchoqlarga taqlid qilib yasalgan ayollar bezagi. Bunday taqinchoqlar qimmat bo'lмаган tosh va metallar; shisha, plastmassalardan tayyorlanadi. Kiyimlarga qo'shimcha vazifasini o'tovchi dekorativ-estetika beruvchi bezak.
Batist	<i>batiste</i>	батист	Yupqa, yengil, yarimshaffof lyon yoki paxta ipidan to'qilgan mato, polotnoga xos to'qimaga ega. Batist yumshoq, odatda ipakdek mayin, oppoq, oqartirilgan yoki ochiq rangga bo'yalgan bo'ladi. U ingichka kundoqday igirilgan bir ipli ipdan tayyorlanadi. Yoqimli yaltiroq, chidamliligi bilan ajralib turadi. Yozgi ko'ylaklar, bluzkalar, erkaklar sorochkalari, bolalar va xotinqizlarning ichki ko'ylaklari uchun juda mos. Sirt zichligi

			<p>58 gG`m2. U fransuz ustasi Batist nomiga qo‘yilgan (Shambre XVII asr).</p> <p>Yevropada u birinchi bo‘lib juda yupqa yarimshaffof lyon material yaratgan. Batistning asl vatani paxta davlati Hindiston deb hisoblanadi.</p>
Baxmal, duxoba, yarim- duxoba.	<i>velvetandha lfvelvet</i>	бархат и поли бархат	<p>Sirti(o‘ngi)zich vertikal kalta tukli(1-2mm) mato.</p> <p>Baxmalning asos iplari tukli, yarim duxobaning esa tanda iplari tukli qilib ishlanadi.</p> <p>Tukli iplar tabiiy ipakdan yoki kimyoviy toladan bo‘lishi mumkin.</p> <p>Grunt(tag)iplarga odatda paxta, ba’zan ipak iplar ishlataligan, yarimduxoba bir xil bo‘yoqda yoki bosma rasmli qilib ishlab chiqarilgan. Matolardan ko‘ylak, bolalar kostyumi, dekorativ material sifatida foydalananilgan.</p>
Blayzer	<i>blazer</i>	блайзер	<p>Sport turiga xos pidjak (kostyum). X asr boshlarida ingliz zodagonlar klubining erkaklari o‘ziga xos shaklda kiytinganlar. Keyinroq u ingliz xotin-qizlar maktabiga joriy qilingan. 1960-yildan boshlab mehmon kiyimlari sifatida avvalo, erkaklar, keyin ayollarga urf bo‘lgan. Klassik</p>

			variantida boshqa moviy sukno yoki gabardindan tikilgan. U metall tugmalar(tilla yoki kumush rang)geraldli belgilar yoki yakor belgisi bilan bezatilgan. Yozda esa(barcha rangdagi)ayniqsa, oq rangdagi shim, boshqa mavsumlarda kulrang shim urf bo‘lgan. pidjak oq yoki och bir xil rangdagi ko‘ylakka moslangan galstuk hamda elegant oyoq kiyim tanlangan.
Brend	<i>brand</i>	бренд	Kompaniya, mahsulot haqida axborotlar majmuasini ramzi yoki ishlab chiqaruvchi, tovarning mashhur, oson taniladigan, huquqiy jihatdan himoya qilingan ramzi hisoblanadi.
Брендинг	<i>booklet</i>	брэндинг	Buklama – yaxlit (bir) taboq qog‘ozga bosilib, 2 va undan ortiq sahifalarga bukiladigan nashr turi.
Bezak	<i>Decoration ornament</i>	украшение	1 kiyimga, shunday ekan va odamga, chiroyli turdagи ko‘rinish berish. 2. narsa, kiyimni bezatayotgan yoki uni qo‘shimcha qiladigan
Buyum	<i>product</i>	изделие	1. Ishlab chiqarish ishlovi. 2. Narsa, tovar-mol. To‘qimachilik mahsuloti – to‘qimachilikda chiqarilgan

tola, ip yoki turli tuzilishdagι iplardan tashqi jihatdan va xususiyati bilan keng talabda bo‘lgan yoki sanoatning qayta ishslash va boshqa uchun yaroqli bo‘lgan mahsulot. To‘qimachilik mahsulotlari qatoriga matolar, trikotaj, nomato va eshilgan mahsulotlar, tekstil galanteriyalari, issiqlikni saqllovchi tolali materiallar, trikotaj va asosi yelimlangan tukli mahsulotlar, gilam mahsulotlari va boshqalar kiradi.

Tikuv mahsulotlari – tikuv jarayoni natijasi (ko‘ylak, palto, plash, shim, nimcha, yubka va hokazolar) da yuzasida vujudga kelgan mahsulotlardir.

Bo‘yinbog‘	<i>tie</i>	галстук	Kiyimning dekorativ predmeti, qo‘shimcha bezak. Ko‘rinishi keng lenta, yoqa tagidan tugun qilinadi, qolgan qismi pastga erkin holda tushib turadi. Avvallari shamollamaslik uchun bo‘ynni berkitish maqsadida ro‘molcha rolini bajargan. XVII asrdan boshlab esa modaga kirgan, erkaklar kiyimining muhim qo‘shimcha predmetiga o‘tgan. Fransuz burjua
------------	------------	---------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

			<p>inqilobi davrida oq materialdan keng ro'molni burjustlar taqishgan, frantsuz inqilobchilarida esa ularga qarshi belgi sifatida qora galstukda bo'lishgan. Galstuk taqish usuli juda murakkab bo'lgan. Hatto galstuk taqishga oid qo'llanmalar yuzaga kelgan. Bizga ma'lum va odatiy, zamonaviy erkaklar kostyumingning qo'shimchasi hisoblangan galstuk XX asr boshlarida hayotdan o'rinn olgan. Galstuklar keng yoki ingichka, uzun yoki kalta qilib mato, trikotaj, charmdan tayyorlanadi. U turli-tuman rangga ega. Tuguncha yoki bant tarzida yoqa ostidan.</p>
Velvet	<i>velvet</i>	вельвет	Zich tukli paxta gazlamasi, ingichka toladan ishlab chiqariladi. Sirtda asos iplar bo'ylab uzunasiga ketgan chiviqli tuklarga ega. Keng yo'l tukli chiyduxoba velvet-kord deyilsa, tor tukli yo'l-yo'l chiyduxoba bo'rtma chiviqli velvet deyiladi. Chiyduxoba sidirg'a yoki rangli ko'proq katak-katak hamda yo'l- yo'l bo'ladi, undan kostyumlar, qishki ko'ylak, kurtka palto va b. tikiladi. Bunday tukli chiyduxobalar tashqi jihatdan

			effektli, ishlaganda yoqimli, yaxshi chidamlilikka ega.
Velyur	<i>velure</i>	вельюр	<p>1. Sukon to‘qilishdagi juda kichik qalın va yumshoq tukli to‘qilgan sofjunli gazlama. Eng yuqori merinos junlar ishlatilgan drap-velyur qimmatli velyur gazlamasi hisoblanadi. Velyur-duxobadan yuqori kiyim, bosh kiyimlar tayyorlanadi. 2. Xrom bilan oshlangan teri (xromli zamsh) u shoxli mol yoki cho‘ch-qanining pishiq mayda terisi shikastlangan ust sirti va duxobaga o‘xshash baxtarma tomonidan ajratilgan teridan ishlab chiqariladi. Velyur ayrim ustki kiyim va oyoq kiyim uchun ishlatiladi. Sintetik velyur (sun‘iy zamsh tashqi ko‘rinishidan tabiiy velyurga o‘xshab ketadi. 3. Fetra kalta, quyuq va yumshoq tukli bo‘ladi.</p>
Vual	<i>voile</i>	вуаль	Frans (voilechoyshab, pardanozik setka(to‘r), u ayollar shlyapasining detali. Vual sharqda vujudga kelgan, chunki ayollar yuzlarini to‘r bilan to‘sib yurishlari, ko‘chaga usiz chiqish, uydagi begonalar oldida yuzlarini ko‘rsatishlari mumkin emas edi. Misorda xotin-qizlar shaffof pardavual bilan

yuzlarini o'rab olganlar, Yunonistonga keyinchalik kiriib kelgan bo'lsada, grek vuali yuzni to'smagan. Balki kostyum detali o'rnida bo'lgan. Rim imperatori davrida vual parda juda ommalashgan. O'rta asr davri gotiklar ustunligida Yevropada bosh kiyimni bezash sifatida ayniqsa, moda hisoblangan. XVI asrda parda iste'moldan chiqqan, faqat ispanlar ayoli qora to'r ro'mol mantilya davom etgan. Kiyimda barokko va rokkoko vuallari ham qo'llanilgan. Fransuz urushi davrida baland shlyapalardagina ishlatilgan. Bidermeer davrida vuallar yana ayollar shlyapasini bezashi uchun kirib kelgan. Ayniqsa, kostyum detali sifatida silindrda qo'llanilgan. XIX asr boshlarida tyuldan qilingan vual kirib keldi. Hozirgi davrda u tantanalarda, ayniqsa, to'y liboslari qatoridan joy oldi. 2. Shaffof juda yupqa nozik paxta gazlama, grebenda pishiq qilib eshilgan ipdan ishlab chiqariladi, juda yengil. Ushlaganda kupolga o'xshaydi, to'kiluvchang va chocklarida sirg'alishi mumkin. U oqish, sidirg'a va gulli, merserlashadi. Asosan xotin-

			qizlar ko‘ylagi va bluzkalarida qo‘llaniladi.
Gaz	<i>gauze</i>	газ	Flyorning xuddi o‘zi, glaffof, yengil ipak yoki tovlangan paxta ipidan to‘qilgan katta guruh mato nomi. Undan ro‘mol, sharf, ko‘ylak, peshonabog‘, shlyapa otdelkasiga ishlataladi.
Gazeta	<i>newspaper</i>	газета	Kundalik voqealar to‘g‘risida materiallar e’lon qilinadigan davriy (vaqtli) bosma nashr. O‘zbekistonda bevosita reklama e’lonlari berishga ixtisoslashgan “Частной сектор”, “Ташкентская неделя” va boshqa gazetalar nashr etiladi.
Галифе	<i>halife</i>	галифе	Shim, u tizzaga yopishib, yuqoriga qarab kengayib boradi. Nomi fransuz kavaler generali Galiffe ismi bilan bog‘liq. Avvallari bunday shimplarni asosan harbiylar kiyishgan. Hozir esa ayollarda ham uchraydi.
Garderob	<i>wardrobe</i>	Гардероб	Insonning hayotida hamma zarur vaziyatlariga mo‘ljallangan, biror-bir belgilari bo‘yicha mujassamlashgan aksessuarlar, poyabzal va kiyimlar majmui.

Gipyur	<i>guipure</i>	гипюр	Aniq gullarga ega to‘rli kashta turlaridan. 2. Tikish mashinalarida tayyorlanadigan og‘ir to‘r polotno. Ayollar bluzka va ko‘ylagi, shuningdek, yoqa, manishek, manjet, qo‘yilmalarni tayyorlash uchun qo‘llaniladi. 3. Vishivka va vishivkali choklar. Gipyur murakkab bo‘limchalar (to‘r, yulduzli, rombli, burchakli, snovkali, “o‘rgimchak”li, to‘rlashga chirmshtirib choklashga nisbatan yirikroq bajariladigan tikishga kiradi.
Do‘ppi	<i>headwear</i>	тюбе-тейка	Turk tilidan baland, balandlik ma’nosini bildiradi. Bu sharq xalqining milliy bosh kiyimi bo‘lib, olti qirrali yoki kvadrat shaklida bo‘lib, shoyi matodan tikilgan naqshlari bilan bo‘ladi. O‘rta Osiyo xalqlarida keng tarqalgan bo‘lib, uni ayollar, erkaklar, bolalar yoshlari va qariyalar kiyadilar.
Jurnal	<i>magazine</i>	журнал	Bosma davriy nashr, axborotni tanlash, tahlil etish va baholashning asosiy vositalaridan biri. Jurnallar mundarija yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy, ishlab chiqarish-texnikaviy, ilmiy, ilmiy-ommabop va boshqalarga farqlanadi.

Zig‘ir	<i>flax</i>	лён	O‘tli o‘simlik, serpoyadan tola, urug‘idan yog‘ olinadi. Tola shu o‘simlik poyasidan olinadi. Toladan mato tayyorlanadi.
Ichki kiyimga mo‘ljal- langan matolar	<i>under wear fabrics</i>	белье- вые ткани	Ular asosan paxta hamda lyondan polotnoga oid to‘qilishga ega, oqish, silliq, bo‘yalgan, bezakli bo‘lib, ulardan yotoq va ichki kiyim, maxsus kiyimlar tayyorlanadi. ular gigroskopik, havo o‘tkazuvchanlik, bug‘o‘tkazuvchanlik, pishiqligi, chidamliligi bilan ajralib turadi. Erkaklarning belyolari grinsbon, tik-lastik, chit va boshqalar ishlab chiqariladi, ularning sirt zichligi 160-190gG`m2. Ayollar hamda bolalar belyolariga paxta matoning mitkalli turining polotnoli to‘qilishga ega bo‘lgan batist, volta, chit hamda ipakli (sirt zichligi 60-100gG`2 ga teng) matolar qo‘llaniladi. Belyoli matolarga shifon kiradi. U ingichka grebenda yigirilgan ipdan to‘qiladi, sirt zichligi 90-104 gG`m2, gigroskopikligi 7-11%, havo o‘tkazuvchanlik esa 135 dm3G`m2*s dan kam emas. Korset mahsulotlari esa maxsus kardli va grebenda

			egilgan pishiq (chiyratma) ipdan tayyorlanadi. Unda jakkordli rasmlar bo‘ladi.
Kashta	<i>embroidery</i>	Вы-шивка	<p>Dekorativ — amaliy san'at turi, unda naqsh (gul) va tasvir mato, charmga tikish orqali bajariladi. Boshqa material-larga ipak, jun, len, paxta, metall iplar bilan biser, dur, qimmatbaho toshlar, tangalar va hokazolar ishlatiladi. Ibtidoiy (qavish) chok madaniyati hayvonlar terisidan kiyimlarda chokning paydo bo‘lishi yuzaga kelgan. Kashta bizgacha qadimdan qolgan naqshli motivlarni yetkazib kelgan, ular belgili gul (naqsh)lar mazmuning murakkab ekanligini aks ettiradi. Ular ichida eng oddysi krest, kvadrat, romb va aylana shaklida bo‘lib, shartli belgilar, ramziy quyosh tarzida ifodalangan, ular ilohiy tasvir deb hisoblashgan.</p> <p>Kashtachilik texnikasining takomillashuvi tosh va suyakdan, suyak ignaga, keyin bronza, undan so‘ng po‘lat, shuningdek, yigirish, to‘qish va bo‘yoq berish taraqqiyotiga o‘tildi.</p> <p>Maishiy predmet va kiyimlar kashtalar bilan bezatildi. Kashtachilik hozirgi zamon tasviriy san'at rivoji bilan</p>

bog'liq bevosita ayniqsa, syujetga ega kashtalarini ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda kashtachilik taraqqiy etmoqda hamda takomillashmoqda. Bu san'atning eng yaxshi namunalarida ko'rish mumkin. U badiiy hunarmandlar hamda uy hunarmandlar turlarining keng tarqalishida ham namoyon bo'ladi.

Tikish usulini qo'l va mashina turiga bo'lish mumkin. Ish materiali va ish usulining xarakteri jihatdan munchoq (tilla) zar, kumush, dur, applikatsiya va boshqalardan foydalanish kabi turlari mavjud. Chok hamda baholar jihatidan-erkin, ya'ni rasm bo'yicha qaviqlar erkin joylashishiga qarab beriladi. Hisobturida matodagi iplar miqdori, qaviqlar miqdori, to'rsimon kashta (merenski "ko'tarma" chok, biserli chok), rangli iroqi tushirilgan, iroqi vprikep, atlas tikilish, rus iroqisi, ko'p rangli iroqi, bridlar, yuqori chok, tasma yoki shnurli petlya, egri qaviq, gipyur, krest, yarim krest, ixtiyoriy (erkin chok), rishel'e bilan qoplangan, to'plam, naqshlash, poyasimon chok,

			aylana, bayroq, zanjir turidagi (tambur) tikilishlar mavjud.
Kollaj	<i>collage</i>	коллаж	Tasviriy san'atdagi texnik usul; biror bir asos materialga rang va sifati bilan farqlanuvchi materialni yopishtirib asar yaratish, shuningdek, shu usulda yaratilgan san'at asari ham kollaj deb ataladi. Reklamada ham qo'llaniladi.
Komplekt	<i>complect</i>	комплект	Aynan garnitur, to'liq to'plam. Kiyimda to'plam deganda elementlar va kostyum qismlarini ma'lum belgisiga ko'ra birlashtirilgani tushuniladi, bunda maqsad-yo'nalishi, rang, material kabi belgilari e'tiborga olinadi. Kiyimlar komplektik chiesiz miqdordagi o'zaro o'rni bosuvchi elementlar ya'ni birgalikda yoki ayrim holda foydalanish mumkin holatidir.
Konstruktsiya	<i>construction</i>	конструкция	Predmetning qandaydir qismining o'zaro joylashuvi, tuzilishi, moslama (qurilma) ni bildiradi. Kiyim konstruksiya xarakteristikasi bir qator pozitsiya, ya'ni tashqi forma (siluet va bichiq), tarkibiy qismlarning konstruktiv qurilishi (detallar bo'yicha), choklarni

			<p>birlashtirish turi, materiallar ko‘rinishiga ko‘ra beriladi. Tayyorlash usuliga bog‘liqholda kiyim bichilgan va bichilmagan konstruksiyadaligi aniqlanadi.</p> <p>Bichilgan kiyimlar konstruktsiyasi ma’lum konfiguratsiya va o‘lchamdagи detallarni tashkil topgan berilgan tartibda birlashtirilgan tuzilishni o‘zida ifodalaydi.</p>
Kontrast	<i>contrast</i>	контраст	<p>Predmetning yorqinligi yoki uning o‘rab turgan fonga nisbatan ko‘rishda keskin farq-kontrastning ifodalanishini tushuniladi. Kiyimga ifodalanishini tushunilaди. Kiyimga mato va hokazo, nisbatan esa kontrast — bu badiiy usul, bir kompozitsiya xususiyatiga qarama-qarshi keskin ifodalanganlikni bildiradi. Masalan, kontrast bo‘yicha matolarni ishlab chiqarishda vertikal va gorizontal chiziqlar solishtiriladi, katta kichik formalar motivlari, ochiq va to‘qqismlar qiyoslashtiriladi. Kontrast chiziqli kompozitsiyaning dinamikligi, uning dekorativligi, obrazli ifodalilikni beradi. Rangli</p>

			bezatishda yanada ochiq va emotsional birikmalar berishda imkon yaratadi.
Kontur	<i>contour</i>	контур	Kostyum yoki figuraning model formasini aniq chizib beruvchi chiziqlar-yo'llar, abris.
Kostyum	<i>costume, suit</i>	костюм	<p>1. Kiyim poyabzal, aksessuar va boshqa predmet va elementlarning ma'lum tizimi bo'lib, insonning ijtimoiy va milliyligi, uning jinsi, yoshi, mashg'uloti, mutaxassisligi va h.k. o'zida aks ettiradi. xalq kostyumlari ma'noli, ta'sirli. ular o'ziga xos, ananaviy xususiyatga ega bo'lib, material tanlash, bichiq, naqshlar bezagi, ranglar aralashmasi hamda bezak materiallari bilan farqlanadi.</p> <p>2. Hozirgi kunda rasmiy-kundalik ish kiyimi sifatida pidjak (jaket-nimcha) va shim (yubka) ommalashgan.</p>
Kupon	<i>coupon</i>	купон	Kiymoq, bluzka, yupka va h.k.lar uchun hammasi qirqish mato, u alohida joylashgan rasm-bezakka ega bo'lib, ma'lum bichimda rasm yaxlitligi saqlangan holda fasonga mo'ljallangan.

Maket	<i>model, prototype</i>	макет	Taxminiy namuna kichraygan ko‘rinishda, predmetning shartli hajmdor tasviri; u shakl, proporsiya, vazifaga oid tasavvur hosil qilish imkon beradi.
Maneken	<i>dummy, mannequin</i>	манекен	<p>1.Pap'e-mash'e, daraxt, plastmassadan odam gavdasi shaklidagi figura, uning sirti tekis kontroli, matoga o'rama bo'ladi (atel'e-magazin) kiyimlarni ko'rsatish yoki mahsulotlar balansining to'g'rilingini tekshirish, o'lchashga xizmat qiladi.</p> <p>2.Yog'och qo'g'irchoq harakatchan qo'l va oyoqli, rassomlar tomonidan odam ko'rinishini kiyimda ko'rsatishda qo'llaniladi.</p>
Model'er	<i>modelier, designer</i>	модельер	Modellar ishleb chiqarish bo'yicha mutaxassis, mahsulotlarning namunaviy ko'rinishi (masalan, kiyimlar, poyabzallar va h.k.). modelchi – rassom, kiyim kompozitsiyasi ustida ishlab aniq tarixiy davrga moslashgan yoki hozirgi kunni ifodalovchi moda yo'nalishini boshqarib kiyimni mo'ljallanganligini hisobga oldi (masalan, ishlab chiqarish uchun, teatr uchun, maxsus va h.k.)

Popop	<i>tambour</i>	тамбур	Kashta bilan gul tikish. Matoga rasm chizib, igna yoki ilmoq orqali bir tomonga yonaltirib , bir – biriga ilib zanjir sifatida bajariladi.
Reklama	<i>advertising</i>	реклама	Bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va texnologiyalar to‘g‘risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot
Tukli	<i>fluff, fleece</i>	вопс	Ayrim gazlama, trikotaj va nomato polotno ustini qoplab turuvchi qisqa momiqli yakka tola
Tekstura, tuzilish	<i>texture</i>	текстура	Mato bog‘lash tuzilish qattiq jisimning tuzilishi, assosiy qismining tuzilish tartibi. Tekstura to‘qimachilik materiallarida tollalarning yigiruv iplarida joylashishi aylantirish bir-biriga o‘rash, yigirish va to‘qish , ishlov berish va boshqalarda xarakterlanadi. Tekstura iplari – bu yuqori hajimli sintetik toladan tayorlangan ip oddiy iplardan yuqori hajmi, kuchli

buraluvchanligi, bosh strukturasi va katta choziluvchanligi bilan ajralib turadi. Tekstura iplarini ishlab chiqarish sintetik tolalarini keng ko‘lamda ishlatish imkonini beradi va ularni gigienik xossalarini yaxshiladi, yoqimsiz yaltiroq shisha sintetik materiallarda xolos etdi, tekstura iplaridan trikotaj gazlamalari (krimplen) ishlab chiqarish keng yolga qo‘yildi. Yuqori va quyi trikotaj paypoq mahsulotlari sun‘iy mo‘yna olish gilam, qalin jun ro‘mollari ishlab chiqarishda foydalanilmoqda . Tekstura iplari olish usuli xossasi va ishlatilishiga ko‘ra yuqori choziluvchan, kam choziluvchan, buraluvchan ilmoqli bio komponentli , aralash va yuqori hajimli kabi turlarga bo‘linadi.

Trikotaj	<i>knitted fabric</i>	Трикотаж	Trikotaj (fran. tricotage, tricoter-to‘qish) to‘qilgan mahsulot, qo‘l yordamida yoki maxsus uskunalar yordamida bir yoki bir necha turdag'i iplarning to‘qilishi. ipakka o‘xshagan gazlamadan tayyorlanadi. Polotno asosan pijama yoki ustki kiyimlar (ko‘ylak, bluzka, palto)
----------	-----------------------	----------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

			<p>tayyorlashda ishlataladi. Donalab tayyorlashda – paypoq, mayka, sviter, kabi ust kiyimlarga ishlab beriladi. Mashinada yoki qo‘l yordamida.</p> <p>Trikotaj - ayollar paypog‘i, qo‘lqop, ro‘molcha, bosh kiyimlarida qo‘llaniladi. O‘z navbatida bu kiyimlar yozgi, qishki ko‘rinishda ayol va erkaklar uchun maxsus tayyorlanadi.</p>
Tuqli	<i>shoes</i>	туфли	<p>To‘piqning ichki qismini berkitib turuvchi oyoq kiyim. Ular erkak, ayol va bolalar poyafzali turiga bo‘linadi. Juda ko‘p turga ega bo‘lgan bu ayollar tuflisidir. Ular bir-biridan tuzilishi bilan farqqilib, botinka ko‘rinishigacha yetib kelgan. Poshnasining balandligi, tuzilishi, bezagibilan bir – biridan farq qiladi. Ularning turi juda ko‘p: lodochka-ya’ni tekis tuflilar makasin turidagi bezagi va oyoqqalinligiga mos bo‘lgan, kombinirovka qilganlar. Shulardan yozgi, sport oyoq kiyimi, sayohat uchun, xona ichida kiyish uchun mo‘ljallangan. Yozgi tuqli bu bosonojka. U odatda oyoqning old qismi yoki</p>

			<p>to‘piqning ochiqligi bilan farqlagan.</p> <p>Sport oyoq kiyimlari ichki moslamasiz qilinib, yumshoq tagchaligi, turli bezak va detallar bilan bezatiladi.</p> <p>Sport oyoq kiyimlarining turlaridan biri – bu sayr uchun maxsus oyoq kiyim bo‘lib, old qismi yumshoq orqa qismi qattiq bo‘lib bog‘ichlidir, ust qismi teridan qilingan.</p> <p>Safar uchun mo‘jallangan oyoq kiyimni tabiiy, sun‘iy va sintetik kojadon qilingan bo‘lib, keng formali yoki past poshnadagi makasinlardir.</p> <p>Xona ichiga mo‘jallangan oyoq kiyimlar odatda ustki qismi yumshoq bo‘lib, ichiga mato qo‘yilgan yoki u siz tayyorlanadi. Ular odatda past poshnali bo‘ladi.</p>
Uyg‘unlik	<i>harmony</i>	гармо-ния	<p>Kiyimda, masalan, ranglar jilosi bir-biriga uyg‘unlashgan, moslashgan bo‘lishi kerak. Garmoniyada ranglarning barchasi naqshlar kompozitsiyasida moslashgan holda birikib ketishidir. Mato va to‘qimachilik mahsulotlarda badiiy bezak muhim ahamiyatga ega va u ma’lum qonuniyat bo‘yicha bo‘lishi lozim: 1) Rang berish</p>

			<p>kompozitsiyasi obrazli xulosa (qaror) hamda kimga nimaga belgilanganligi; 2) Rangning chiziqli ritmi, uning fon va boshqa ranglarning ishtiroki bilan mos kelishi, qo'shni ranglar bilan to‘g'ri kelishi kompozitsiyani umuman qabul qilishga yordam beradi, ya’ni kompozitsiyadagi rang bir-biri bilan «muzokara»ga o’tmasligi shart.</p>
Cho‘ntak	<i>pocket</i>	карман	<p>Mahsulotni dekorativ bezash yoki mayda narsalarni solishga xizmat qiluvchi detal yoki tikilgan mahsulotning tarmoqchasi. Zamonaviy erkaklar kiyimi cho‘ntaklar funksional o‘rinni bajarsa, ayollar kiyimida ham vazifaviy ham dekorativ, ba’zan faqat bezak o‘rnida bo‘ladi. Shakl, konstruksiya, o‘lcham, joylashuvi va cho‘ntak otdelkasiga asosan modaning ta’siri katta. Cho‘ntaklar qirqma, yopish tugma (qoplama) va choclar orqali joylashtiriladi. Qirqma cho‘ntaklar ramkada bo‘lib, cheti kantli, listochka va qopqoqlidir. Yopishtirma (qoplama) cho‘ntakning yuqori, yon va qirqma orqali kirish, listochkali, qaytarmali,</p>

			<p>klapanli yoki klapansiz bo‘lishi mumkin.</p> <p>Rel’efli choklardan, buramali, qirqmalari gorizontal, vertikal, egilgan, klapanli, listochkali, qaytarmali bo‘lishi mumkin.</p> <p>qirqma cho‘ntak shim, yubka pidjak, splash, palto, ko‘ylaklar qalin matolardan tikilsa, qo‘llaniladi. Yengil gazlamali ko‘ylak va sorochkalarda esa ko‘pincha yopishtirma va choklangan cho‘ntaklar qilinadi.</p>
Charm	<i>leather</i>	кожа	<p>Qo‘y, echki, bug‘i, los, cho‘chqa, buzoq va boshqa hayvonlar terisidan ishlab chiqariladi. Terilar nimaga ishlatilishiga qarab 4 guruhga kiyim, galantereya, texnik, sarroj-egarchilikka bo‘linadi. (oxirgi ikki tolasi kiyimlarda foydalanimaydi).</p>
Shim	<i>trousers</i>	брюки	<p>Ustki yuqori belbog‘li kiyim bo‘lib, u ikkita fartuk, ikkita orqa yarimtalikdan iborat. U yon o‘rta choklar bilan qo‘silgan. Shim odatda belbog‘ (povas) bilan bezatiladi.</p>
Yupqa yoki harir tiniq mato	<i>openwork</i>	ажурная ткань	<p>To‘qilish jarayonida iplari murakkab chatishib ketish orqali to‘rsimon shaklda</p>

yuzaga keladi. Asosi tizimli iplardan iborat, ya'ni tarmoqli va to'rsimon hamda bir tizimli arqo? (utka) ipli. Tarmoqli iplar grunt (tub asos) bo'lib xizmat qiladi, u orqali to'rsimon iplar yuzaga keladi. To'qilishi, fakturasi bo'yicha to'rsimon matolar xilma-xildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017. 488 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “ O‘zbekiston ”, 2016. 56 bet.
3. 2017-2021-yillar O‘bekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni.
4. Noel Chapman va Judith Cheek. «Creative fashion drawing», London, Arcturus, 2012 .
5. B. Baymetov. “Plastik anatomiya” (amaliy mashg‘ulotlar). T., Nizomiy nomidagi TDPU. 2011.
6. Tojiyev, N. Isahojayeva. Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari. T.: “Sharq” NMAK “Tezkor nashr markazi” bosmahonasi.
7. Catherine Ormen. «Un siècle de mode», France, Paris. 2012.
8. Paco Asensio.1000 Poses in fashion. USA, 2010.
11. B.B.Boymetov, M.S. Tolipov. Plastik anatomiya. T.: “Ilm Ziyo” nashryot uyi 2005- 198 b.
12. Tomoko Nakamichi, Patter Magic -L.: EC1V 1LR-2013. -53 p. Mark and Mary Willenbrink Drawing&Painting –Boston, 2010
13. H.C. Макавеева. Основы художественного проектирования костюма. Практикум. – М.: Академия, 2008.-230 с.
14. Л.А.Сафина, Л.М.Тухбатулина, В.В.Хамматова – Проектирование костюма – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.-283 стр.
15. Хасанбоева Г.К. Костюм дизайни. Т.: ТТЕСИ, 2013
16. Журналы «Style», «Vogue», «BurdaModen», «Индустрия моды», «Текстильная промышленность», «Кожевенно-обувная промышленность», Журнал «Швейная промышленность».

Elektron ta'lim resusrlari

17. <http://zivonet.uz/>
18. <http://title.uz/>
19. www.legprominfo.ru
20. www.sarafan.rufile:
21. www.textil-press.ru
22. www.fatex.ru
23. www.passion.ru

MUNDARIJA:

Kirish	3
I BOB. JIHOZLAR VA MATERIALLAR	
1.1. Dizaynerning ish joyi.....	9
1.2. Asosiy materiallar va jihozlar (Asosiy komplektlash)....	10
1.3. Mutaxassislik uchun zaruriy jamlanmalar: eksperimental va sohaga oid.....	14
II BOB. ODAM ANATOMIK TUZILISHI VA HARAKAT HOLATI	
2.1. Model qomati proporsiyasi.....	29
2.2. Turli yoshga oid qomat ko‘rinishlari.....	33
2.3. Odam qomati proporsiyasi va uning tasnifi.....	36
2.4. Eskiz shablonini yaratish.....	39
2.5. Boshning chizmasi.....	46
2.6. Qo‘lning kafti va oyoq panjalarining chizmasi.....	53
2.7. Ayol qomatini turish holati va xarakatlari.....	59
2.8. Erkak qomatini turish holati va xarakatlari.....	64
III BOB. SKETCHBOOK YARATISH VA RASMIYLASHTIRISH	
3.1. Skechbuk – ijodiy faoliyat elementi.....	68
3.2. Skechbukdagi ijodiy manbaa.....	69
3.3. Karen Fehrning koloritli loyihasi.....	70
3.4. Loyihalashda tadqiqot.....	72
3.5. Ijodiy manbaa.....	74
IV BOB. MATO VA MATERIALLARNI TASVIRLASH	
4.1. Drapirovkalarni tasvirlash. Drapirovkalardagi shakllarni hosil qilishdagi asosiy usullar.....	88
4.2. Libosda taxlamalarni tasvirlash.....	97
4.3. Mato fakturasini tasvirlashda asosiy texnikalar. Oq matoni eskizda tasvirlash.....	98
4.4. Qimmatbaho matolarini tasvirlash.....	102
4.5. Mo‘ynali va charm buyumlarni tasvirlash.....	103
4.6. Trikotaj buyumlarini fakturasini tasvirlash.....	108
4.7. Kiyishda chidamli matolarni tasvirlash.....	111
4.8. Erkaklar kiyim assortimentiga mo‘ljallangan matolar....	115

4.9. Printlar.....	119
V BOB. KIYIM DETALLARINI TASVIRLASH	
5.1. Kiyim detallarini tasvirlash.....	125
5.2. "Urban girl- shaxarlik qiz" shiori ostida o'rta yoshdagi ayollar komplekti.....	126
5.3. "Vacation girl-" shiori ostida o'rta yoshdagi ayollar komplekti.....	128
5.4. "Party girl-" shiori ostida o'rta yoshdagi ayollar komplekti	129
5.5. "Urban guy" shiori ostida o'rta yoshdagi erkaklar komplekti.....	130
5. 6. "Vacation guy" shiori ostida o'rta yoshdagi erkaklar komplekti.....	131
5.7. "Party guy" shiori ostida o'rta yoshdagi erkaklar komplekti	131
VI BOB. LOYIHALASHDA SHABLON ESKIZLARINI QO'LLASH VA CHIZISH	
6.1. Ishchi va for eskizlar.....	136
6.2. For – eskizlar uchun namunalar yaratish.....	138
6.3. Texnik rasm yaratish.....	142
6.4. Kompyuterda loyihalashtirish.....	154
6.5. Kompyuter dasturlaridan foydalananib texnik mahsus for eskizlani yaratish.....	156
6.6. Qomat holati va for eskizlarini kompozisiyada ko'rsatish.	158
6.7. Ko'rgazmali ishchi eskizlar.....	159
VII BOB. AKSESSUARLARNI TASVIRLASH	
7.1. Bosh kiyimlar, poyafzallar va libosni to'ldiruvchi vositalarni tasvirlash.....	160
7.2. Ayollar poyafzallarini tasvirlash.....	169
7.3. Erkaklar poyafzallarini tasvirlash.....	171
7.4. Ayollar sumkasini tasvirlash.....	173
7.5. Erkaklar sumkasini tasvirlash.....	176
7.6. Ayollar libosi aksessuarlarini tasniflash.....	176
7.7. Erkaklar libosi aksessuarlarini tasniflash.....	178
VIII BOB. MODA ILLYUSTRATSIYASI GALEREYASI	
8.1. Kapyushon kurtka (parka) eskizda qanday tasvirlanadi?	181
8.2. Mashhur dizaynerlarning eskizlar galereyasi.....	183
Glossariy.....	203
Foydalilanilgan adabiyotlar	229

СОДЕРЖАНИЕ:

Введение.....	3
I-ГЛАВА. ИНСТРУМЕНТЫ МАТЕРИАЛЫ	
Рабочее место дизайнера.....	9
Основные материалы и инструменты (Базовая комплектация)	10
Основные составляющие специализации: экспериментальное и отраслевое	14
II-ГЛАВА. АНОТОМИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА И В СОСТОЯНИЕ ДВИЖЕНИЯ	
Пропорции фигуры модели.....	29
Создание эскизных шаблонов.....	33
Строение головы.....	36
Изображение кисти руки и ноги.....	39
Состояние положения стоящей женской фигуры в движении	46
Состояние положения стоящей мужской фигуры в движении	53
III-ГЛАВА.СКЕЧБУК – ЭЛЕМЕНТ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	
Скетчбук- элемент творческой деятельности.....	68
Творческий источник скетчука.....	69
Колоритный проект Карена Фехра	70
Исследование при проектировании.....	72
Творческий источник.....	74
VI-ГЛАВА.ИЗОБРАЖЕНИЕ МАТЕРИАЛОВ И ТКАНЕЙ	
Основные техники при изображении фактур тканей	88
Изображение драпировок. Основные способы изображения форм в драпировках.....	97
Изображение белой ткани в эскизе.....	98
Изображение дорогоценных тканей.....	102
Изображение изделий из меха и кожи.....	103
Изображение фактур трикотажных изделий.....	108
Изображение материалов прочных при носке.....	111

Материалы предназначенные для мужского ассортимента.....	115
Принты.....	119
V-ГЛАВА. ИЗОБРАЖЕНИЕ ДЕТАЛЕЙ ОДЕЖДЫ	
Изображение деталей одежды.....	125
Женский комплект для среднего возраста под девизом “Urbangirl- городская девушка”	126
Женский комплект для среднего возраста под девизом “Vacationgirl”	128
Женский комплект для среднего возраста под девизом “Partygirl”	129
Мужской комплект для среднего возраста под девизом “Urbanguy”.....	130
Мужской комплект для среднего возраста под девизом “Vacationguy”	131
Мужской комплект для среднего возраста под девизом “Partyguy”	131
VI-ГЛАВА. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ШАБЛОННЫХ ЭСКИЗОВ ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ И ИЗОБРАЗИТЬ ИХ	
Рабочие ифорэскизы.....	136
Создание образцов для фор эскизов.....	138
Создание технических эскизов.....	142
Компьютерное проектирование.....	154
Создание специальных технических фор ескизов с помощью компьютерных программ.....	156
Показать положения фигуры и фор эскизов в композиции.....	158
Показательные рабочие эскизы.....	159
VII-ГЛАВА. ИЗОБРАЖЕНИЕ АКСЕССУАРОВ	
Изображение головных уборов, обуви и дополнительных деталей одежды.....	160
Изображение женской обуви.....	169
Изображение мужской обуви.....	171
Изображение женской сумки.....	173
Изображение мужской сумки.....	176
Анализ аксессуаров женской одежды.....	176

Анализ аксессуаров мужской одежды.....	178
VIII-ГЛАВА. ГАЛЕРЕЯ МОДНОЙ ИЛЛЮСТРАЦИИ	
Как изобразить Капюшоновую куртку (парка) в эскизе?	181
Эскизная галерея знаменитых дизайнеров.....	183
Глоссарий.....	203
Использованная литература.....	229

CONTENTS:

Entry.....	3
CHAPTER 1. EQUIPMENT AND MATERIALS	
1.1. The designer's working place.....	9
1.2. Basic materials and equipment (basic package).....	10
1.3. Needable collections for specialty: experimental and sphere.....	14
CHAPTER 2. HUMAN'S ANATOMICAL STRUCTURE AND PROGRESS OF MOTION	
2.1. Model's figure proportion.....	29
2.2. A variety of different age figures.....	33
2.3. Human's figure proportion and its classification.....	36
2.4. To create a samples.....	39
2.5. Structure of the head.....	46
2.6. Hand and foot fingers scheme.....	53
2.7. Women's standard figure standing on the front and back view.....	59
2.8. Women's standard figure standing on the front and back view.....	64
CHAPTER 3. SKETCHBOOK – THE ELEMENT OF CREATIVE ACTIVITY	
3.1 Creative element of sketchbook.....	68
3.2. Creative source of sketchbook.....	69
3.3 Colorful project of Karen Fehr.....	70
3.4. Project researching.....	72
3.5. Creative resources.....	74
CHAPTER 4. DEPICTION OF FABRICS AND MATERIALS	
4.1. Depiction of draperies.....	88
4.2. Main ways to create drapery forms.....	97
4.3. Basical techniques of sketching of different texture fabrics. Depiction of white fabric sketching.....	98
4.4. Depiction of precious fabrics.....	102
4.5. Depiction of fur and leather garments.....	103
4.6. Depiction of knitwear garments' texture.....	108
4.7. Depiction of wear-stable fabrics.....	111

4.8. Fabrics for men's clothing assortment.....	115
4.9. Prints.....	119
CHAPTER 5. DEPICTION OF GARMENT DETAILS	
5.1. Depiction of garment details.....	125
5.2. Women set for middle-age under the slogan "Urban girl-citizen girl".....	126
5.3. Women set for middle-age under the slogan "Vacation girl".....	128
5.4. Women set for middle-age under the slogan "Party girl"....	129
5.5. Men set for middle-age under the slogan "Urban guy"....	130
5.6. Men set for middle-age under the slogan "Vacation guy"....	131
5.7. Men set for middle-age under the slogan "Party guy"....	131
CHAPTER 6. USING OF SAMPLE SKETCHES OF PROJECTING	
6.1. Working and front-sketches.....	136
6.2. Creation of samples for front-sketches.....	138
6.3. Process of technique sketching.....	142
6.4. Computer designing.....	154
6.5. Computer programs for creating technical-special front-sketches	156
6.6. Figure position and depiction of sketching compositions...	158
6.7. Demonstration of working sketches.....	159
CHAPTER 7. DEPICTION OF ACCESSORIES	
7.1. Depiction of headwear, shoes and garment complementary tools.....	160
7.2. Depiction of women's footwear.....	169
7.3. Depiction of men's footwear.....	171
7.4. Depiction of women's bags.....	173
7.5. Depiction of men's bags.....	176
7.6. Classification of women's clothing and accessories.....	176
7.7. Classification of men's clothing and accessories.....	178
CHAPTER 8. THE GALLERY OF FASHION ILLUSTRATIONS	
The jacket hood (the park) how to depict on sketching?	181
Famouse desihgner's gallery of samples.....	183
Glossary.....	203
Bibliography.....	229

QAYDLAR UCHUN

**XALIDA XAFIZOVNA KAMILOVA,
NASIBA ANVAROVNA ISAXOJAYEVA,
KAMOLA RAMZIDDINOVNA FUZAILOVA**

KOSTYUM KREATIV GRAFIKASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2017

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	F.Tishaboyev
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

**E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 11.12.2017.**

Bichimi 60x84^{1/16}. «Timez Uz» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

**Shartli bosma tabog‘i 14,75. Nashriyot bosma tabog‘i 15,0.
Tiraji 200. Buyurtma №231.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.**

100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-11-650-4



A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-11-650-4.

FAN VA
TEKNOLOGIVALAR